

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA  
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

**SAN'ATSHUNOSLIK FAKULTETI**


**TEXNOLOGIK TA'LIM KAFEDRASI**

**“METROLOGIYA, STANDARTLASHTIRISH VA  
SERTIFIKATLASHTIRISH”**

**fanidan**

**O'QUV-USLUBIY MAJMUA**

**5112100-Texnologik ta'limi yo'nalishi  
talabalari uchun**



**Namangan-2021**

O'quv uslubiy majmua Namangan davlat universitet ilmiy Kengashi tomonidan 2021 yilning 28 avgustida tasdiqlangan fan dasturi asosida ishlab chiqilgan.

**Tuzuvchi:**

**Uluhanov I.T.** Texnologik talim kafedrasи dotsenti,  
f.-m.f.n.

**Taqrizchilar:**

**A.Umirzaqov**, NamMQI, texnika fanlari doktori,  
professor.

**A.Nabiyev**, NamDU, kaf.mudiri, texnika fanlari  
bo'yicha falsafa doltori (PhD).

O'quv uslubiy majmua Namangan davlat universiteti Kengashininig 2021 yil "28" avgustdagи "1" - son yig'ilishida ko'rib chiqilgan va foydalanishga tavsiya etilgan.

## O‘QUV – USLUBIY MAJMUANING TARKIBI

Nº	Mundarija	Bet
1.	O‘quv-metodik materiallar .....	2
1.1.	Ma’ruzalar matni .....	4
1.2.	Seminar va amaliy mashg‘ulotlarni bajarishga uslubiy ko‘rsatmalar.....	61
2.	Glossariy .....	123
2.1.	Fan uchun xorijiy va o‘zbek tilidagi adabiyot (elektron shaklda)	
2.2.	Taqdimotlar (elektron shaklda)	
3.	Qo‘srimcha o‘quv va ilmiy material (elektron shaklda).	
4.	Mavzuni o‘zlashtirish uchun materiallar (elektron shaklda)	
5.	Fan dasturi.....	135
6.	Ishchi o‘quv dastur.....	141

# **1-MAVZU: Metrologiya, standartlashtirish va sertifikatsiya fani va uning mahsulot sifatini oshirishdagi roli.**

Reja:

- 1.O`zbekiston Respublikasi Davlat milliy standarti tizimi.
- 2.Ilmiy texnik rivojlanishdagi standartning ahamiyati.
- 3.Standartlashtirishning maqsadi va vazifalari.
- 4.O`lhash asboblarining metrologik ko`rsatkichlari.
- 5.O`lhash asboblari hamda metodlari.
- 6.O`lhash vositalarini tanlash shartlari.

Metrologiya, moddalarning xossalari va fizik xodisalar, materiallar va texnologik jarayonlar xarakteristikasi to'g'risida ob'ektiv miqdoriy informatsiyalar olish metodi va vositalari majmuidan iborat.

O`zbekistonda metrologiyaning rivojlanish darajasi umumiyligi ilmiy-texnika taraqqiyati bilan bog'liq va u xalq xo'jaligining hamma soxalarida ishlab chiqarishning yanada rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Boshqariladigan atom reaktorlari va raketalarni yaratish, kosmik uchishlarni amalga oshirish kabi murakkab muammolarni faqat hozirgi zamon metrologiyasining o`lhash metodi va vositalari asosida yechish mumkin bo'ldi. Hozirgi vaqtida o`lhash katta ahamiyatga ega bo'lmasan biror bilim sohasi topilmaydi.

## **O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI**

**28.12.1993 y. N 1004-XII**

### **METROLOGIYa TO'G'RISIDA**

#### **I- BO'LIM. UMUMIY QOIDALAR**

##### **1-modda. Asosiy tushunchalar**

Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar ishlatalmoqda:

**"metrologiya"** - o`lchovlar, ularning yagona birlikda bo'lishini ta'minlash usullari va vositalari hamda talab qilinadigan aniqlikka erishish yo'llari haqidagi fan;

**"yagona o`lchov birligi"** - o`lchovlarning natijalari qonunlashtirilgan birliklarda aks ettirilgan va xatoliklari berilgan ehtimollikda ma'lum bo'lgan o`lchov holati;

**"o`lchov vositasi"** - o`lchovlar uchun foydalilanadigan va normalangan metrologik xususiyatga ega bo'lgan texnika vositasi;

**"birlik etaloni"** - fizik o`lcham birligini boshqa o`lchov vositalariga o'tkazish maqsadida uni qayta hosil qilish va saqlash uchun mo'ljallangan o`lchov vositasi;

**"davlat etaloni"** - vakolat berilgan milliy organning qarori bilan O`zbekiston Respublikasi hududida o`lchov birligining o`lchami sifatida e'tirof etilgan etalon;

**"metrologik xizmati"** - davlat organlari va yuridik shaxslarning metrologiya xizmatlari tarmog'i hamda ularning o`lchovlar yagona birlikda bo'lishini ta'minlashga qaratilgan faoliyat;

**"davlat metrologiya nazorati"** - metrologiya qoidalariga rioya etilishini tekshirish maqsadida davlat metrologiya xizmati organlari amalga oshiradigan faoliyat;

**"o`lchov vositalarini tekshiruvdan o'tkazish"** - o`lchov vositalarining belgilab qo'yilgan texnik talablarga muvofiqligini aniqlash va tasdiqlash maqsadida davlat metrologiya xizmati organlari (vakolat berilgan boshqa organlar, tashkilotlar) tomonidan bajariladigan operatsiyalar majmui;

**"o`lchov vositalarini kalibrash"** - metrologik jihatlarning haqiqiy qiymatlarini va o`lchov birliklarining qo'llashga yaroqlilagini aniqlash hamda tasdiqlash maqsadida kalibrash laboratoriyasi bajaradigan operatsiyalar majmui;

O'zR 25.04.2003 y. 482-II-son Qonuniga muvofiq o'n birinchi xat boshi chiqarib tashlangan

"o`lchov vositalarini yasash (ta'mirlash, sotish, ijaraga berish) uchun litsenziya" - davlat metrologiya xizmati tomonidan yuridik va jismoniy shaxslarga beriladigan, mazkur faoliyat turlari bilan shug'ullanish huquqini guvohlantiruvchi hujjat.

**"o'lchov vositalarini metrologik attestatsiya qilish"** - yagona namunalarda ishlab chiqariladigan (yoki O'zbekiston hududiga yagona namunalarda olib kiriladigan) o'lchov vositalarining xossalarini sinchiklab tadqiq etish asosida ular qo'llanish uchun haqqoniy ekanligining metrologiya xizmati tomonidan e'tirof etilishi;

**"metrologiya xizmatlari, markazlari, laboratoriyalarini akkreditatsiya qilish"** - o'lchovlarning yagona birligini ta'minlash ishlarini akkreditatsiya qilishni belgilangan sohada o'tkazishga metrologiya xizmatlari, markazlari, laboratoriyalarining vakolatli ekanligining rasmiy e'tirof etilishi;

**"o'lchov vositalarini kalibrlash huquqiga ega bo'lishi uchun yuridik shaxslar metrologiya xizmatini akkreditatsiya qilish"** - yuridik shaxslar metrologiya xizmatining belgilangan sohada o'lchov vositalarini kalibrashdan o'tkazishga vakolatli ekanligining rasmiy e'tirof etilishi;

**"o'lchovlarning bajarilish uslubiyotlarini metrologik attestatsiya qilish"** - o'lchovlarni bajarish uslubiyotining unga qo'yilgan metrologiya talablariga mosligini baholash hamda tasdiqlash maqsadida tadqiqot o'tkazish;

**"o'lchovlarning bajarilish uslubiyoti"** - operatsiyalar va qoidalar majmui bo'lib, ularning bajarilishi xatolari ma'lum bo'lgan o'lchov natijalari olishni ta'minlaydi; (O'zR 25.04.2003 y. 482-II-son Qonuni tahriridagi xat boshi), (Oldingi tahririga qarang)

## **2-modda. Metrologiya to'g'risidagi qonun hujjatlari**

Metrologiya to'g'risidagi qonun hujjatlari ushbu Qonundan va O'zbekiston Respublikasining o'zga qonun hujjatlaridan iboratdir.

### **3-modda. Xalqaro shartnomalar va bitimlar**

Basharti xalqaro shartnomada yoki bitimda O'zbekiston Respublikasining metrologiya to'g'risidagi qonun hujjatlaridagidan o'zgacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnomaga yoki bitim qoidalari qo'llanadi.

### **4-modda. Metrologiyaga oid faoliyatni davlat tomonidan boshqarish**

Metrologiyaga oid faoliyatni davlat tomonidan boshqarishni metrologiya bo'yicha milliy organ - O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi amalga oshiradi.

### **4-1-modda. O'lchovlarning yagona birlikda bo'lishini ta'minlashga oid normativ hujjatlar**

O'lchovlarning yagona birlikda bo'lishini ta'minlashga oid, metrologiya normalari va qoidalarini belgilovchi hamda O'zbekiston Respublikasi hududida majburiy kuchga ega bo'lgan normativ hujjatlarni tasdiqlash va davlat ro'yxatidan o'tkazishni "O'zstandart" agentligi amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasining korxonalari, tashkilotlari, davlat boshqaruv organlari, yuridik shaxslar birlashmalari metrologiya sohasidagi davlat metrologiya tekshiruvi va nazorati tatbiq etiladigan doiradan tashqaridagi normalar va qoidalarni belgilaydigan, o'lchovlarning yagona birlikda bo'lishini ta'minlashga oid, "O'zstandart" agentligi tomonidan tasdiqlangan normativ hujjatlarni aniqlashtiradigan va ularga zid bo'lмаган normativ hujjatlarni o'z vakolatlari doirasida ishlab chiqishlari hamda tasdiqlashlari mumkin. (O'zR 25.04.2003 y. 482-II-son Qonuni tahriridagi modda)

## **III- BO'LIM. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING METROLOGIYA XIZMATLARI**

### **9-modda. O'zbekiston Respublikasi metrologiya xizmatining tuzilishi**

O'zbekiston Respublikasi metrologiya xizmati davlat metrologiya xizmatidan va yuridik shaxslarning metrologiya xizmatlaridan tarkib topadi.

### **10-modda. Davlat metrologiya xizmati**

"O'zstandart" boshchilik qiladigan davlat metrologiya xizmatiga Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi davlat metrologiya xizmati organlari kiradi.

Davlat metrologiya xizmati organlari davlat metrologiya tekshiruvi va nazoratini, shuningdek faoliyatning boshqa turlarini amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiradi.

### **11-modda. Yuridik shaxslarning metrologiya xizmatlari**

Yuridik shaxslarning metrologiya xizmatlari zarurat bo'lgan hollarda o'lchovlarning yagona birligini ta'minlash bo'yicha ishlarni bajarish va metrologiya nazoratini amalga oshirish uchun tuziladi.

Yuridik shaxslar metrologiya xizmatlarining huquq va burchlari davlat metrologiya xizmati organlari bilan kelishib olingan nizomlar bilan belgilanadi.

### **IV- BO'LIM. DAVLAT METROLOGIYa TEKSHIRUVI VA NAZORATI**

#### **12-modda. Davlat metrologiya tekshiruvi va nazoratini o'tkazish tartibi.**

Davlat metrologiya tekshiruvi va nazorati davlat metrologiya xizmati organlari tomonidan metrologiya normalari va qoidalariga rioya etilishini tekshirish maqsadida amalga oshiriladi.

Davlat metrologiya tekshiruvi va nazorati metrologiya sohasidagi qonun hujjatlari talablariga muvofiq amalga oshiriladi.

#### **13-modda. Davlat metrologiya tekshiruvi va nazorati ob'ektlari**

Quyidagilar davlat metrologiya tekshiruvi va nazoratining ob'ektlari hisoblanadi:

etalonlar;

o'lchov vositalari;

moddalar va materiallar tarkibi hamda xossalarning standart namunalari;

axborot-o'lchov tizimlari;

o'lchovlarni bajarish uslubiyotlari;

metrologiya normalari va qoidalarida nazarda tutilgan o'zga ob'ektlar.

#### **14-modda. Davlat metrologiya tekshiruvi va nazorati tatbiq etiladigan doiralar**

Davlat metrologiya tekshiruvi va nazorati:

sog'liqni saqlash, veterinariya, atrof-muhitni muhofaza qilish;

moddiy boyliklarni va energetika resurslarini hisobga olish;

savdo-tijorat, bojxona, pochta va soliq operatsiyalarini o'tkazish, telekommunikatsiya xizmatlarini ko'rsatish;

zaharli, yengil alangalanuvchan, portlovchi va radioaktiv moddalarni saqlash, tashish hamda yo'q qilib tashlash;

davlat mudofaasini ta'minlash;

mehnat xavfsizligini va transport harakati xavfsizligini ta'minlash;

sertifikatlanadigan mahsulotning xavfsizligi va sifatini aniqlash;

geodezik va gidrometeorologik ishlar;

o'lchov vositalarini davlat sinovidan, tekshiruvdan, kalibrashdan, ta'mirlash va metrologik attestatsiyadan o'tkazish;

foydalı qazilmalarni qazib olish;

milliy va xalqaro sport rekordlarini ro'yxatga olishga nisbatan tatbiq etiladi.

O'zbekiston Respublikasining normativ hujjatlariga binoan davlat metrologiya tekshiruvi va nazorati faoliyatning o'zga doiralariga nisbatan ham tatbiq etilishi mumkin.

#### **15-modda. Davlat metrologiya tekshiruvi va nazorati turlari**

Davlat metrologiya tekshiruvi quyidagi tarzda amalga oshiriladi:

o'lchov vositalarining turlarini sinash va tasdiqlash;

o'lchov vositalarini hamda o'lchovlarning bajarilish uslubiyotlarini metrologik attestatsiya qilish;

o'lchov vositalarini, shu jumladan, etalonlarni tekshiruvdan o'tkazish, kalibrash;

o'lchov vositalarini hamda o'lchovlarning bajarilish uslubiyotlarini sinash, tekshiruvdan o'tkazish, metrologik attestatsiya qilish, o'lchov vositalarini va metrologiya faoliyatning boshqa muayyan turlarini kalibrash huquqiga ega bo'lishi uchun metrologiya xizmatlari, markazlari, laboratoriyalarini akkreditatsiya qilish;

yuridik va jismoniy shaxslarning o'lchov vositalarini tayyorlash, realizatsiya qilish, ularning ijarasi bilan shug'ullanishga doir faoliyati litsenziyalanayotganda mazkur shaxslarning belgilangan metrologiya normalari va qoidalariга rioya etishlarini baholash hamda tasdiqlash;

o'lchovlarning bajarilish sifatini va metrologiya faoliyatining boshqa turlarini baholash  
Davlat metrologiya nazorati:

o'lchov vositalarini tayyorlash, ta'mirlash, ularning ijarasi bilan shug'ullanish, ularni realizatsiya qilish, ularning holati va qo'llanilishi (fizik o'lchamlar birliklari etalonlarini, moddalar va materiallar tarkibi hamda xossalaring standart namunalarini, o'lchov tizimlarini qo'shgan holda);

o'lchovlarning bajarilish uslubiyotlarining qo'llanilishi;

belgilangan metrologiya normalari va qoidalariга rioya etilishi hamda akkreditatsiya qilingan metrologiya xizmatlari, markazlari, laboratoriyalari faoliyati ustidan amalga oshiriladi. Zarur hollarda "O'zstandart" qaroriga binoan metrologiya tekshiruvi va nazoratning boshqa turlari va shakllari ham belgilanishi mumkin.

### **18-1-modda. Metrologiya ishlari va xizmatlarini amalga oshirish huquqi bilan ta'minlash uchun yuridik va jismoniy shaxslarni akkreditatsiya qilish**

Normativ va texnik hujjatlarni metrologik ekspertiza qilish, o'lchovlarning bajarilish uslubiyotlarini metrologik attestatsiya qilish, ushbu qonunning 14-moddasida ko'rsatilgan doirada qo'llanilishi va foydalanimli mumkin bo'lgan o'lchov vositalarini tekshiruvdan o'tkazish, kalibrlash, ta'mirlash, sinash, metrologik attestatsiya qilishni amalga oshirish huquqi bilan ta'minlash uchun yuridik va jismoniy shaxslarni akkreditatsiya qilish "O'zstandart" agentligi tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

### **19-modda. Metrologiya normalari va qoidalarini buzganlik uchun javobgarlik**

Ushbu Qonunning qoidalari, shuningdek metrologiya normalari va qoidalari buzilishida abydar bo'lgan O'zbekiston Respublikasining yuridik va jismoniy shaxslari, davlat boshqaruv organlari amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladilar.

## **V- BO'LIM. METROLOGIYa ISHLARINI MOLIYaVIY TA'MINLASH**

### **20-modda. Davlat tomonidan albatta moliyaviy ta'minlash**

Davlat tomonidan quyidagilar:

metrologiyani rivojlantirish istiqbollarini ishlab chiqish;

metrologiya sohasida rasmiy axborotlar bilan ta'minlash;

metrologiya bo'yicha xalqaro, mintaqaviy tashkilotlarning ishida qatnashish va metrologiya bo'yicha chet el milliy xizmatlari bilan ishlar bajarish;

metrologiya bo'yicha xalqaro, mintaqaviy normalar hamda qoidalarni ishlab chiqish va ishlab chiqishda qatnashish;

metrologiya sohasidagi normativ hujjatlarni ishlab chiqish;

metrologiya bo'yicha umum davlat ahamiyatiga molik ilmiy-tadqiqot va o'zga ishlarni o'tkazish;

o'lchovlarning yagona birligini ta'minlashga doir "O'zstandart" agentligi tomonidan tasdiqlanadigan normativ hujjatlarni ishlab chiqish;

fizik o'lcham birliklarining etalonlarini va o'ta aniq namunaviy o'lchov vositalarini ishlab chiqish, takomillashtirish, yasash, saqlash, qo'llash, sotib olish va asrash, shuningdek ularning xalqaro darajada solishtirilishini ta'minlash;

moddalar va materiallar tarkibi hamda xossalaring standart namunalarini, shuningdek moddalar va materiallarning fizik konstantalari hamda xossalaring oid standart spravka ma'lumotlari ishlab chiqish va joriy etish davlat tizimlarini rivojlantirishga doir ishlar;

davlat metrologiya tekshiruvi va nazoratiga doir ishlar albatta byudjetdan moliyaviy ta'minlanishi shart.

## **2-MAVZU: Metrologiya va texnik o'lchashlar. Asosiy tushuncha va ta'riflar. O'lchash vositalari va usullari, o'lchashdagi noaniqlik (xatolik)lar. Universal va avtomatlashgan o'lchash usullari.**

**Reja:**

### **4-1-modda. O'lchovlarning yagona birlikda bo'lishini ta'minlashga oid normativ hujjatlar**

O'lchovlarning yagona birlikda bo'lishini ta'minlashga oid, metrologiya normalari va qoidalarini belgilovchi hamda O'zbekiston Respublikasi hududida majburiy kuchga ega bo'lgan normativ hujjatlarni tasdiqlash va davlat ro'yxatidan o'tkazishni "O'zstandart" agentligi amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasining korxonalari, tashkilotlari, davlat boshqaruv organlari, yuridik shaxslar birlashmalari metrologiya sohasidagi davlat metrologiya tekshiruvi va nazorati tatbiq etiladigan doiradan tashqaridagi normalar va qoidalarni belgilaydigan, o'lchovlarning yagona birlikda bo'lishini ta'minlashga oid, "O'zstandart" agentligi tomonidan tasdiqlangan normativ hujjatlarni aniqlashtiradigan va ularga zid bo'limgan normativ hujjatlarni o'z vakolatlari doirasida ishlab chiqishlari hamda tasdiqlashlari mumkin.

### **II BO'LIM. FIZIK O'LCHAM BIRLIKHLARI, ULARNI QAYTA HOSIL QILISH VA QO'LLASH**

#### **5-modda. Fizik o'lcham birliklari**

O'zbekiston Respublikasida Xalqaro o'lchamlar tizimi (SI)ning fizik o'lcham birliklarini belgilangan tartibda qo'llashga yo'l qo'yiladi. Fizik o'lcham birliklarining nomi, belgisi, ularni yozish va qo'llash qoidalari "O'zstandart"ning taqdimnomasiga binoan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Xalqaro o'lchamlar tizimiga kiritilmagan o'lchamlarni qo'llashga ruxsat berishi mumkin.

Tashqi savdo faoliyatini amalga oshirish chog'ida kontrakt shartlariga muvofiq fizik o'lchamlarning o'zga birliklari ham ishlatilishi mumkin.

#### **6-modda. Fizik o'lchamlar birliklarining etalonlari**

Fizik o'lchamlarning birliklari etalonlar vositasida saqlanadi va qayta tayyorlanadi.

Etolonlarni yaratish, tasdiqlash, saqlash va qo'llash tartibini "O'zstandart" belgilaydi.

#### **7-modda. O'lchov vositalari**

Foydalanishda bo'lgan o'lchov vositalari o'lchov natijalarining qonunlashtirilgan birliklarda belgilab qo'yilgan aniqlikda bo'lishini ta'minlashi va qo'llash shartlariga mos kelishi lozim.

Texnika vositalarini o'lchov vositalariga mansub deb topish mezonini "O'zstandart" belgilaydi.

#### **8-modda. O'lchovlarni bajarish uslubiyotlari**

O'lchovlarni bajarish uslubiyotlari o'lchov natijalarining xatoliklarini baholashni o'z ichiga olishi va o'lchov o'tkazishning mavjud sharoitlarida belgilab qo'yilgan aniqlikni ta'minlashi lozim. O'lchovlar belgilangan tartibda attestatsiya qilingan o'lchovlarning bajarilish uslubiyotlariga muvofiq holda amalga oshirilishi lozim.

O'lchovlarni bajarish uslubiyotlarini ishlab chiqish va metrologik attestatsiya qilish tartibini "O'zstandart" belgilaydi.

#### **16-modda. O'lchov vositalarining turlarini tasdiqlash**

Ushbu Qonunning 14-moddasida ko'rsatilgan doiralarda foydalaniladigan, ishlab chiqarilishi va import bo'yicha chetdan olib kelinishi lozim bo'lgan o'lchov vositalari davlat sinovlaridan (keyinchalik ularning turini tasdiqlash sharti bilan) yoki metrologik attestatsiyadan o'tkazilishi lozim.

O'lchov vositalarining davlat sinovlarini o'tkazish, turini tasdiqlash va Davlat reestriga kiritishni "O'zstandart" amalga oshiradi.

Tasdiqlangan o'lchov vositalariga yoki ularning foydalanish hujjatlariga ishlab chiqaruvchi Davlat reestri belgisini qo'yishi shart.

Boshqa davlatlarning o'lchov vositalarini sinash va metrologik attestatsiyalash natijalari tuzilgan shartnomalar hamda bitimlarga muvofiq e'tirof etiladi.

### **17-modda. O'lchov vositalarini tekshiruvdan o'tkazish**

Tekshiruvdan o'tkazilishi lozim bo'lgan o'lchov vositalari turkumlarining ro'yxati "O'zstandart" tomonidan tasdiqlanadi.

Yuridik shaxslarning akkreditatsiya qilingan metrologik xizmatlariga o'lchov vositalarini tekshiruvdan o'tkazish huquqi berilishi mumkin.

Boshqa davlatlarda amalga oshirilgan o'lchov vositalarini tekshirish natijalari xalqaro shartnomalar va bitimlar asosida e'tirof etiladi.

#### **17-1-modda. O'lchov vositalarini kalibrlash**

Ushbu Qonunning 14-moddasida ko'rsatib o'tilganidan bo'lak sohalarda qo'llaniladigan va majburiy tekshiruvdan o'tkazilmaydigan o'lchov vositalari ularni ishlab chiqarish, realizatsiya qilish, ishlatish, ijaraga berish, ta'mirlashda va O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirishda kalibrashdan o'tkazilishi mumkin.

O'lchov vositalarini kalibrash huquqi yuridik shaxslarning akkreditatsiya qilingan metrologiya xizmatlariga berilishi mumkin.

Yuridik shaxslarning metrologiya xizmatlarini o'lchov vositalarini kalibrash huquqiga ega bo'lishi uchun akkreditatsiya qilish tartibi va kalibrashni o'tkazish tartibi "O'zstandart" tomonidan belgilanadi".

### **18-modda. O'lchov vositalarini tayyorlash, realizatsiya qilish va ularning ijerasi bilan shug'ullanish uchun yuridik va jismoniy shaxslarning faoliyatiga litsenziya berish**

Ushbu qonunning 14-moddasida ko'rsatilgan doirada qo'llanilishi mumkin bo'lgan o'lchov vositalarini tayyorlash, realizatsiya qilish va ularning ijerasi bilan shug'ullanish qonun hujjatlariga muvofiq beriladigan litsenziya asosida yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshiriladi.

Fizik o'lchov birliklari. Fizik o'lchov birliklarining yuzaga kelishi. O'lchov asosini yaratilishi.

#### **1. Fizik o'lchov birliklari.**

*Fizik kattaliklar* deb jismning shunday xossalariiga aytildiki, ular turli jismlarda har hil miqdorda bo'lishi yoki shu jismning o'zida o'zgarib turishi mumkin. Bunday kattaliklarga uzunlik, massa, hajm, temperatura, bosim va boshqa hususiyatlar kiradi.

O'lchash jarayoni, berilgan kattalikni birlik uchun qabul qilingan ma'lum qiymat bilan solishtirishdan iboratdir. O'lchov birligi ixtiyoriy kattalikda olinishi mumkin, biroq moddiy namuna yoki etalonlar usullarida imkonli boricha aniq ko'rsatilishi lozim.

Ma'lum miqdorlarning ko'pchiligi o'zaro miqdoriy nisbatda bog'langandir, shuning uchun o'lchov birligi ba'zi bir mustaqil kattaliklar uchungina ixtiyoriy olingan. Bunday birliklar asosiy birliklar deb ataladi. O'lchamlari matematik bog'lanishlar asosida asosiy birliklardan topilgan boshqa hamma birliklar to'plami xosila birliklar deyiladi. Asosiy va xosila birliklar to'plami fizik kattaliklarning o'lchov birliklari sistemasini tashkil qiladi.

O'lchov texnikasining rivojlanish tarixi mobaynida turli kattaliklar uchun o'lchov birliklari to'xtovsiz o'zgarib kelgan, o'lchamlarni tanlash tasodifiy va tartibsiz xarakterda bo'lgan. SHu sababli hozirgi vaqtgacha amalda turli birliklar qo'llanilgan, bu esa fan, texnika, ishlab-chiqarish va ijtimoiy faoliyatlar turli sohalarida ko'pgina qiyinchiliklarga sabab bo'ladi.

O'lchashlar sohasida zarur umumiyligini ta'minlash maqsadida o'lchov va tarozilar bo'yicha X1 – General konferentsiyada Xalqaro birliklar sistemasi (SI) qabul qilindi, bu sistema sobiq SSSR territoriyasida asosiy va eng qulay davlat standarti sifatida ma'qullangan.

#### **2. Xalqaro birliklar sistemasi (SI).**

Xalqaro birliklar sistemasiga oltita asosiy, ikkita qo'shimcha geometrik birlik va yigirma yettita eng muhim hosila o'lchov birligi kiradi.

**Asosiy birliklar:** uzunlik (metr), massa (kg), vaqt (sek), elektr tok kuchi (amper), temperatura (Kelvin gradusi) va yorug'lik kuchi (sham) ni o'lchash qabul qilingan.

**Qo'shimcha geometrik birliklar** yassi burchak (radian) va fazoviy burchak (steradian) ni o'lchash uchun belgilangan.

**Xosila birliklar** bevosita yoki bilvosita asosiy birliklardan eng soda matematik bog'lanishlar orqali (birga teng bo'lgan koeffitsient sifatida) topilgan, bu, Xalqaro birliklar sistemasining boshqa birliklar sistemasiga nisbatan afzalligidir.

Quyida (SI) ning asosiy birliklarini GOST 9867-61 bo'yicha topish va bu birliklarni qayta ko'rib chiqish usullari haqida tushuntirish keltiriladi.

**Me tr** - krepton-86 atomining vakumda 2R10 va 5d5 energiya sathlari orasidan o'tishiga to'g'ri keladigan nurlanish to'lqinlarining 1650763,73 tasi uzunligiga teng bo'lgan uzunlikdir.

Uzunlikning asosiy o'lchov birligi 1960 yilga qadar moddiy etalon-metrning halqaro prototipi bilan aniqlangan. O'lchov va tarozilar bo'yicha X1 General konferentsiyada metrning yorug'lik nurlanishi to'lqin uzunliklari orqali eng aniq yangi tabiiy etalonni ma'qullangan.

Elektr maydonining ba'zi ximik elementlar atomiga ta'siri natijasida elektronlarning bir orbitadan boshqa orbitaga siljishi ro'y beradi. Bunday siljishlar, atomning ichki energiyasining o'zgarishi bilan bog'liq bo'lib, o'tishlar deb ataladi. O'tishlar vaqtida ma'lum vaqt bo'yicha o'zgarmaydigan to'lqin uzunlik bilan xarakterlanadigan yorug'lik nurlanishi ro'y beradi. Metrning moddiy etalonini ko'p marta kontrol qilish natijasida, uni ishlabchiqish va o'lchashga eng qulay deb, atom og'irligi 86 bo'lgan kripton inert gazi atomi izotopining nurlanishi topildi. (1650763,73 ta to'lqin uzunligi).

**Kilogramm** - kilogramming halqaro prototipining massasiga teng bo'lgan massa birligidir. Massaning moddiy etalonni o'lchovlarning metr sistemasini tuzishda tayyorlangan. Kilogramm etalonining nusxalari bir vaqtning o'zida tayyorlangan va 43 mamlakatga berilgan.

**Sekund** - 1900 yil 0 yanvar efemerd vaqt bo'yicha soat 12 da tropik yilning 1/31556925, 9747 qismiga teng.

Vaqt o'ziga xos alohida kattalikdir. U to'xtovsiz o'tib turadi va hech qachon takrorlanmaydi. Ayrim xodisalar orasidagi vaqt oralig'ini yoki biror jarayonining davom etish muddatinigina o'lchash mumkin.

Vaqt oralig'ining tabiiy etalonni bo'lib, Yer sharining o'z o'qida va Yerning Quyosh atrofida aylanishi bilan bog'liq bo'lgan, davriy ravishda takrorlanib turadigan hodisalar xizmat qiladi.

Erning harakati Quyosh va yulduzlarning osmon sferasiga nisbatan hamda ularning o'zaro joylanishlarining o'zgarishlariga qarab aniqlanadi. Quyoshning osmon sferasidagi bir holatdan yana shu holatiga qaytgunicha qadar o'tgan vaqt oralig'i *tropik yil* deb ataladi. Tropik yil - 365,2422 sutkadir. Vaqt birligi, sutka bo'yicha emas, balki tropik yil bo'yicha aniqlangan, chunki Yerning Quyosh atrofida bir xil tezlik bilan aylanmasligi tufayli sutka uzunligi yil davomida o'zgarib turadi.

Erning harakat tezligiga bog'liq bo'lmanan xolda, bir hilda o'tuvchi vaqtga, *efemert vaqt* deb ataladi. Osmon yoritkichlarining koordinat-lari bo'lgan maxsus astronomik jadval – efemert asosida kiritiladi.

Sutkalik yurishi juda aniq bo'lgan etalon soatlar bilan vaqtini maxsus kontrol qilib turiladi. Vaqt umumiyligini ta'minlash uchun butun mamlakat bo'yicha radio orqali aniq vaqt signallari berib turiladi.

**Amer** - vakuumda bir-biridan 1 m masofada joylashgan, ko'ndalang kesimi juda kichik bo'lgan ikkita cheksiz parallel o'tkazgichning har biridan tok o'tganda, o'tkazgichlar orasida ularning har bir metr uzunligida  $2 \cdot 10^{-7}$  halqaro kuch birligiga teng o'zaro ta'sir kuchi vujudga keltiradigan o'zgarmas tok kuchidir.

"Elektr toki vaqt birligi ichida o'tkazgich kesimidan o'tgan elektr zaryadlari miqdoridan topiladi. Tok kuchi birligini moddiy etalon ko'rinishida tayyorlab bo'lmaydi, shuning uchun boshqa usullar bilan, jumladan tok tarozilar deb ataladigan, etalon qurilma ko'rinishida ishlab

chiqiladi. Solinoid ko'rinishidagi ikkita o'tkazgichdan o'zgarmas elektr toki o'tkaziladi. Bunda solenoidlar orasida xosil bo'ladigan mexanik kuch namuna yuk bilan muvozanatlanadi. Namuna yuklar qiymatiga qarab, mavjud bog'liqlik asosida tok kuchi hisoblab topiladi.

*Kye l v i n g r a d u s i* deb temperaturani termodinamik temperatura shkalasi bo'yicha o'lchash birligiga aytildi. Bu shkala suvni uch holat nuqtasi uchun  $273,16\text{ K}$  qiymat belgilangan. *Temperatura* deb moddaning isitilanlik darajasini xarakterlaydigan kattalikka aytildi.

Har bir jismni fizik hususiyatlari temperaturaga ozmi-ko'pmi bog'liq bo'ladi. Temperaturaning shkalasini tuzishda jism hajmining temperaturaga bog'liqligidan foydalanilgan. Termodinamika qonunlariga asoslanib, o'zgarmas bosimda ideal gaz hajmining o'zgarishi gaz absolyut temperaturasining Kelvin graduslaridan termodinamik shkala bo'yicha o'zgarishiga proportsional ekanligi aniqlangan. Temperaturaning ayrim qiymatlarini juda ham aniq hisoblab topish uchun modalarning qat'iy belgilangan temperaturada bir holat fazosidan ikkinchisiga o'tish hossalaridan foydalaniladi.

Asosiy termodinamik temperatura shkalasi bilan bir qatorda *TSelsiy gradusilari* qo'yilgan halqaro amaliy temperatura shkalasidan ham foydalanishga ruxsat berilgan. Bu shkalalarning farqi hisoblash-ning boshlang'ich (nol) nuqtasi turlicha joylashganlidadir. Amaliy temperatura shkalasini nol nuqtasi termodinamik temperatura shkala bo'yicha  $273,15$  qiymatiga to'g'ri keladi. Bir gradus temperatura oralig'i ikkala shkalada ham bir xil.

Termodinamik shkala bo'yicha hisoblangan temperatura (**T**), amaliy temperatura shkala bo'yicha hisoblangan temperatura (**t**) simvoli bilan belgilanganadi. SHkalaning orasidagi bog'lanish quyidagi tenglama bilan ifodalanadi:  $T = t + T_0$ , bunda  $T_0 = 273,15$  grad.

Xalqaro temperatura shkala oltita birlamchi doimiy nuqtalar bo'yicha qabul qilinadi, ularga temperaturaning aniq qiymatlari, jumladan: kislorodning (-189,97°C), suvning (100°C), oltingugurtning (444,6°C), kumushning (960,8°S), oltinning (1063°C) kaynash nuqtalari va suvning uch holat nuqtasi (0,01°C) kiradi. Muvozanatlikning hamma ko'rsatilgan holatlari, suvning uch holat nuqtasidan tashqari, normal  $101,325\text{ N/m}^2$  atmosfera bosimida o'tkaziladi. Suvning uch holat nuqtasi uchun qabul qilingan qiymat  $273,16\text{ K}$  (bir vaqt o'zida ma'lum hajmda qattiq, suyuq va gaz holatidagi fazalarini muvozanati) pasaytirilgan bosimda olinishi mumkin.

**Sha m** - yorug'lik kuchi birligi bo'lib uning qiymati quyidagicha: platinani qotish temperurasidagi to'liq nurlanish ravshanligi  $1\text{ sm}^2$  yuzaga 60 sham deb olinadi.

Yorug'lik, nur energiyasining shunday turidan iboratki, uni sezgi organlari qabul qiladi. Ultrabinafshadan to infraqizil nurlar diapazonidagi yorug'lik nurlanishlarining to'lqin uzunliklari 0,4 dan 0,76 mk gachadir. Bir xil rangli (monoxromatik) nurlanishlar ma'lum to'lqin uzunligi bilan xarakterlanadi. Yorug'lik manbaining to'liq nurlanishi uning spektrida mavjud bo'lgan hamma monoxromatik nurlanishlar yig'indisidan iborat.

Yorug'lik kuchi birligi absolyut qora jism moduli ko'rinishidagi nurlanishning etalon manbai orqali keltirilib chiqariladi. Bu etalon o'z sirtiga tushgan nur energiyasining hammasini yutish hususiyatiga ega. Absolyut qora jism modeli ichi bo'sh teshikli tsilindr dan iboratdir. Agar nurlanish manbai tsilindr ichiga joylansa, u xolda o'lchamlari cheklangan teshik orqali yorug'lik oqimi (qaytishsiz) tsilindrning ichki sirti tomonidan yutiladi.

1 sham yorug'lik kuchi, tsilindr ichidagi temperatura platinaning qotish temperurasiga ( $1773\text{ }^\circ\text{C}$ ) teng bo'lib, o'lchami  $1/60\text{ sm}^2$  teshikdan chiqayotgan yorug'lik kuchiga teng.

Xalqaro birliklar sistemasi (SI) va ular asosida keltirib chiqarilgan hosila birliklar orasidagi bog'lanishlar 1-jadvalda berilgan.

#### Xalqaro birliklar sistemasi (SI) birliklar (ГОСТ 9867-61)

1-jadval

Катталиклар	Ўлчов бирлиги	Бирликларнинг қис-қартирилган белгиси		Хосила бирликлари ўлчови
		ўзбекча	лотинча ёки грекча	

	<i>Асосий бирликлар</i>			
1. Узунлик	метр	м	m	-
2. Масса	килограмм	кг	kg	-
3. Вақт	секунд	сек	s	-
4. Электр ток кучи	ампер	а	A	-
5. Термодинамик температура	кельвин градуси	К	K	-
6. Ёруғлик кучи	шам	шм	cd	-
	<i>Күшиимча бирликлар</i>			
1. Ясси бурчак	радиан	рад	rad	-
2. Фазовый бурчак	стерадиан	стер	sr	-
	<i>Хосила бирликлар</i>			
1. Юз	квадрат метр	м <sup>2</sup>	m <sup>2</sup>	1 м <sup>2</sup>
2. Ҳажм	куб метр	м <sup>3</sup>	m <sup>3</sup>	1 м <sup>3</sup>
3. Частота	герц	Гц	Hz	1/1 сек
4. Зичлик	метр кубга килограмм	кг/м <sup>3</sup>	kg/m <sup>3</sup>	1кг/(1м <sup>3</sup> )
5. Тезлик	секундга метр	м/сек	m/s	1м/1сек
6. Бурчак тезлик	секундга радиан	рад/сек	rad/s	1рад/1сек
7. Тезланиш	секунд квадрат метр	м/сек <sup>2</sup>	m/s <sup>2</sup>	1м/(1сек <sup>2</sup> )
8. Бурчак тезланиш	секунд квадратта радиан	рад/сек <sup>2</sup>	rad/s <sup>2</sup>	1рад/(1сек <sup>2</sup> )
9. Куч	нютон	н	N	1кг.1м/1сек <sup>2</sup>
10. Босим	метр квадрат нютон	н/м <sup>2</sup>	N/m <sup>2</sup>	1н/1м <sup>2</sup>
11. Динамик ёпишқоқлик	метр квадратта нютон-секунд	н.сек/м <sup>2</sup>	N.s/m <sup>2</sup>	1н.1сек/1м <sup>2</sup>
12. Кнематик ёпишқоқлик	секунд-метр-квадрат	м <sup>2</sup> /сек	m <sup>2</sup> /s	1м <sup>2</sup> /1сек
13. Иш, энергия, иссиқлик миқдори	жоул	ж	J	1н.1м
14. Кувват	вatt	вт	W	1дж/1сек
15. Элетр миқдори	кулон	к	C	1а.1сек
16. Электр кучланиш, электр потенциаллар айирмаси, электр юритувчи куч	вольт	в	V	1вт/1а
17. Электр майдони кучланганлиги	метрига волт	в/м	V/m	1в/1м
18. Электр қаршилилк	ом	ом	R	1в/1а
19. Электр сигим	фарада	ф	F	1к/1в
20. Магнит индукцияси оқими	вебер			1к/1ом
21. Индуктивлик	генри	вб	Wb	1вб/1а
22. Магнит индукцияс	tesла	гн	H	1вб/1м
23. Магнит майдони кучланганлиги	метрда ампер	тл	T	1вб/1м
24. Магнит юритувчи куч	ампер	а/м	A/m	1а/1м
25. Ёриғлик оқими	люмен	а	A	1а
26. Равшанлик	метр квадратта шам	лм	lm	1шам.1сте
	ёки нит	шм/м <sup>2</sup>	cd/m <sup>2</sup>	1шам/1м <sup>2</sup>

27. Ёритилганлик	ЛЮКС	ЁКИ НТ ЛК	lx	1ЛМ/1М <sup>2</sup>
------------------	------	--------------	----	---------------------

O'lchov birliklarning karrali va o'nlik ulushlarni xosil qilish uchun asosiy birlikni karrali 10 ga ko'paytirish yoki bo'lish kerak. Karrali va o'nli ulushlardagi qiymat birliklarni asosiy birliklarga maxsus old qo'shimchalar qo'shib hosil qilinadi (2-jadval).

Karrali o'nli ulushlardagi o'lchov birliklarini xosil qilish (ГОСТ 7663-55) 2-jadval

Karra va o'nlik Ulishlar	Old qo'shimchalar nomi	Qisqartirilgan belgilari	
		o'zbekcha	lotincha yoki grekcha
- 10	Eksa	.	.
- 10	peta	.	.
1 000 000 000 000 - 10	tera	T	T
1 000 000 000 - 10	giga	G	G
1 000 000 - 10	mega	M	M
1 000 - 10	kilo	k	k
100 - 10	gekto	g	h
10 - 10	deka	da	da
0,1 - 10	detsi	d	d
0,01 - 10	santi	s	c
0,001 - 10	milli	m	m
0,000 001 - 10	mikro	mk	.
0,000 000 001 - 10	nano	n	n
0,000 000 000 001 - 10	piko	p	p
- 10	femto	.	.
- 10	atto	.	.

O'lchov birliklarining Xalqaro sistemasi hozirgi vaqtida qo'llanib kelinayotgan hamma birliklar sistemasining o'rmini egallashi lozim. Biroq yangi birliklar sistemasiga o'tish asta-sekin amalga oshiriladi, chunki bu standartlarni qayta ko'rib chiqish, o'lchov asbobla-rini qayta darajalash talab qilinadi. Yangi sistemaga kirmagan mexanik birliklar bilan Xalqaro sistema (SI) birliklari orasidagi bog'lanish 3-jadvalda keltirilgan.

Sistemaga kirmagan mexanik birliklar 3-jadval

Kattaliklar	O'lchov birligi	Qisqartirilgan belgilar		Xalqaro birliklar sistemasidagi o'lchami
		o'zbekcha	lotincha	
Uzunlik	Mikron	Mk	.	1.10 <sup>-6</sup> m
	angstrom	A	A	1.10 <sup>-10</sup> m
Massa	tonna	t	t	1.10 <sup>-3</sup> kg
	tsentner	ts	-	1.10 <sup>-2</sup> kg
	karat	-	ct	2.10 <sup>-4</sup> kg
Vaqt	soat	ch	h	3600 sek
	minut	min	min	60 sek
Tekis burchak	gradus	.	.	p/180.rad
	minut	.	.	2,91.10 <sup>-4</sup> rad
	sekund	.	.	4,85.10 <sup>-6</sup> rad
Yuza	ar	a	a	100 м <sup>2</sup>
	hektar	ga	ha	1,10 <sup>4</sup> м <sup>2</sup>
Hajm	litr	l	l	1,000028.10 <sup>-3</sup>

Burilish burchagi	aylanish	ayl	-	$m^3$ 2p rad
Burchak tezlik	minutda aylanish sekunda aylanish	ayl/min ayl/sek	-	p/30.rad/sek 2p.rad/sek
Kuch	tonna-kuch	ts	-	$9,80665 \cdot 10^3$ n
Quvvat	ot kuchi	o.k.	-	$735,499$ vm
Ish	vatt-soat	vm.s.	W.h	$3,6 \cdot 10^3$ j
Bosim	bar	bar	dar	$10^5$ n/m <sup>2</sup>
	simob ustuni millime-tri	mm.simob	mmHg at	$133,322$ n/m <sup>2</sup>
	texnik atmosfera	usm.at yoki kgs/sm	yoki gf/cm	$9,80665 \cdot 10^4$ n/m <sup>2</sup>
	suv ustuni millimetri	mm suv.usm	mmH <sub>2</sub> O	$9,80665$ nm <sup>2</sup>

O'lhash turi va uslublari. Aniq imkoniyatlari chegarada o'lhash, texnik o'lhash va kontrol o'lhash.

### 3.O'lhash va o'lhash asboblari klassifikatsiyasi.

O'lhash ishlarida qo'llaniladigan texnik vositalar *o'lhash apparaturasi* deyiladi. Uning tarkibiga o'lchovlar, o'lhash asboblari va moslamalar kiradi. *O'lchov* deb, o'lchov birliklarini moddiy jihatdan, hamda uning karrali va kasr qiymatlarini qayd qiladigan qurilma yoki jismga aytildi.

O'lchovlar doimiy va o'zgaruvchan qiymatli bo'ladi. Doimiy o'lchov-lar bir aniq qiymatga ega. Bular tarozi toshlar, o'lhash kolbalar, kalibrler, namuna shablonlar, kamertonlar va boshqalar kiradi. O'zgaruvchan qiymatli o'lchovlarda to'liq o'lchamlardan tashqari kasr qiymatlar ham bo'ladi, o'lchov lineykasi (chizg'ich) shunga taalluqlidir.

Turlicha kattalikdagi aloxida o'lchovlardan o'lchovlar to'plami tuzish mumkin. To'plamdagi ayrim o'lchovlarni qo'shib turli qiymatlar o'lchovini hosil qilish mumkin, ularga richagli tarozilar uchun posangi, suyuqlik hajmini o'lhash uchun turli kolbalar kiradi. O'lchovlar juda ham sodda (chizg'ich, girlar, kolbalar) va shuningdek murakkab (Vestonning normal elementi, kamerton generator) qurilmalar bo'lishi mumkin.

O'lchovlar sifatida ma'lum sharoitda xarakterli fizik hossalarga, masalan, erish, qaynash temperaturasi doimiy yoki ma'lum issiqlik hosil qilish qobiliyatiga ega bo'lgan moddalardan foydalanish mumkin.

**O'lhash asbobi deb**, qandaydir kattalikni o'lchov birligi bilan solishtirishga mo'ljallangan qurilmaga aytildi.

Ishlash printsipi va konstruktsiyasi jihatidan o'lhash asboblari turlichadir. Ular turli belgilari (o'lhash natijalarini olish usuli, ko'rsatkichlarni xisoblash usuli, qo'llanish xarakteri, anqlik darajasi, ishslash printsipi, montaj qilinishi) va boshqa xususiyatlariga qarab klassifikatsiyalanadi.

O'lhash natijalarini olish usuliga qarab bevosita ko'rsatuvchi, solishtirish va yig'uvchi asboblarga bo'linadi.

**Bevosita ko'rsatuvchi asboblar** o'lchanagan kattalikni ko'rinarli, qulay parame-trlarga aylantirishga asoslangan. (Bunday parametrlerga mexanik siljishlar kiradi). O'lchanadigan kattalik qiymati, uning analogi (namuna o'lchovi) yoki asbob-lardagi taxminiy gradirovkaga qarab belgilanadi. O'lchov jarayoni namuna o'lchovisiz o'tadi. Bunday asboblar konstruktsiyasi juda oddiy, kontrol qilish uchun qulay, biroq anqlik darajasi ancha past. Bunday asboblarga shisha termometrlar, prujinali manometrlar va turli strelkali asboblar kiradi.

**Solishtirish asboblari** deb, o'lchanayotgan kattalik qiymati namuna o'lchov bilan solishtirish orqali aniqlanadigan qurilmalarga aytildi. Solishtirish metodida ko'pincha o'lchanayotgan kattalik bilan o'lchov orasidagi farqni nolga keltirish rejimidan foydalaniladi. Bular, richagli teng elkali tarozilar, laboratoriya potentsiometrlari va boshqa asboblar kiradi.

**O'lhash natijalarini jamlovchi asboblar** deb, hisoblash mexaniz-midan o'lchanayotgan kattalikning jami (integral) qiymatini aniqlashga aytildi. Ularga elektr energiyasini, suv va gazni o'lchaydigan schyotchiklar kiradi. Ko'rsatish natijasini olish usuliga qarab jamlash asboblari o'lhash natijalarini bevosita ko'rsatadigan va o'lhashi boshqariladigan asboblarga ajratiladi: o'lhash natijalarini bevosita ko'rsatadigan asboblarda sanoq avtomat tarzda (hech qanday kuzatuvchi ishtirokisiz) beriladi. Bularga, ampirmetrlar, tsiferblat tarozilar, potensiometrlar va h.k. kiradi.

O'lhash asboblari ishlatilishiga qarab turlichadir, ko'rsatuvchi, o'zi yozar, signal beruvchi va rostlovchi asboblarga bo'linadi.

**Ko'rsatuvchi asboblar** deb, kuzatuvchiga vaqtning berilgan momentida o'lchanayotgan kattalik miqdorini ko'rsatuvchi asboblarga aytildi.

**O'zi yozar (qayd qiluvchi) asboblar** deb, ko'rsatishlarni avtomatik tarzda yozib olish qurilmalari bilan ta'minlangan asboblarga aytilda-di. Yozib olish natijalari ma'lum vaqt oralig'idagi o'lchov natijalarini qayta analiz imkonini beradi. O'zi yozar asboblar turli ishlab chiqarish hisoblashlari haqida kerakli ma'lumotlar beradi, texnologik jarayonlarni boshqarib turuvchi shaxs ishini kontrol qiladi, avtomatik regulyatorlarni sozlashga yordam beradi.

**Signal beruvchi asboblar** deb, o'lchov kattaligi berilgan kerakli qiymatga erishgach, ovozli yoki yorug'lik signalizatsiyasini o'lchovchi maxsus moslamasi bo'lgan asboblarga aytildi. Signal beruvchi asboblar berilgan texnologik parametrlarda buzilishlar ro'y berganda xizmat ko'rsatuvchi shaxs diqqatini jalb qilish uchun ishlatiladi.

**Rostlovchi asboblar** deb, o'lchanayotgan kattalik qiymatlariga ko'ra jarayon parametrlarini rostlash vositalarini avtomatik boshqarish qurilmalari bilan ta'minlangan asboblarga aytildi. O'lchanayotgan kattalik berilgan chegaralardan chetlashga, rostlovchi asbob rostlash vositalari orqali, u yoki bu texnologik uskunaga o'lchanayotgan kattalik ko'rsatilgan normaga kelgunga qadar, avtomatik ta'sir qilib turadi.

Asboblar yana mahalliy, distantsion va telemetrik turlarga bo'linadi:

**Mahalliy asboblar** deb, o'z konstruktsiyasiga ko'ra faqat o'lhash joyidagina qo'llanishi mumkin bo'lgan asboblarga aytildi. Bunday asboblarga, shisha hamda mexanik termometrlar, areometrlar kiradi.

**Distantsion asboblar** deb, o'lchov natijalarini ko'rsatuvchi qismi o'lhash joyidan birmuncha masofaga uzoqlashtirilgan, o'lchanayotgan kattaliklar esa ularga aloqa liniyalari orqali keltiriladigan asboblarga aytildi. Elektr kattaliklar uchun aloqa liniyasi bo'lib elektr simlari, bosim uzatish uchun havo, gaz yoki suyuqlik bilan to'ldirilgan trubkalar xizmat qiladi. Distantsion asboblarga manometrik termometrlar, monometrlar va elektr o'lhash asboblari kiradi.

**Telemetrik asboblar** deb, o'lchanayotgan kattaliklarni masofaga uzatish yordamchi kattaliklar yordamida amalga oshiriladigan asboblarga aytildi. Yordamchi kattalik sifatida uzoqqa uzatish uchun qulay bo'lgan elektr kattalik yoki vaqt bo'yicha joylashtirilgan elektr impulslardan foydalanish mumkin.

Metrologik amaliyotda o'lchov va o'lhash asboblari, ularni birlik qiymatlarining etalonlarda ish o'lchov va asboblariga uzatilishi zan-jiridagi joylashish holati belgilariiga qarab klassifikatsiyalanadi.

Metrologik klassifikatsiya bo'yicha hamma o'lchov o'lchov va o'lhash asboblari namunaviy va ish o'lchov hamda o'lhash asboblariga bo'linadi.

**Namunaviy o'lhash va o'lhash asboblariga**, o'lhash birliklarini qaytadan ko'rsatish va saqlash, shuningdek, boshqa hamma o'lchov va o'lhash asboblarini tekshirish va darajalashga mo'ljallangan o'lchov va o'lhash asboblari kiradi.

Amalda qo'llaniladigan (namunavylardan tashqari) hamma o'lchov va o'lhash asboblari ish o'lchov hamda o'lhash asboblari hisoblanadi.

Namunaviy o'lchovlar va o'lhash asboblari o'z navbatida namunaviy o'lchov va aniqligi cheklangan asboblar etalonlariga bo'linadi.

**Etalonlar** deb, o'lchov birliklarini metrologik (muayyan texnika darajasiga erishib bo'ladigan eng katta) aniqlik bilan ko'rsatishga xizmat qiladigan namunaviy o'lchov va o'lhash asboblariga aytildi.

Aniqlik darajasi cheklangan namunaviy o'lchovlar va namunaviy o'lhash asboblari deb, ko'rsatilgan aniqlik darajasi metrologikka qaraganda kam bo'lgan va shunday aniqlikni talab qiladigan hamma turdag'i o'lchov va o'lhash asboblarini tekshirish va darajalash bo'icha amaliy ishlar uchun xizmat qiladigan o'lchovlar va 1, 2 va 3-razryadli asboblarga aytildi.

Ish o'lchov hamda o'lhash asboblari laboratoriya hamda texnik o'lchov va o'lhash asboblariga bo'linadi.

Laboratoriya qo'llaniladigan o'lchovlar hamda o'lhash asboblari ishlatilish vaqtida o'lhash aniqligi (muhit berilgan tekshirish guvohnomasiga asosan tuzatishlar) hisobiga olinadigan o'lchov asboblaridir.

Texnik o'lchov hamda o'lhash asboblaridan foydalanish vaqtida qabul qilinadigan ish o'lchov va asboblaridir. Texnik asboblar yordamida olingan o'lhash natijalari hech qanday tekshirishdan o'tkazilmaydi.

Yangi sanoat korxonalarida o'lchov asboblarining metrologik xususiyati. O'lhash asboblarining statik va dinamik xususiyati.

#### **4.O'lchov va asboblar xatolari.**

Har qanday o'lchov, u qanday sinchiklab bajarilmasin, bari bir xatosiz bo'lmaydi, bunday xatolarga o'lhash usullari va vositalarining taraqqiy etganligi, tashqi muhit ta'sirini etarli darajada hisobga olmaslik, operatorning noto'g'ri ishlashi va boshqa turli faktorlar sabab bo'ladi.

**Absolyu xato** deb, o'lchanayotgan kattalikning topilgan qiymati bilan uning haqiqiy qiymati orasidagi farqqa aytildi.

Acboblar ishlatilayotgan tashqi sharoitlarni o'zgarishidan kelib chiqqan qo'shimcha xatolar vujudga kelishi mumkin. Asbob uchun normal sharoitlarning buzilishiga: asbob o'rnatilgan joyning tebranishi; begona magnit maydonlarining bo'lishi; qurshab turgan muhit temperaturasining o'zgarishi; barometrik bosimning o'zgarishi; asboblarning vertikal va gorizontalga nisbatan noto'g'ri joylashtirilishi va boshqalar sabab bo'ladi.

O'lhash xatosini yoki xatoning chegaraviy qiymatlarini albatta bilish kerak, ularsiz ish ma'nosini va praktik ahamiyatini yo'qotadi. Ish o'lchov hamda asboblarning xatolari namunaviy o'lchovlar hamda asboblarda aniqlanadi, shuning bilan birga namunaviy o'lchov qiymati yoki namunaviy asbob ko'rsatishi o'lchanayotgan kattaliklarning haqiqiy qiymatlari deb qabul qilingan. O'lchov qiymatlarining absolyut xatosi deb, unda ifodalangan nominal qiymat bilan haqiqiy qiymat orasidagi farqqa aytildi. Asbob ko'rsatishining absolyut xatosi deb, shu asbob ko'rsatishi bilan kattalikning namunaviy o'lchovlar yoki asboblardan topilgan haqiqiy qiymati o'rtaсидagi farqqa aytildi.

O'lchov qiymatlari yoki asbob ko'rsatishlarining teskari ishora bilan olingan xatolari tuzatishlar deb ataladi. O'lchanayotgan kattalikning haqiqiy qiymatini olish uchun o'lchovning potentsial qiymatiga yoki asbob ko'rsatishiga tuzatishni qo'shish kerak.

Konstruktiv xususiyatlariga ko'ra ish o'lchovi hamda asboblari o'lhashlarni katta yoki kichik aniqlikda ko'rsatadi. Ularni absolyut xatolari bo'yicha klassifikatsiyalash juda noqulay, chunki bu xatolar bir xil konstruktsiya seriyasidagi har bir ayrim ekzemplarida turlicha qiymatga baholash uchun yo'l quyladigan xato tushunchasi kiritilgan.

O'lchov qiymatlari yoki asbob ko'rsatishlarining yo'l qo'yiladigan xatosi deb, standartlar yoki texnik shartlar tomonidan muayyan ish sharoitlari uchun belgilangan eng katta xatoga aytildi.

Yo'l qo'yiladigan xato absolyut va nisbiy birliklarda ifodalaniishi mumkin. Masalan, simobli shisha termometrlar va gir toshlar uchun yo'l qo'yiladigan xato bevosita o'lchanayotgan kattalik birliklarida – graduslarda va millimetrdagi ifodalaniadi, ko'pchilik asboblar uchun nisbiy birlikdan foydalaniadi.

Nisbiy xato deb, absolyut xatoni o'lchanayotgan kattalik qiymati nisbatiga aytildi.

Asboblarning aniqlik darajasini baholash uchun asbob shkalasi bo'yicha o'lhashlar to'liq chegarasidan protsent hisobida hisoblab topilgan nisbiy xato juda qulaydir. Bunday xato keltirilgan nisbiy xato deyiladi. Masalan, o'lhash chegaralari 0-05a bo'lgan ampermetr uchun 1a xatoga yo'l qo'yilsa, uning keltirilgan nisbiy xatosi quyidagiga teng bo'ladi:

$$\partial = \frac{\Delta A}{A} \cdot 100\% = \frac{1}{50} \cdot 100 = 2\%$$

bunda,  $A$  – keltirilgan nisbiy xato;

$\Delta A$  – ampermetrning absolyut xatosi;

$A$  - shkala bo'yicha to'liq o'lhash chegarasi.

Ish o'lchov asboblari yo'l qo'yilgan xatolariga qarab aniqlik klasslariga ajratiladi. Eng ko'p tarqalgan texnik asboblar quyidagi aniqlik klasslariga ega: 0,2; 0,5; 1,5; 2,5. Bu sonlardan har biri keltirilgan nisbiy xatolar orqali ifodalangan u yoki bu aniqlik klassiga talluqli asbobning yo'l qo'yiladigan xatosini ko'rsatadi. Asbobning aniqlik klassi berilgan asbob uchun xatoni aniq ifodalamaydi. Odatda haqiqiy xatolar aniqlik klassi bo'yicha yo'l qo'yiladigandan ancha kam bo'ladi.

### 5. Asboblarning asosiy xarakteristikalarini.

O'lhash asboblarining asosiy parametrlari bo'lgan aniqlik klassidan tashqari ba'zni umumiy xarakteristikalarini va sifat ko'rsatkichlari bo'lib, asboblardan ratsional foydalanish uchun ularni bilish lozim. Bunday xarakteristikalarga: ko'rsatishlar variatsiyasi, sezgirlik, o'zi iste'mol qiluvchi energiyasi, tez ko'rsatish va boshqa xarakteristikalar kiradi.

Ko'rsatishlar variatsiyasi deb bir kattalikni ko'p marta takroriy o'lhashlar natijasida asbob ko'rsatishlari orasidagi eng katta farqqa aytildi. Variatsiyani, o'lchanayotgan kattalikni ma'shum bir qiymatga asta-sekin oshirib va kamaytirib aniqlanadi. Bunda asbob ko'rsatkichi to'g'ri ko'rsatishlarga mos keluvchi shkalani u yoki bu tomondagи belgilariga aniq etmaydi.

Ko'rsatishlar variatsiyasi asosan asbobning qo'zg'aluvchan qismlaridagi, tayanchlardagi ishqalanish, o'lhash prujinalaridagi qoldiq deformatsiya va boshqa qaytmas jarayonlar natijasida hosil bo'ladi.

Qaytadan tayyorlangan yoki yaxshilab remont qilingan asboblarda ko'rsatishlar variatsiyasi amalda sezilmasligi kerak. Asboblarni ishlatish protsesida ko'rsatishlar variatsiyasi ishqalanish kuchining ko'payishi va ishqalanuvchi detallarning eyilishi natijasida zichlikning kamayishi sababli ortib ketadi. Ko'satishlar variatsiyasining maksimal qiymati yo'l qo'yiladigan xatoning ikkilangan qiymatidan ortib ketmasligi kerak.

Asboblarning u yoki bu maqsadlar uchun yaroqli ekanligini belgi-lovchi asosiy xarakteristikalaridan biri – sezgirlikdir. Asboblarning sezgirligi deb, asbob ko'rsatkichi siljishining shu siljishni hosil qilgan kattalik qiymatining o'zgarishiga bo'lgan nisbatga aytildi:

$$S = \frac{\Delta n}{\Delta A}$$

bunda,  $S$  – asbobning sezgirligi;

$\Delta n$  – ko'rsatkichning burchakli yoki chiziqli siljishi;

$\Delta A$  - siljishni hosil qilgan kattalikning o'zgarishi.

«Sezgirlik» tushunchasini asbobning o'lchanayotgan katalik o'zgarishini sezish tezligi deb tushunmaslik kerak. Bu tezlik qo'zg'aluvchan qismning inertsionligi va asbob sxemasi xususiyatlariga bog'liq.

Amalda asboblar sezgirligi odatda shkala bo'linmalarini qiymatlari bo'yicha aniqlanadi. SHkala bo'linmalarining qiymati deb, asbob ko'rsatkichini bir bo'linmaga siljitgan, o'lchanayotgan kattalik qiymatiga aytildi:

$$c = \frac{\Delta A}{\Delta n}$$

bunda,  $c$  - shkala bo'linmasining qiymati;

$\Delta A$  - o'lchanayotgan kattalikning o'zgarishi;

$\Delta n$  - ko'rsatkichning shkala bo'linmalarida ifodalangan siljishi.

Baъzan asboblar shkalalarida shkala boshidan boshlab faqat bo'linmalar sonini ko'rsatuvchi raqamli belgilar bo'ladi. Bunday shkala bo'yicha hisoblash hali o'lhash natijalarini bermaydi. Eng so'nggi tegishli o'lchov natijasini olish uchun topilgan qiymatni bo'linma qiyamatiga yoki asbob shkalasi koeffitsientiga ko'paytirish kerak.

Sezgirlik va bo'linma qiyatlari o'zaro teskari kattaliklardir, yaъni sezgirlik qancha katta bo'lsa, bo'linmalar qiymati shuncha kichik bo'ladi. Masalan, bir xil tipdagi ikkita termometr shkalalari 100 tadan bo'linmaga ega, biroq o'lhash chegaralari 0–50<sup>0</sup>S va 0–100<sup>0</sup>S. Birinchi termometr bo'linmasi qiymati 0,5<sup>0</sup>S, ikkinchisini 1<sup>0</sup>S. Binobarin birinchi termometr ikkinchisiga qaraganda ikki marta sezgir.

Turli konstruktsiyadagi asboblarni baholashda ularning o'lchanayotgan obъektdan energiya isteъmol qilishi muhim kursatkich hisoblanadi. Bu energiya asboblar qo'zg'aluvchanlik qismlaridagi ishqalanishni engishga, sezish elementlarining isishiga, asbob detallarining siljishiga va boshqalarga sarflanadi.

O'zi isteъmol qiluvchi energiya qator hollarda noto'g'ri o'lhash natijalariga olib keladi. Masalan, simobli termometr bilan temperaturani hisoblashda issiqlik energiyasining maъlum bir qismi albatta simobli va butun termometrni isitishga ketadi. Agar o'lchanayotgan obъekt etarli darajada energiya zapasiga ega bo'lmasa, bu hol obъekt temperaturasining pasayishiga va o'lhash natijalarining noto'g'ri ko'rsatilishiga sabab bo'ladi.

Ishlab chiqarishdagagi o'lhashlarda ko'pincha qiyatlari to'xtovsiz o'zgarib turadigan kattaliklar bilan ishlashga to'g'ri keladi. Asbobning tez ko'rsatishi uni o'lhashning u yoki bu maqsadlari uchun yaroqli ekanligini aniqlovchi, muhim xarakteristikalar qatoriga kiradi. Qo'zg'aluvchan mexanik qismlari bo'lмагan elektr asboblarning tez ko'rsatishi juda ham yuqori. Masalan, raqamli elektron asboblarda bir sekund ichida o'nlab va yuzlab o'lhashlarni o'tkazish mumkin.

Asboblarning qo'llanish imkoniyatini belgilovchi asosiy texnik xarakteristikalar bilan bir qatorda sifat, ishonchlilik, mustahkamlik va remontboplik kabi ko'rsatkichlari ham mavjud.

Asbobning ishonchliligi deganda dastlabki texnik xarakteristikalar saqlanadigan muayyan sharoitlarda berilgan vaqt mobaynida buzilmay ishlash qobiliyatiga aytildi. Ayniqsa xizmat ko'rsatuvchi shaxs xavfsizligi yoki ishlab chiqarish uskunalarining avariyasiz ishlashini taъminlaydigan asboblarning ishonchliligi juda zarurdir.

Asbobning mustahkamligi deb fizik jihatdan yoki maъnaviy yaroqsiz bo'lib qolgungacha bo'lgan umumiylar xizmat muddatiga aytildi. Mustahkamlikni oshirishga sifatli materiallardan foydalanish bilan erishiladi va u asbobning tayyorlanish tannarxini oshishi bilan bog'liq bo'ladi.

Remontboplik asbob konstruktsiyasi va sxemasining ishlardagi to'xtashlar sabablarini qidirib topish va ularni bartaraf qilish imkonini beruvchi xususiyatlarni xarakterlaydi. Bu sifat ko'rsatkichi to'xtashni aniqlash va bartaraf qilish uchun mehnat va mablag' sarflari bilan baholanadi.

Ishonchlilik, mustahkamlik va remontboplik asboblarni o'zaro bir-birini to'ldiruvchi sifat xarakteristikalarini tashkil etadi. U yoki bu ko'rsatkichga qo'yiladigan talablar asboblar qo'llaniladigan konkret sharoitlarga qarab aniqlanadi.

## 6. Asboblarni tekshirish.

Mamlakatimizda o'lchovlvr va o'lhash asboblarni tayyorlaydigan, remont qiladigan va ishlatadigan korxonalar, muassasalar va tashki-lotlarning hammasi uchun majburiy bo'lgan asboblarni tekshirishning maъlum tartibi joriy qilingan.

O'lhash vositalarining to'g'ri ishlatilishi va sistematik ravishda tekshirib turilishini nazorat qilish Standartlar, o'lchovlar va o'lhash asboblari bo'yicha davlat komiteti organlariga, shuningdek tashkilot nazorati organlariga (kontrol-tekshirish punktlari, kontrol o'lhash asboblari tsexlari – KIP va boshqa laboratoriyalarga) yuklatilgan.

Hamma asosiy namunaviy o'lchovlar va o'lchov asboblarni davlat tekshiruvidan o'tkazilishi zarur. Ish o'lchovi va asboblarni tashkilotchilik usulida tekshirish va nazorat qilish tashkiliy nazorat organlari tomonidan amalga oshiriladi.

O'lhash asboblarini tayyorlaydigan, remont qiladigan va tekshira-digan tashkilotlar albatta ro'yxatga olinadi. Ro'yxatga olish asboblarni remont qilish, tekshirish va qo'llashni texnik nazorat qilish uchun etarli sharoitlar bor-yo'qligini tekshirish maqsadida amalga oshiriladi. Asboblarni remont qilish va tekshirish xudi texnik hujjatlarga mos keladigan hamma zaruriy namunaviy o'lchovlar va asboblarga, asboblarni tekshirish uchun sinash dastgoxlari, shuningdek mutaxasis kadrlarga ega bo'lgan laboratoriya, tsex va tekshirish punktlariga beriladi.

Ro'yxatdan o'tganlik haqida guvohnomaga ega bo'lmanas asboblarni tekshirish uchun korxonalar Standartlar komiteti yoki Standartlar komiteti tashkilotlarida ro'yxatdan o'tgan baza laboratoriyalarga berilishi lozim.

Nazorat qilish funktsiyalariga o'lchov va o'lhash asboblarini hisobga olish attestatsiyalash, pasportlashtirish, ularning to'g'ri ishlatilishini kuzatish, buziq va qonunsiz asboblarni ishlatishdan chiqarish, o'lhash va asboblarni davlat tomonidan majburiy va davriy tekshirish muddatlariga rioya qilish kiradi.

Tashkilot nazorati organlarida ishlab-chiqarish jarayonlarini kontrol qilish uchun ishlatiladigan kontrol-o'lchov asboblarining hammasi tekshiriladi. Zavod laboratoriyalari va KIP tsexlari ish asbolarini remont qilish grafigini ishlab chiqadi, shuningdek namunaviy asboblar va uskunalar miqdoriga qarab, tipik tekshirish sxemalarini tuzadi. Tekshirish sxemalarini tuzishda standartlar, o'lchovlar va o'lhash asboblari Komiteti tomonidan nashr qilinadigan mahsus tavsiyalardan foydalaniлади.

Ish o'lchovi va asboblarini darajalash va tekshirishda ishlatiladigan hamma asosiy namunaviy asboblar, standartlar, o'lchovlar davlat komiteti tashkilotlarida kamida 2 yilda bir marta tekshiriladi. Bundan tashqari, energiya va moda miqdorlarini o'lhashda qo'llaniladigan (elektr va gaz schyotchiklari, tarozi va toshlar va x.k.) ish asbobla-rining bir qismi ham albatta davlat tekshirividan o'tishi kerak.

Xatolik oshib ketmasligi uchun va buzuq asboblarni aniqlash maqsadida asboblar o'rnatilish joyida tekshiriladi. Asboblarni tekshirish muddatlari, asbob ishlaydigan sharoitga va asbob konstruktsiyasining mustaxkamligiga qarab belgilanadi. Javobgarligi juda kata asboblar o'rnatilish joyida har smenada, boshqa asboblar har haftada bir marta, uch oyda bir marta tekshiriladi. Hamma ish asboblari laboratoriyada kamida ikki yilda bir marta tekshirilishi kerak.

Ko'pchilik hollarda asboblarning o'rnatilish joyida tekshirish-ning mazmuni asbob ko'rsatishlarining shkaladagi xatosini, strelkaning nol nuqtaga qaytishi to'g'riligini aniqlashdan iborat bo'ladi. Nol nuqtani tekshirish uchun asbob o'lchanayotgan kattalikdan ajratiladi, bunda strelka nol nuqtaga qaytib kelsa, bu o'lhash mexanizmining to'g'ri ishlashidan dalolat beradi. Ish nuqtasini tekshirishda o'lchanadigan kattalikka parallel qilib, namunaviy o'lhash asboblari qo'shiladi. Ko'rsatishlarni solishtirish yo'li bilan tekshirilayotgan asbobning to'g'ri ishlashi baholanadi.

- Boshqarish shamlaridagi ikkilamchi kommutatsiya zanjirlariga o'rnatilgan elektr o'lhash asboblarini tekshirish ishlari kuchlanish ostida bajariladi, shuning uchun asosiy e'xtiborni xavfsizlik texnikasi qoidalariga qaratish kerak. Kerakli qurollar, simlar, qisqichlar va laboratoriya asboblari oldindan tayyorlab qo'yilishi zarur.

- Temperaturali asboblarni tekshirish namunaviy simobli termometrlar yoki ko'chma potensiometrli platina-radiy-platina termoparalar yordamida bajariladi. Kontrol qiluvchi asbob bevosita tekshirilayotgan element yaqiniga temperaturasi o'lchanadigan nuqtaga o'rnatiladi.

- Tyagomerni va bosim o'lchagichlarni tekshirishda ular impuls liniyasidan ajratib olinadi va ularga U simon difmanometr ulanadi. Bosim va siyraklanish ko'chma havo nasosi bilan hosil qilinadi (shakl 4.1).

- Statsionar markazdan qochirma taxometrlar o'rnatilish joyida aylanayotgan vallar ochiq toretsiga qo'lda siqiladigan kontrol taxometr bilan tekshiriladi.

Asboblarni joyida tekshirish usullari juda hilma-hildir. Har bir konkret hol uchun asbobni ishlatish sharoitiga, ishlatuvchi shaxsni malakasiga, maxsus moslamalar va ko'chma asboblarning mavjudligiga qarab eng ratsional tekshirish usulini tanlash zarur. Buzuq deb topilgan yoki xatosi yo'l qo'yiladiganidan katta bo'lgan asboblar foydalanishdan chiqarib

tashlanishi kerak. Bunday asboblarni remont qilish va tekshirish ixtisoslashtirilgan laboratoriya sharoitida o'tkazilishi lozim.

Darajalash deb, asboblarni shkalalari bo'linmalariga o'lchov birliklarida ifodalangan qiymatlarni o'rnatilishiga aytildi. SHkala bilan ta'minlangan yangidan tayyorlangan asbob va o'lchovlarning hammasi darajalanadi. Odatda asboblarni remont qilib bo'lgandan keyin ham darajalash zaruriyati tug'iladi, chunki remont vaqtida asbob detallarining qisman o'zgarishi natijasida uning xarakteristikasi o'zgarishi mumkin. Bu holda yangi shkala belgilanadi.

Asboblarni darajalashda, bиринчи navbatda shkalaning eng chetki belgilari joylashishi o'рганилади.

Asboblarni shkalalarida quyidagilar ko'rsatiladi: tayyorlovchi zavod markasi, nomerli belgi, asbob nomi yoki o'lchanayotgan kattalikning qisqartirilgan nomi, aniqlik klassi, sinash kuchlanishi, asbob sistemasining shartli belgisi va tok turi. Asboblarning har bir ko'rinishi uchun shartli belgililar Davlat standarti tomonidan belgilangan bo'ladi.

Foydalanishda bo'lган, yangi tayyorlangan yoki remontdan chiqqan strelkali elektr o'lhash asboblarni tekshirishda tekshirilayotgan asbob ko'rsatilarini namunaviy asbob ko'rsatishlari bilan solishtirishdan tashqari, ularni xatolarini aniqlash maqsadida quyidagilar aniqlanadi:

- a) asbobni ko'zdan kechirish;
- b) elektr izolyatsiyasini tekshirish;
- v) qo'zg'aluvchan qism tebranishini tinchitish uchun ketadigan vaqtini aniqlash;
- g) qo'zg'aluvchan qismning muvozanatini tekshirish.

Asboblarni ko'zdan kechirishda korpusning zichligi, shkalada diffektlar yo'qligiga va x.k tekshiriladi hamda ishga yaroqliligi oshonch hosil qilish kerak.

Asboblarning elektr izolyatsiyasini sinash, odatda, o'zgaruvchan tokda o'tkaziladi. Kuchlanish oxista oshiriladi va bir minut davomida maksimal qiymatda saqlab turiladi. Avval 2000 v kuchlanishda sinab ko'rildi, va har bir ko'rinish uchun sinash kuchlanishi instruktsiyada ko'rsatilganidan oshmasligi kerak.

Strelkali asbob qo'zg'aluvchan qismining tinchitish vaqtini quyidagicha aniqlanadi. Asbob tokdan uzeladi va yana ulanadi. Bunda strelka xarakati kerakli belgi atrofida bir necha marta tebranib to'xtasa, u holda strelka harakati *aperiodik* bo'ladi. Tinchlanish vaqtini, asbob ulanish paytida strelkaning oxirgi shkala uzunligining 1 foizga qadar og'ishigacha bo'lган vaqt oralig'i aytildi.

Asbobning tinchlanish vaqtidan keyin, uning qo'zg'aluvchan qism muvozanati tekshiriladi. Buning uchun asbobni navbat bilan to'rttalva taxminan 5 ga teng burchakka og'diriladi va asbob ko'rsatishini oldin tanlab olingan belgiga nisbatan xatosi aniqlanadi. O'lchanayotgan kattalikning o'rnatilgan qiymati namunaviy asbob bo'yicha kontrol qilinadi. Nomuvozanatlik xatosi deb atalgan qo'shimcha xato quyidagiga teng:

$$\gamma = \frac{\Delta 1 - \Delta 0}{A_m} \cdot 100 \%$$

bunda,  $\gamma$  - qo'shimcha xato, %;

$\Delta 1$  - asbob og'ganidagi xato;

$\Delta 0$  - asbobning normal vaziyadagi xatosi;

$A_m$  - asbobning yuqorigi o'lhash chegarasi.

Nomuvozanatlik tufayli vujudga keladigan xato yo'l qo'yiladigan asosiy xato qiymatidan ortib ketmasligi kerak.

Agar asboblarni tekshirishni ko'rib chiqilgan taxminiy bosqichlarida yaroqli deb topilsa, u holda o'rsatishlarning asosiy xatosini aniqlashga kirishiladi. Buning uchun, asbob strelkasi shkalaning tekshirish belgilariiga aniq moslab o'rnatiladi. Har bir o'lhashning asosiy xatosi, absolyut xatoni o'lhashning yuqori chegarasiga nisbatiga teng.

$$\delta = \frac{A - Ax}{Am} \cdot 100 \%$$

bunda, δ - asosiy keltirilgan xato, %;

A - tekshirilayotgan asbob ko'rsatishi (o'lchanayotgan kattalik birliklarida);

Ax - namunaviy asbob ko'rsavtishlari bo'yicha aniqlanadigan, o'lchanayotgan kattalikni haqiqiy qiymati;

Am – tekshirilayotgan asbobning yuqorigi o'lhash chegarasi.

Agar asosiy xato, berilgan asbob aniqlik klassiga to'g'ri keladigan xatodan oshib ketmasa, asbob yaroqli hisoblanadi.

Kontrol-o'lhash asboblarini, o'lhash sxemalarini tekshirish metodikasi, tavsiya qilinadigan namunaviy asboblar ro'yhati Standartlar, o'lchovlar va o'lhash asboblari komiteti tashkilotlari tomonidan nashr qilinadigan instruktsiyalarda keltirilgan. Korxona laboratoriyalari va KIP tsexlarida asboblarni remonti va tekshirishlar shu instruktsiyalar bo'yicha olib boriladi.

### **7. Kontrol-o'lhash asboblarining texnik xujjatlari.**

Qo'llanishga yaroqli deb topilgan o'lhash asboblarida tamg'a yoki plomba bo'lishi kerak. Tamg'a asbobning tekshirishdan o'tganligi va Standartlar Davlat komiteti talablariga javob berishi to'g'risida dalolat beradi. Tamg'ada uning qo'yilgan vaqtini ko'rsatiladi, bu muddat orasida asbob foydalanish uchun yaroqli ekanligi to'g'risida dalolatno-ma beradi.

Namunaviy va kontrol o'lchovlar, shuningdek o'lhash asboblari davlat tekshirishidan o'tgandan keyin ularning qonuniy ishlashini tasdiqllovchi attestatlar beriladi. Attestatda berilgan o'lchov yoki asbobning dastlabki namunaviy asboblar tekshirilganligi to'g'risida protokollar keltiriladi. Protokolda har bir o'lhash nuqtasidagi xatoning son qiymati yoki keltirilgan maksimal xato ko'rsatiladi.

Korxona nazorat uchastkasida, har bir asbob o'zining ishlatilish davri davomidagi holatini aks ettiruvchi uchyot, ya'ni doimiy ishlatilish kuchiga ega bo'lgan xujjat-pasportga ega bo'lishi kerak. Pasportga asbobni o'rnatish, sozlash va xizmat qilishga, ular sxemasi va remontlar hamda tekshirishlarga doir hamma ma'zumotlar yozib boriladi.

KIP xizmatida ishlatiladigan kontrol-o'lhash asboblari turadigan tsexlarda maxsus jurnal utiladi. Bu jurnalga apparaturani ko'zdan kechirish vaqtida topilgan defektlar hisobga olib boriladi, bo'sh turib qolish sabablari va vaqtini ko'rsatiladi. SHu yozuvlar asosida asboblarning ishlatish ishonchiligini oshirish choralar ko'rildi.

## **3-MAVZU: O'zbekiston Respublikasining Davlat standartlashtirish tizimi. Standartlashtirish va iqtisod. Standartlarning kategoriyalari va turlari.**

**Reja:**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI**

**28.12.1993 y. N 1002-XII**

**STANDARTLASHTIRISH TO'G'RISIDA**

**I-BO'LIM. UMUMIY QOIDALAR**

**1-modda. Standartlashtirishning asosiy maqsadlari**

Standartlashtirishning asosiy maqsadlari:

mahsulotlar, jarayonlar, ishlar va xizmatlarning (bundan buyon matnda "mahsulot" deb yuritiladi) aholining hayoti, sog'lig'i va mol-mulkiga, atrof-muhit uchun xavfsizligi, resurslarni tejash masalalarida iste'molchilar va davlat manfaatlarini himoya qilishdan;

mahsulotlarning o'zaro almashinuvchanligini va bir-biriga mos kelishini ta'minlashdan;

fan va texnika taraqqiyoti darajasiga, shuningdek aholining hamda xalq xo'jaligining ehtiyojlariga muvofiq holda mahsulot sifatini hamda raqobat qila olish imkonini oshirishdan;

barcha turdag'i resurslar tejalishiga ko'maklashishdan, ishlab chiqarishning texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarini yaxshilashdan;

ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy dasturlar va loyihalarni amalga oshirishdan;

tabiiy va texnogen falokatlar hamda boshqa favqulodda vaziyatlar yuzaga kelish xavf-xatarini hisobga olgan holda xalq xo'jaligi ob'ektlarining xavfsizligini ta'minlashdan;

iste'molchilarini ishlab chiqarilayotgan mahsulot nomenklaturasi hamda sifati to'g'risida to'liq va ishonchli axborot bilan ta'minlashdan;

mudofaa qobiliyatini va safarbarlik tayyorligini ta'minlashdan;

o'lchovlarning yagona birlikda bo'lishini ta'minlashdan iboratdir.

## **2-modda. Davlat standartlashtirish tizimi**

O'zbekiston Respublikasida standartlashtirish ishlarini o'tkazishning umumiy tashkiliy-texnik qoidalarini tartibga solib turuvchi davlat standartlashtirish tizimi faoliyat ko'rsatadi.

Standartlashtirish ishlarini tashkil etish, muvofiqlashtirish va ta'minlashni:

xalq xo'jaligi tarmoqlarida - O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi ("O'zstandart" agentligi);

qurilish, qurilish industriyası sohasida, shu jumladan, loyihalash va konstruktsiyalashda - O'zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi;

tabiiy resurslardan foydalanishni tartibga solish hamda atrof-muhitni ifloslanishdan va boshqa zararli ta'sirlardan muhofaza qilish sohasida - O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi;

tibbiyot uchun mo'ljallangan mahsulotlar, tibbiy texnika buyumlari, dori vositalari sohasida, shuningdek mamlakat sanoati ishlab chiqarayotgan, shu jumladan, import bo'yicha etkazib berilayotgan mahsulotlardagi inson uchun zararli moddalar miqdorini aniqlash masalalarida - O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi;

mudofaa qobiliyatini va safarbarlik tayyorgarligini ta'minlash, mudofaa ahamiyatiga molik mahsulotlar sohasida - O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi amalga oshiradi.

Ushbu Qonunga muvofiq davlat boshqaruvi organlari o'z vakolatlari doirasida standartlar va texnik shartlarni (bundan buyon matnda "standartlar" deb yuritiladi), shuningdek ushbu Qonunni qo'llashga doir yo'riqnomalar va izohlarni ishlab chiqadilar, tasdiqlaydilar, nashr etadilar.

## **3-modda. Standartlashtirish ishlarini o'tkazish**

"O'zstandart" agentligi ushbu Qonunga muvofiq standartlashtirish ishlarini o'tkazishning umumiy qoidalarini, manfaatdor tomonlarning davlat boshqaruvi organlari, jamoat birlashmalari bilan olib boradigan hamkorlikdagi ishining shakl va usullarini belgilaydi.

"O'zstandart" agentligi, O'zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi va O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi standartlashtirish ishlarini bajarishni o'z vakolatlari doirasida boshqa tashkilotlarga topshirishga haqlidir.

Standartlarni tasdiqlagan organlar standartlarga doir tarmoq axborot jamg'armalarini hosil qiladilar va yuritadilar hamda manfaatdor iste'molchilarni xalqaro (davlatlararo, mintaqaviy) standartlar, O'zbekiston Respublikasi standartlari, xorijiy mamlakatlarning milliy standartlariga doir axborotlar bilan, shuningdek standartlashtirish sohasidagi xalqaro shartnomalar, texnik-iqtisodiy hamda ijtimoiy axborot davlat klassifikatorlari, standartlashtirish qoidalari, normalari va tavsiyalariga oid axborotlar bilan ta'xminlaydilar.

Standartlarni nashr qilish va qayta nashr etishni ularni tasdiqlagan organlar amalga oshiradilar.

#### **4-modda. Standartlashtirishto'g'risidagi qonun hujjatlari**

Standartlashtirish to'g'risidagi qonun hujjatlari ushbu Qonundan va O'zbekiston Respublikasining boshqa qonun hujjatlaridan iboratdir.

Qoraqalpog'iston Respublikasida standartlashtirish sohasidagi munosabatlar Qoraqalpog'iston Respublikasi qonun hujjatlari bilan ham tartibga solinadi.

#### **5-modda. Xalqaro shartnomalar va bitimlar**

Basharti xalqaro shartnomasi yoki bitimda O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida ta'riflanganidan o'zgacha qoidalari belgilangan bo'lsa, u holda xalqaro shartnomasi yoki bitim qoidalari qo'llaniladi.

### **II-BO'LIM. STANDARTLASHTIRISHGA DOIR NORMATIV HUJJATLAR**

#### **6-modda. Normativ hujjatlarning toifalari va ularga qo'yiladigan asosiy talablar**

O'zbekiston Respublikasida standartlashtirishga doir quyidagi toifadagi normativ hujjatlar qo'llaniladi:

- xalqaro (davlatlararo, mintaqaviy) standartlar;
- O'zbekiston Respublikasining davlat standartlari;
- tarmoq standartlari;
- texnik shartlar;
- korxona standartlari;
- xorijiy mamlakatlarning milliy standartlari;
- ma'zmuriy-hududiy standartlar.

Davlat yagona va uzlusiz ta'lim tizimida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan davlat ta'lim standartlari ishlab chiqiladi.

Standartlashtirishga doir normativ hujjatlar jumlasiga, shuningdek standartlashtirish qoidalari, normalari, texnik-iqtisodiy axborot klassifikatorlari ham kiradi. Mazkur hujjatlarni ishlab chiqish va qo'llash tartibi "O'zstandart" tomonidan belgilanadi.

Xalqaro (davlatlararo, mintaqaviy) standartlar va xorijiy mamlakatlarning milliy standartlari, shuningdek xalqaro qoidalari va normalari O'zbekiston Respublikasi ishtiroy etgan shartnomasi yoki bitimlarga muvofiq qo'llaniladi. Ushbu standartlar, qoidalari va normalarni respublika hududida qo'llash tartibini "O'zstandart" va davlat boshqaruvining boshqa organlari o'z vakolatlari doirasida belgilaydilar. Ular xalqaro savdo-sotiq uchun ortiqcha to'sqinliklarni vujudga keltirmasligi lozim.

Standartlashtirishga doir normativ hujjatlar vatanimiz hamda chet el fan va texnikasining zamonaviy yutuqlariga asoslangan va O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq bo'lishi lozim. Ular xalqaro savdo-sotiq uchun ortiqcha to'sqinliklarni vujudga keltirmasligi lozim.

### **Normativ hujjatlarsiz mahsulot ishlab chiqarish va realizatsiya qilishga yo'l qo'yilmaydi.**

O'zbekiston Respublikasining manfaatlari himoya qilinishini va ishlab chiqarilayotgan mahsulotning raqobat qila olish imkonini ta'minlash uchun asosli hollarda standartlarda istiqbolga mo'ljallangan, anjanaviy texnologiyalarning imkoniyatlaridan ildamlashgan dastlabki talablar belgilab qo'yiladi.

Iste'molchilarga realizatsiya qilinadigan mahsulotga doir standartlar va ularga kiritilgan o'zgartishlar "O'zstandart" organlarida haq olmasdan davlat ro'yxatidan o'tkazilishi lozim. "O'zstandart" organlarida ro'yxatdan o'tgan standartlashtirishga doir normativ hujjatlar davlat axborot jamg'armasini tashkil etadi.

Mahsulotning atrof-muhit, aholining hayoti, sog'lig'i va mol-mulkiga xavfsizligini ta'minlash uchun, texnikaviy va axborot jihatdan mahsulotning bir-biriga mos kelishi va o'zaro almashinuvchanligini, ularni nazorat qilish usullari birligi va tamg'alash birligini ta'minlash uchun standartlarda belgilanadigan talablar, shuningdek O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarini bilan belgilanadigan boshqa talablar davlat boshqaruvi organlari, xo'jalik faoliyati sub'ektlari rioya etish uchun majburiydir.

Standartlarda mahsulotni yaratish, ishlab chiqarish va etkazib berish shartnomasiga kiritilgan, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan o'zga talablar ham belgilab qo'yilishi mumkin.

Import mahsulot, basharti u O'zbekiston Respublikasida amal qilayotgan standartlarning majburiy talablar qismiga muvofiqligi tasdiqlanmagan bo'lsa, etkazib berilishi va belgilangan maqsadda ishlatalishi mumkin emas.

### **7-modda. Standartlashtirishga doir normativ hujjatlarning sertifikatlashtirishda qo'llanilishi**

Amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq majburiy sertifikatlashtirilishi lozim bo'lgan mahsulotni standartlashtirishga doir normativ hujjatlar sertifikatlashtirishni amalga oshirishda rioya etiladigan talablarni, shuningdek ushbu talablarga muvofiqlikni nazorat qilish va sinash usullarini o'z ichiga olishi lozim.

Ko'rsatib o'tilgan hujjatlar mahsulotning mazkur turini sertifikatlashtirish tizimida belgilangan qoida va tartiblarga muvofiq qo'llanilishi lozim.

## **III-BO'LIM. STANDARTLAR USTIDAN DAVLAT NAZORATI**

### **8-modda. Davlat nazorati organlari va ob'ektlari**

Xo'jalik faoliyati sub'ektlari tomonidan standartlarning majburiy talablariga, standartlashtirishga taalluqli boshqa qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan davlat nazoratini "O'zstandart" agentligi, O'zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi va ularning hududi organlari, O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, shuningdek boshqa maxsus

vakolatli davlat boshqaruv organlari o'z vakolatlari doirasida amalga oshiradi. (O'zR 03.04.2009 y. O'RQ-202-son Qonuni taxriridagi qism), (Oldingi tahririga qarang)

Idoraviy bo'y sunuvi va mulk shaklidan qatyi nazar, xo'jalik faoliyati sub'yeektlarining, shuningdek tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanayotgan jismoniy shaxslarning mahsuloti, shu jumladan, sertifikatlashtirilgan mahsulot (ishlab chiqish, tayyorlash, saqlash, tashish, foydalanish, ta'mirlash va chiqindini foydali suratda ishlatish bosqichlarida) davlat nazorati ob'yeekti hisoblanadi.

Xo'jalik faoliyati sub'yeektlari davlat nazoratini amalga oshirish uchun barcha zarur sharoitni yaratishlari shart.

Standartlarning majburiy talablariga rioya etilishi ustidan davlat nazoratini:

standartlarni tekshirish va nazorat qilish hamda o'lchovlarning yagona birlikda bo'lishini ta'minlash bo'yicha O'zbekiston Respublikasi bosh davlat inspektori;

standartlarni tekshirish va nazorat qilish hamda o'lchovlarning yagona birlikda bo'lishini ta'minlash bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar bosh davlat inspektorlari;

standartlarni tekshirish va nazorat qilish hamda o'lchovlarning yagona birlikda bo'lishini ta'minlash bo'yicha davlat inspektorlari amalga oshiradilar.

## **9-modda. Davlat inspektorlari, ularning huquqlari va javobgarligi**

Standartlarning majburiy talablariga rioya etilishi ustidan davlat nazoratini amalga oshiradigan davlat inspektorlari davlat boshqaruv organlarining vakillari hisoblanadilar.

Davlat inspektori:

xo'jalik faoliyati sub'yeektining xizmat va ishlab chiqarish binolariga belgilangan tartibda kirish;

xo'jalik faoliyati sub'yeektidan davlat nazoratini o'tkazish uchun kerakli hujjatlar va ma'shumotlarni olish;

davlat nazoratini o'tkazishda xo'jalik faoliyati sub'yeektining texnika vositalaridan foydalanish va mutaxassislarni jalb etish;

standartlashtirish bo'yicha amaldagi normativ hujjatlarga muvofiq standartlarning majburiy talablariga muvofiqligini tekshirish uchun mahsulotlarning namunalari hamda nusxalarini tanlab olishni o'tkazish, bunda ishlatib yuborilgan nusxalarning qiymati va sinovlarni (tahlillarni, o'lchovlarni) o'tkazish xarajatlari tekshirilayotgan xo'jalik faoliyati sub'yeektlarining ishlab chiqarish chiqimlariga kiritiladi;

mahsulotni yaratish, ishlab chiqarishga tayyorlash, tayyorlash, realizatsiya qilish (etkazib berish, sotish), undan foydalanish (uni ishlatish), mahsulotni saqlash, tashish va chiqindini foydali suratda ishlatish bosqichlarida, standartlar majburiy talablarining aniqlangan buzilishlarini bartaraf etish to'g'risida ko'rsatmalar berish;

xo'jalik faoliyati sub'yeekti tekshiruvdan bo'yin tovlagan taqdirda mahsulotni realizatsiya qilishni man etish huquqiga ega.

Standartlarni tekshirish va nazorat qilish hamda o'lchovlarning yagona birlikda bo'lishini ta'minlash bo'yicha O'zbekiston Respublikasi bosh davlat inspektori, standartlarni tekshirish va nazorat qilish hamda o'lchovlarning yagona birlikda bo'lishini ta'minlash bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar bosh davlat inspektorlari bundan tashqari:

standartlarning majburiy talablari buzilganligi uchun xo'jalik faoliyati subъektlariga nisbatan jarimalar qo'llash to'g'risida qarorlar qabul qilish;

standartlar buzilishida aybdor bo'lgan xo'jalik faoliyati subъektlarining mansabdor shaxslarini maъmuriy javobgarlikka tortish;

tekshirilgan mahsulotni u standartlarning majburiy talablariga nomuvofiq bo'lgan hollarda realizatsiya qilishni (etkazib berishni, sotishni), undan foydalanishni (uni ishlatishni) taqiqlash yoki to'xtatib qo'yish to'g'risida ko'rsatmalar berish;

tekshirilgan mahsulot standartlarning majburiy talablariga nomuvofiq bo'lgan hollarda uni ishlab chiqarishni taqiqlash yoki uni realizatsiya qilishni (etkazib berishni, sotishni), undan foydalanishni (uni ishlatishni) to'xtatib qo'yish to'g'risida ko'rsatmalar berish.

Davlat inspektorlarining mahsulotni realizatsiya qilishni (etkazib berishni, sotishni) man etish yoki to'xtatib qo'yish to'g'risidagi ko'rsatmasini buzganlik uchun xo'jalik faoliyati subъektlari O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda jarima to'laydilar.

Jarima solish sud tomonidan, xo'jalik faoliyati subъekti sodir etilgan huquqbazarlikdagi aybiga iqror bo'lgan va jarimani ixtiyoriy ravishda to'lagan taqdirda esa, O'zbekiston Respublikasi Bosh davlat inspektori, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar bosh davlat inspektorlari tomonidan amalga oshiriladi.

Xo'jalik faoliyati subъektlari berilgan ko'rsatmalar va qarorlarni bajarmagan taqdirlarida davlat inspektorlari zarur materiallarni prokuratura organlariga yoki sudga oshiradilar.

Davlat inspektorlari zimmalariga yuklangan majburiyatlarni bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan, davlat yoki tijorat sirini oshkor qilgan taqdirlarida qonun hujjatlarida belgilangan javobgarlikka tortiladilar.

## **10-modda. Standartlashtirish to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik**

Ushbu Qonun qoidalari buzilishida aybdor bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslar, shuningdek davlat boshqaruв organlarining mansabdor shaxslari amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq javobgarlikka tortiladilar.

## **IV- BO'LIM. DAVLAT YO'LI BILAN STANDARTLASHTIRISH VA NAZORAT QILISHGA DOIR ISHLARNING MOLIYAVIY TAЪMINOTI. STANDARTLARNI QO'LLASHNI RAG'BATLANTIRISH**

### **11-modda. Davlat yo'li bilan standartlashtirish va nazorat qilishga doir ishlarning moliyaviy taъminoti**

Cstandartlashtirish va nazorat qilishga doir ishlar, xususan:

xalqaro (davlatlararo, mintaqaviy) standartlarni, standartlashtirish qoidalari, normalari va tavsiyalarini ishlab chiqish yoki ishlab chiqishda ishtirop etish;

aniq standartlashtirish obъektlari bo'yicha qonun hujjatlarini ishlab chiqish, shuningdek standartlarning tarkibiy tashkiliy-texnik va umumtexnik majmuilarini ishlab chiqish va ularning amal qilishini taъminlash;

texnik-iqtisodiy axborot klassifikatorlarini ishlab chiqish, ular to'g'risida rasmiy axborot tayyorlash va nashr etish, shuningdek ularni barcha manfaatdor foydalanuvchilarga yuborish;

standartlashtirish bo'yicha umum davlat ahamiyatiga molik ilmiy-tadqiqot va o'zga ishlarni olib borish;

standartlarning majburiy talablariga rioya etilishi ustidan davlat nazoratini olib borish;

standartlar fondini, texnik-iqtisodiy axborotlar klassifikatorlarini, xalqaro (davlatlararo, mintaqaviy) standartlarni, standartlashtirish qoidalari, normalari va tavsiyalarini, xorijiy mamlakatlarning milliy standartlarini, shuningdek standartlarga muvofiqlik belgisi bilan tamg'alangan mahsulot va xizmatlar Davlat reestrini shakllantirish hamda yuritish;

standartlashtirish sohasida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi aniqlaydigan o'zga ishlarni davlat yo'li bilan moliyaviy ta'minlanishi shart.

Nashr qilingan (qayta nashr etilgan) standartlarni, texnik-iqtisodiy axborot klassifikatorlarini, mahsulot va xizmatlar Davlat reestriga kiritilgan, standartlarga muvofiqlik belgisi bilan tamg'alangan mahsulot va xizmatlarning nashr qilingan (qayta nashr etilgan) katalogini sotishdan belgilangan tartibda olinadigan mablag'lar, shuningdek ushbu Qonun qoidalarni buzganlik uchun undiriladigan jarima mablag'larining O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilaydigan tartibda davlat nazorati organlariga yo'llanadigan qismi ham standartlashtirish, standartlarning majburiy talablariga rioya etilishi ustidan davlat nazoratiga doir ishlarni moliyaviy ta'minlash manbalari bo'lishi mumkin.

Respublika byudjeti mablag'laridan to'liq yoki qisman ta'minlanadigan davlat dasturlarini ishlab chiqishda mahsulot sifatini normativ jihatdan ta'minlash bo'limlari nazarda tutilishi lozim.

#### **4- MAVZU: Standartlashtirish usullari: unifikatsiya, agregatlash va tipizatsiyalash. Standartlashtirishda davlat nazorati. Korxonalarda standartlashtirish. Sohalararo, kompleks va odimlovchi standartlashtirish. O'zaro almashinuv chanlik. O'zaroalmashinuvchanlikni hozirgi holati va istiqboli.**

## **5-MAVZU: Dopusk va o'tkazishlar. O'zbekiston Respublikasining yagona dopusk va o'tqazishlar sistemasi. Xalqaro dopusklar sistemasi.**

**Nominal va haqiqiy o'lchamlar. CHekli chetga chiqishlar. Dopusk maydoni. CHizmalarda chekli chetga chiqishlarning belgilanishi.**

**Dopusk birligi va kvalitet. O'tqazishlar, oraliq, tarangli va o'tuvchi o'tqazishlar.**

Reja:

1. Mashinasozlikda o'zaro almashinishi to`g`risida tushuncha.
2. Dopusklar va o'lchamlar haqida tushuncha hamda uning o'zaro almashinishi bilan bog`lanishi.
3. Dopusklar tuzimida uchraydigan belgilari.
4. Teshik va val sistemasi haqida tushuncha.
5. Forma og`ishining tipik ko`rinishlari va ularning tasvirlanishi.
6. Tekislikmaslikni va to`g`ri chiziqlimaslikni kontrol qilish.
7. Silindrmaslikni va doiraviyimaslikni kontrol qilish.
8. Sirtlarning vaziyatini kontrol qilish.

Konstrukturlar mashinalardagi asbob va mexanizmlar detallarning o'zaro almashinadigan qilib, ya'ni mashina yig`ish va remont qilishda biror detalni o'sha nomli va o'sha nomerli boshqa detalga almashtirish mumkin bo`ladigan qilib yaratishga intiladilar.

Mashinasozlikda o'zaro almashinish deb buyumlarni shunday konstruktsiyalash va ishlab chiqarish printsipini tushuniladi, bunda erkin, ya'ni muayyan mashinani ko`zda tutmasdan tayyorlanmagan detallarni tanlamasdan va maxsus to`g`rilab burmasdan yoki qo`shimcha ishlov bermasdan tegishli mashinaning uzellariga yig`ilganda mashinaning o`ng qo`yilgan talablarga muvofiq ravishda yig`ilishini ta'minlaydigan bo`ladi.

O'zaro almashinishdan detallar o'lchamlari shakli qattiqligi mustahkamligi ximiyaviy elektor va xossalari jihatidan bir xil bo`ladi.

Agar detallari va uzellar sifatini funksional monometrik mashinaning ko`rsatkichlariga nisbatan yuqori sifat bilan ishlashini ta'minlaydigan chegaralarda detalning ortishi va xossasini ta'minlaydigan qilib aniqlanadigan bo`lsa, bu funksional o'zaro almashinish deyiladi. O'zaro almashinish konstruktorga ayrim detallarning ularning ma'lum vaqt ishlagandan keyin zanos qismlardan yasalgan boshqasiga almashtirish mumkinligini e'timorga olib, yangi va qulay garbioli mashinalar yaratishga yordam beradi. Bunday xolda eng kichik ma'ruza bilan eng ko`p ishlaydigan detallarning ishlash muddatini hisobga olish yo`li aniqlash mumkin bo`ladi.

O'zaro almashinish korxona va zavodlarda mashinalarni yig`ish ishlarini soddalashtiradi va yuqori ish sur'atini ta'minlaydi.

O'zaro almashinish printsipini birinchi bo`lib, to`la shakldagi miltiq ishlab chiqaruvchi zavod masteri tadbiq etgan.

O`zaro almashinish konstruktor va texnolog ishini o`zaro bog`laydi va uni soddalashtiradi. Agar biror zavod chiqargan tayyor detallar va uzellar loyixalanayotgan mashinaga tayyor detallar va uzellar loyixalanayotgan mashinaga nisbatan qo`yiladigan talablarga javob beradigan bo`lsa, bu mashina konstruktsiyani ishlovchi konstruktori xaligi detallarning chizmalarini chizib o`tirishga, zavod uchun esa bu detallarni ishlab chiqarishga vaqt hamda mablag` sarflashga ehtiyoj qolmaydi. Har qanday mashina ayrim detal yoki uzellardan yig`iladi. Biri ikkinchisining ichiga kiradigan ikki detalning birikishidan qamrovchi va qamraluvchi sirtlar birinchisidan farq qilinadi.

Silindrik birikmalardan qamrovchi teshik umumiyl nom bilan, qamraluvchi esa val deb ataladi. Teshik va val nomlarini shartli ravishda qamraluvchi va qamrovchi sirtlarni parallel tekislikni tekis vaqtida bir qator detallarga emas, balki bitta detalning o`zida ham ayrim kesmalarda oldindan ko`rsatilgan absolyut bir xil o`lchamga erishib bo`lmaydi. Bu xol detalni ishlash protsessiga hoyat ko`p sabablarni ta`siri tufayli yuz beradi.

Detal shakli va o`lchamlarini oldindan ko`rsatilgan shaklda va o`lchamlardan farq qilishdagi asosiy sabablaridan ishlov berish jihozlarining va kesish asboblarining aniq ishlanmaganli, ularning emirilishi darajasi ayrim zagatorvkalarining o`lchamlari, shakli, qattiqligi, mexanik xossalari bir xil bo`lmasligi zagatovkalarining noaniq bog`lash va ularni moslamalarga noto`g`ri mahkamlanishi tushayotgan detal shuningdek, uskuna, moslama va kesish asboblari detallarning ayrim qismlari o`lchamarining o`zgarishiga sabab bo`la oladigan temperatura ta`siri, uskuna, moslama, kesish asboblari, detallarning va ishlanayotgan detalning elastik deformatsiyasi shular uchun belgilangan kesimning buzilishi, uskuna o`rnatilgan poydevorning tebranishi va b.

Konstruktor detalning chizmasini chizishda valning ishlash sharoitiga qarab val diametrining o`lchamini belgilaydi. Bu o`lcham nominal o`lcham deyiladi va birikmani hosil qiluvchi val uchun ham umumiyl o`lchash hisoblanadi.

Ishlash vaqtida yuz berishi mumkin bo`lgan xatollarni ham hisobga olib konstruktor chizmada ayrim detallar uchun yo`l qo`yish mumkin bo`lgan birgina o`lchamni emas, bir nechta, ya`ni ikkita o`lchamni: eng katta chegaraviy o`lchamni va eng kichik chegaraviy o`lchamni ko`rsatiladi.

Yo`l qo`yish mumkin bo`lgan eng katta va eng kichik chegaraviy o`lchamlarning ayirmasi ishlash uchun dopusk deb ataladi. SHunday qilib dopusk ishlashda ruxsat etilgan oldindan ko`rilgan va detallarning chizmasida aks ettirilgan xatoni ko`rsatadi. Bu holda ishlashdan keyingi o`lchamarini dopusk chegarasida bo`lgan detal yaroqli hisoblanadi.

Detallarni ishlashda erishilgan o`lchamlarning to`g`riligini ularni o`lchab aniqlanadi. O`lchamlarni qiymatini birlik sifatida qabul qilingan kattalik bilan taqqoslash tushuniladi.

Uzunlik o`lchamlar uchun birlik metr hisoblanadi, uning ulushlari millimetrla va mikrometr juda ko`p ishlatiladi.

Silliq birikmalar uchun detallarga ishlov berish dopusklari turli xil standartlarda ko`rsatilgan bo`lib, ularda bu standartlar 0,01 dan 10000 mm gacha

o`lchamlarini o`z ichiga oladi. O`lchamlarni miqdoriga qarab dopusklar 4 guruhga bo`linadi:

Birinchi gruppada 0,01 dan 0,1 mm gacha o`lchamlarga tegishli dopusklar ko`rsatiladi.

Ikkinci gruppada 0,1 dan 1 mm gacha o`lchamga tegishli dopusklar ko`rsatiladi.

Uchinchi gruppada 1 dan 500 mm gacha o`lchamga tegishli dopusklar ko`rsatiladi.

To`rtinchi gruppada 500 dan katta va 10000 mm gacha o`lchamlar tegishli dopusklar ko`rsatiladi.

Beshinchi gruppada 10000 dan katta va 32400 mm gacha o`lchamlar dopusklar rahbar materiallar tarzida ishlab chiqarilgan va tasdiqlangan.

O`lchamlar dopusk o`tkazishlar majmui dopusklar sistemasi deyiladi.

Dopusklarning turli sistemalarni masalan, bizning sistemani Xalqaro sistemani va boshqa mamlakatlar sistemasini taqosslasak har qaysi dopusklar sistemasida dopusklarni tuzishda uchraydigan uchta belgisini sezish mumkin. Bu belgilar aniqlik klasslariga ajratish belgilangan dopusk birligi o`lchamlarni intervallariga bo`lishdir.

Aniqlik klasslari dopusklarning xar qaysi sistemada aniqlik klassi belgilanadi va bu klasslar dopusknii kattaligi bilan xarakterlanadi.

Nominal o`lcham bir xil detall uchun aniqlik klassi qancha qo`pol bo`lsa uning uchun dopusk shuncha katta bo`ladi.

Aniqlik klassi qancha aniq bo`lsa o`ng mos dopusk shunchalik kichik bo`ladi dopusknii kichik detallarini ishlash ancha qiyin bo`ladi va ularning qiymatiga tushadi.

Dopusk birligi; Aniqlik birligi sifatida dopusk birligi belgilangan bo`lib, bu birlik yordamida aniqlikning diametriga bog`ligini ifodalash mumkin.

Eng ko`p tarqalgan o`lchamlar uchun birlik dopusk sifatida  $i = 0,5\sqrt{3d}$  o`rtacha miqdor belgilangan, bunda d o`rtacha mm larida olinadi. Natijada esa mikrometrda hosil bo`ladi. Dopusk birligida xar xil klasslardan dopusk kattaligini aniqlashda foydalilaniladi. Bunda bog`lanishdan foydalilaniladi. Bu formula  $\delta q = i$

Bunda:  $\delta$  -dopusk kattaligi.

a- esa turli klasslarga tegishli dopusk birliklar soni.


O`lchamlar intervali; agar dopusk birikmalarida dopuskning kattaligini malum  $\delta q = i$  yordamida 1 dan 500 mm li intervalda chiqsa dopusklarga doir katta jadval hosil qilishimiz mumkin.

Detallning kattaligi ortishi bilan ishlov berishida yuz berishi mumkin bo`lgan xatolarning uncha kattalashganini etiborga olib, dopusklarni o`lchamlarini ayrim intervallar uchun xisoblaydilar.

## TESHIK SISTEMASI VA VAL SISTEMASI

Dopusklar sistemasi va vallar sistemasiga bo`linadi va bu sistemalarni tariflari GOST 7713-62 da quyidagicha berilgan.

Teshiklar sistemasi o`tqazishlar majmuidan iborat bo`lib, bu o`tqazishlarda shu klassning o`zida va bir xil nominal o`lchamda teshiklardagi chegaraviy chetga chiqishlar o`zgarmas (bir zil), turli o`tkazishlarni hosil qilish uchun esa vallardagi chegaraviy chetga chiqishlar o`zgartiriladi.




**2-rasm. Teshiklar sistemasida o`tqazishlar sxemasi  
(I; II va III o`tqazishga tegishli o`lchamlari turlicha bo`lgan vallar eskizlari)**

Teshiklar sistemasiga tegishli standartning hammasida teshikning pastki chetga chiqishi nolga teng; bu holda teshikning eng kichik chegaraviy o`lchami nolga teng; bu holda teshikning eng kichik chegaraviy o`lchami nominal o`lchamiga teng bo`ladi. Bunday teshikning dopusk maydoni asosiy maydon hisoblanadi.

Vallar sistemasi shunday o`tqazishlar majmuidan iboratki, bu o`tqazishlarda (nominal o`lcham ham, aniqlik klassi ham bir xil bo`lganda), vallardagi chegaraviy chetga chiqishlar o`zgarmas (bir xil) bo`ladi, turli o`tqazishlarni hosil qilish uchun esa teshiklarning chegaraviy chetga chiqishlari o`zgartiriladi.

Vallar sistemasidagi standart o`tqazishlarda yuqorigi chetga chiqish nolga teng. Bunday valdagi dopusk maydoni asosiy hisoblanadi.


Teshiklar sistemasidagi va val sistemasidagi uchta bir xil o`tqazishga tegishli dopusklar maydonlarining grafik joylashishi 7-rasmida berilgan.



**3-rasm. Val sistemasida o`tzazishlar eskizi. (I; II; III; IV-o`tzazishga doir chegaraviy o`lchamlari turlicha bo`lgan teshiklar eskizlari.)**

Asosiy teshiklarga doir dopusklar A harfi bilan, asosiy vallarga doir dopusklar esa V harfi bilan belgilanadi, bu harflar yoniga tegishli aniqlik klassi qo`yiladi. Masalan, A<sub>1</sub> yozuv 1-anqlik klassidagi asosiy teshikka doir dopuskni, A<sub>4</sub> esa 4-anqlik klassidagi asosiy teshikka doir lopuskni bildiradi va x.k. Vallar sistemasidagi teshiklarga doir standart dopusklar va teshiklar sistemasidagi vallarga doir dopusklarning hammasi o`tzazishlarning shartli nomlariga doir harflar yoniga tegishli aniqlik klassini ko`rsatib tasvirlanadi. (yuqoridagi rasmlar)

Mashinasozlikda 2-anqlik klassi eng ko`p tarqalganligi va dopusklar sistemasida asosiy hisoblangani uchun bu klassga tegishli dopusk maydonini belgilashda 2 raqami yozilmaydi.




**3-rasm. Dopuskning belgilanishi: a-ish chizmalarida, b-yig`ish chizmalarida**

GOST 9171-69 ga muvofiq, chizmalarda dopusklarni dopusk maydonining belgisi bilan yoki chegaraviy chetlashishlar, yo bo`lmasa, 8-rasmda ko`rsatilganidek, aralashtirib tasvirlash mumkin

Teshiklar sistemasi eng ko`p tarqalgani hisoblanadi, chunki ishlab chiqarishda bu sistemada ishlashda o`lchamlari jihatidan kam sonli teshiklar hosil qilinadi. Demak korxonada teshiklarni ishlashda ularning o`lchamlarini bevosita yarata oladigan har xil kesuvchi asboblar (parma, zenker, protyajkalar), kalibrler, ya`ni moslamalar uchun probka va opravkalar ishlash osonroq, bitta tokarlik yoki jilvirlash stanogida har xil o`lchamli vallarni hosil qilish mumkin.

Ammo faqat bitta teshiklar sistemasi asosida turli o`tqazishlarni bajarish har qanday mashina uchun ham mumkin bo`lavermaydi, qator hollarda esa iqtisodiy tomondan foydasiz ham bo`ladi. Masalan, tutashuvlarga doir o`tqazishlarni teshiklar sistemasi asosida bajaridigan bo`sak, o`lchamlarini berilgan detallarni bir-biriga biriktirish mumkin bo`lavermaydi.



*4-rasm. Teshiklar sistemasini tatbiq etish mumkin bo`lmagan hollarda o`tqazishlarning joylashishi.*

I va II vtulkalarda asosiy A teshiklarga tegishli chetlashishlar bir xil (75.0,03 mm), valning uchida presslab o`tqazishni bajarish uchun esa valni 0,02 mm chetga chiqishli qilib ishlash kerak bo`ladi. Bu holda presslab o`tqazish uchun valning chegaraviy o`lchamlari teshik o`lchamlaridan ancha katta. SHu sababli II vtulkani sirpanuvchan o`tqazishda bu vtulka valning uchidan o`tganida u deformatsiyalanadi, I vtulkani o`rnatishda esa presslab o`tqazish amalga oshmaydi.

Iqtisodiy va texnologik jihatdan val sistemasidan foydalanish afzalroq, chunki bu holda chiviq shaklidagi yaxlit cho`zilgan material yoki simdan foydalilanadi va bunda qo`shimcha mexanik ishlov berishga ehtiyoj qolmaydi. Lekin buni faqat 2a va undan ham qo`polroq aniqlik klasslaridagina bajarish mumkin.

Mashina konstruktsiyalarida normallashtirilgan yoki standart uzel va detallardan (masalan, dumalash podshipniklarini korpusga o`rnatishda, kontrol shtiftlardan, valik va b.) foydalanylганда ham val sistemasini tatbiq etishga to`g`ri keladi.

Vallarning nominal o`lchamlari berilgan sababli, dumalash podshipnigini mashina korpusiga o`rnatishga mo`ljallangan teshiklarni, shuningdek, kontrol shtift va boshqa normallashtirilgan yoki standartlashtirilgan detallar o`rnatiladigan teshiklarni val sistemasi asosida tegishli o`tqazishlarga mos chetga chiqishlarga amal qilib ishslashga to`g`ri keladi.

Mashinasozlikda detallar, odatda, oddiy geometrik shakllardan konstruktsiyalanadi, chunki ularni tayyorlash oson bo`ladi. Ko`pincha ayrim detallar yoki ularning alog`ida qismlari tekislik yo silindr ko`rinishida tayyorlanadi. Boshqa geometrik shakllardagi detallar ancha kam ishlatiladi.

Biroq, bir qator sabablarga ko`ra detallar qat`iy geometrik shaklda kelib chiqmaydi. Bu hol to`g`ri geometrik shakldan chetlashishga ma'lum norma belgilashni taqozo qiladi. Bundan tashqari har bir detalda bir qator tekisliklar bo`ladi va bu tekisliklar ham bir-biriga nisbatan to`g`ri joylashishi zarur. Misol uchun, oddiy silindrik valikda silindrik, sirt, torets tomonida (uchlarida) esa tekis sirtlar bor. Bunda torets tomonidagi tekis sirt silindrik sirtga perpendikulyar bo`lishi kerak.

Juda kam hollardagina detal har xil diametrli valdan iborat bo`ladi. Ko`proq hollarda detal har xil diametrli alog`ida silindrlardan tashkil topgan pog`onali valiklar tarzida bo`ladi. Ko`pincha bu silindrlarning o`qlari bir to`g`ri chiziqdada bo`lishi talab qilinadi. Detal sirtlarini bir-biriga nisbatan absolyut aniq joylashtirib bo`lmaganligi sababli, sirtlarning bir-biriga nisbatan joylashishidagi og`ishishlarni normalash zarurati tug`iladi.

## **6-MAVZU: Mashina detallarining geometrik shakldan va joylashishdan og`ishlari. SHakldan og`ishlar va sirtlar hamda o`qlarning joylashishiga tegishli dopusklarning chizmalarda belgilanishi.**

### **Reja:**

1. Forma og`ishining tipik ko`rinishlari va ularning tasvirlanishi.
2. Tekislikmaslikni va to`g`ri chiziqlimaslikni kontrol qilish.
3. Silindrmaslikni va doiraviyimaslikni kontrol qilish.
4. Sirtlarning vaziyatini kontrol qilish.

Mashinasozlikda detallar, odatda, oddiy geometrik shakllardan konstruktsiyalanadi, chunki ularni tayyorlash oson bo`ladi. Ko`pincha ayrim detallar yoki ularning alog`ida qismlari tekislik yo silindr ko`rinishida tayyorlanadi. Boshqa geometrik shakllardagi detallar ancha kam ishlatiladi.

Biroq, bir qator sabablarga ko`ra detallar qat`iy geometrik shaklda kelib chiqmaydi. Bu hol to`g`ri geometrik shakldan chetlashishga ma'lum norma belgilashni taqozo qiladi. Bundan tashqari har bir detalda bir qator tekisliklar bo`ladi va bu tekisliklar ham bir-biriga nisbatan to`g`ri joylashishi zarur. Misol uchun, oddiy silindrik valikda silindrik, sirt, torets tomonida (uchlarida) esa tekis sirtlar bor. Bunda torets tomonidagi tekis sirt silindrik sirtga perpendikulyar bo`lishi kerak.

Juda kam hollardagina detal har xil diametrli valdan iborat bo`ladi. Ko`proq hollarda detal har xil diametrli alog`ida silindrlardan tashkil topgan pog`onali valiklar tarzida bo`ladi. Ko`pincha bu silindrarning o`qlari bir to`g`ri chiziqda bo`lishi talab qilinadi. Detal sirtlarini bir-biriga nisbatan absolyut aniq joylashtirib bo`lmaganligi sababli, sirtlarning bir-biriga nisbatan joylashishidagi og`ishishlarni normalash zarurati tug`iladi. Forma og`ishishidagi yo`l qo`yiladigan xatolarni normalashda yondosh sirt tushunchasidan foydalaniladi. Masalan, tekis sirtlar haqida gap borar ekan, u holda detalning bu sirtlari ideal sirt bilan qoplanadi deb faraz qilish zarur va unga nisbatan detal sirtining og`ishi aniqlanadi.

Berilgan formadan chetlashish (og`ishish) detallarning birikish xarakteriga ta'sir qiladi va uzellar hamda butun mashina ishining ishlash sifatini yomonlashtiradi. SHuning uchun detal va uzellarning vazifalariga hamda ishlash sharoitiga qarab, konstruktor formalarda va sirtlarning joylashishida yo`l qo`yiladigan og`ishishlar kattaligini GOST 10356-63 da ko`zda tutilgan dopusklar yordamida cheklab qo`yadi.


Bu standartda formaning va sirt joylashishlaridagi og`ishishning chegaraviy qiymatlari, shuningdek, detal sifatini belgilashda zavodning hamma xodimlari (konstruktorlar, ishchilar, kontrolyorlar va b.)da og`ish to`g`risida yagona tushuncha hosil qilish uchun terminlar va turli ko`rinishdagi og`iishlarning ta'riflari keltirilgan.

Standart ta'riflari va chegaraviy og`ishlar tekisliklar, silindr formasining ko`ndalang va bo`ylama kesimlari uchun sirtlar, o`qlar va sirtlarning o`zaro joylashishi uchun belgilangan.


Detalning yassi sirtlari tekislikmasligi va to`g`ri chiziqmasligi bilan xarakterlanadi. Tekislik (detal) nuqtalaridan yondosh (boyagi «qoplovchi») tekislikkacha bo`lgan eng katta masofa bilan aniqlanadi. To`g`ri chiziqlimaslik [rasm, a] detal sirtining berilgan yo`nalishdagi to`g`ri chiziqdan og`ishi bilan aniqlanadi.

Amalda ko`pincha tekislikmaslik kontrol qilinadigan sirdagi istalgan yo`nalishdagi to`g`ri chiziqlimaslik bilan aniqlanadi.

Tekislikmaslikka eng oddiy misol qavariqlik va botiqlikdir (1- rasm, b va v).




*Endom айсаны*



*5-rasm. Shakl og`ishi*

Silindr ko`rinishidagi detal formasidagi og`ishi silindrmaslik bilan xarakterlanadi, silindrmaslik deyilganda detal sirtining ideal silindr sirtida og`ishi tushuniladi. O`lchashlarni bevosita ishlab chiqarishning o`zida bajarish uchun profilning ko`ndalang va bo`ylama kesimlardagi og`ishidan iborat ikki xil chegaraviy og`ishlar normalanadi.

Silindrning ko`ndalang kesimidagi og`ish doiraviyimaslik (rasm, b) bilan xarakterlanadi. Doiraviyimaslik deyilganda ham kontrol qilinayotgan detal real nuqtalarining uni qamrab oladigan ideal doiradan eng katta og`ishi (chetlashishi) tushuniladi. Doiraviyimaslikka formaning doiradan har qanday og`ishi kiradi.




*6-rasm. Val ko`ndalang qirqimidagi forma og`ishi:a-konussimonlik, b-bochkasimonlik, v-egarsimonlik, g-eglganlik*

Biroq o`lchash va detalni ishlash texnologiyasi bilan bog`lanish oson bo`lsin uchun ovallik (rasm, g) va ogranka deb ataladigan elementar ifodalangan og`ishlar ajratiladi.

Ogranka deyilganda silliq doira o`rniga bir necha yoqdan tashkil topgan figura tushuniladi. Rasm, d da aniq tasvirlangan uch yoqli ogranka ko`rsatilgan.


Silindr bo`ylama kesimi profilidagi og`ishlarning elementar ko`rinishlari konussimonlik (6-rasm, a), bochkasimonlik (6-rasm, b), egarsimonlik (6-rasm, v) va egilganlik (6-rasm, g) hisoblanadi.

Sirt va o`qlarning standartda ko`rsatilgan to`g`ri holatlaridan chetlashishlarining tipik ko`rinishlari parallelmaslik (7-rasm, a va b), perpendikulyarmaslik (7-rasm, v, g, d), o`qdoshmaslik (7-rasm, e), simmetrikmaslik (7-rasm, j), bundan tashqari toretsiga va radial tepishga doir chetlashishlar ham ko`zda tutiladi (8-rasm). Toretsdagagi tepish torets sirtining




7-rasm. O`qlar sirti joylashishining og`ish turlari.

a-sirtlarning nopalalleligi, b-o`q va sirtning noralelligi, v-sirtlarning perpendikulyarmasligi, g-o`qlarning noperpen-dikulyarligi, d-o`q va sirtlari-ning noperpendikulyarligi, e-o`qdoshmaslik, j-nosimetrikli



53- расм. Тепишлиарнинг тuri:  
а — торецдаги, б — радиаль,  
в — радиаль тепиш схемаси

Perpendikulyarmasligi va torets formasining qavariqligi yoki botiqlik ko`rinishidagi chetlashishlarining natijasidir (8-rasm, a).



9-rasm. Tepishlarning turi. а-toretsdagi, б-radial, в-radial tepish sxemasi.

Radial tepish detalning ko`rilayotgan ko`ndalang kesimi markazining aylanish o`qiga nisbatan siljishi va yumaloq emasligi natijasidir. (8-rasm, b). Radial tepish sxemasi rasm, v da ko`rsatilgan.

To`g`ri chiziqlimaslikka, tekislikmaslikka, silindrikmaslikka, dumaloqmaslikka va radial tepishga chegaraviy og`ishlar uchun standartda 10 tadan aniqlik darajasi; parallelmaslikka va perpendikulyarmaslikka 12 tadan aniqlik darajasi: toretsdagи tepishga 8 ta aniqlik darajasi ko`zda tutilgan.

Formalardagi og`ishlarni va sirtlarning joylashishidagi og`ishni kontrol qilish nisbatan ancha murakkab bo`lgani uchun detalga alog`ida talab qo`yilgandagina

GOST 10356-63 bo`yicha og`ishlarni chizmalarda kattaligi o`lchamga nisbatan dopusk maydonchasi bilan cheklanadi.

CHetlashishlarni chizmalarda ko`rsatish.

Formalardagi va sirtlar joylashishidagi chegaraviy chetlashishlar GOST 2-308-68 ga muvofiq belgilanadi. CHizmalardagi chetlashishlarni belgilash oson bo`lishi uchun standartda chetlashishlarning to`liq va qisqartirilgan nomlari hamda ularning simvolik belgilari berilgan (1-jadval). CHetlashishni chizmada chetlashish ko`rinishini tasvirlovchi shartli belgi yoki chizmaning bo`sh joyida yozma tekst tarzida ko`rsatish mumkin. SHartli belgilarni qo`yishga ancha kam vaqt ketadi, ular chizmada o`lcham dopuski bilan birga ko`rsatilsa, ancha oson bo`ladi, shu sababli birinchi navbatda shunday belgilash tavsiya etiladi.


SHartli belgilar chizmani qoraytirib yuboradigan yoki ular detalga qo`yiladigan texnik talablarga to`liq javob bermaydigan bo`lsagina, tekstli belgilashdan foydalanish tavsiya etiladi. Tekstli belgilashda quyidagilar ko`rsatiladi: berilgan chetga chiqishning jadvalda keltirilgan terminologiya bo`yicha qisqacha nomi chegaraviy chetlashish va chegaraviy chetlashish kattaligi mm larda berilgan elementning (masalan, sirtning) harfiy belgilanishi yoki nomi. Agar chetlashish sirtlarning joylashishiga taalluqli bo`lsa, u holda yana ularga nisbatan baza ham belgilanadi (baza chiziq, umumiy o`q yoki simmetriya tekisligi va boshqalardan iborat bo`lishi mumkin).

CHetlashish turi	CHetlashishlar nomi		
	To`liq	qisqacha	Eskiz
Joylashish chetlashishi	Tekislikdan chetlashish	Tekislikmaslik	
	To`g`ri chiziqlilikdan chetlashish	To`g`ri chiziqlimaslik	
	Silindrlikdan chetlashish	silindrikmaslik	
	Doiraviylikdan chetlashish	Doiravymaslik	
	Bo`ylama kesim profilidan chetlashish		
Joylashish chetlashishi	Parallellikdan chetlashish	Parallelmaslik	//

	Perpendikulyarlikdan chetlashish	Perpendikulyarmaslik	
	O`qdoshlikdan chetlashish	O`qdoshmaslik	
	Toretsdagи tepish		
	Radial tepish		
	O`qlar kesishishidan chetlashish		
	Simmetriyalikdan chetlashish	Simmetrikmaslik	
	O`qlarning nominal joylashishdan siljishi		

Tekismaslikni va to`g`ri chiziqlimaslikni kontrol qilish.

GOST 10356-63 da tavsiya etilgan (tekislikmaslik) va to`g`ri chiziqlimaslikni o`lchash sxemasi 9-rasmida ko`rsatilgan. Tekshiriladigan detal rostlanadigan tayanch 2 yordamida plita 3 ga o`rnataladi. Stoyka 4 ni har xil yo`nalishlarda plita bo`yicha siljitim natijasida o`lchash kallagi (golovkasi) 5 qavariqlik va botiqqlik kattaligini hamda joyini ko`rsatadi. To`g`ri chiziqlimaslik o`lchash kallagi ko`rsatgan eng katta va eng kichik ko`rsatishlar orasidagi farq sifatida aniqlanadi.



9-rasm. Noteckislik va to`g`ri chiziqlimaslikni aniqlash sxemasi.

Tekislikmaslik va to`g`ri chiziqlimaslikni tekshirish lineykasi yoki plitalardan foydalanib, bo`yoq surkalishi yordamida nisbiy usulida aniqlash mumkin. Buning uchun keng lekalo lineykalarini yoki tekshirish plitalariga yupqa qilib bo`yoq surtilgandan keyin ularni tekshiriladigan sirtlarning baland joylari bo`yalib qoladi va bu bo`yalgan joylarning soniga va bo`yoq dog`larining joylashishiga qarab sirtning tekislikmasligi aniqlanadi.

Tirqish yordamida tekshirish. Silindr yoki konus yasovchisining to`g`ri chiziqlimasligi 1200 mm uzunlikkacha tekshirish lineykasi (lekalo) yordamida tirqish bo`yicha tekshiriladi.

Tekislikmaslik va to`g`ri chiziqlimaslikni kontrol qilish uchun ko`pincha har xil: ramkali, brusokli, mikrometrik va b. adilaklardan keng foydalilanadi. Adilakning asosiy qismi ichiga efir yoki etil spirti to`ldirilgan ampuladir. Ampula ichini to`ldirishda uning ichida kichkinagina havo pufakchasi qoldiriladi, bu pufakcha shkalaning qo`zg`aluvchan ko`rsatkichi bo`lib, doimo eng baland vaziyatni egallab turadi.

Silindrmaslikni va doiravimmaslikni kontrol qilish.

Doiravimmaslikni kontrol qilish. Detallarning ichki va tashqi silindrik sirtlardagi doiraviylikdan og`ishish kruglomer deb ataladigan asboblar yordamida o`lchanadi. Ko`pchilik kruglomerlarda aniq yo`naltiruvchilarga o`rnatilgan yuksak aniqlikka ega bo`lgan shpindel bo`ladi. SHpindelda u bilan birga aylanadigan datchik bor. Datchik uchligi stol ustiga qo`zg`almas qilib o`rnatilgan. Tekshiriladigan detal sirti bilan kontktlanadi. Datchikning ko`rsatishlari o`zi yozib oluvchi asbob yordamida doiraviv disk ko`rinishida yozib olinadi.

Katta o`lchamli detallardagi doiravimmaslikni kontrol qilish uchun detal aylanadigan va datchigi qo`zg`almay turadigan kruglomerlar qo`llaniladi. Kruglomerlar har xil modellarda (218, 246, 2003, VE20A) va turli zavodlarda chiqariladi. Ular bir-birlaridan ishslash printsipi (induktiv va pnevmatik qurilmalar) va tekshiriladigan detallar gabaritlari bilan farq qiladi. Ular yordamida tekshiriladigan detallarning maksimal o`lchamlari diametri bo`yicha 350 mm, balandligi bo`yicha esa 1500 mm bo`ladi.

Konussimonlik detal uchlaridagi yoki berilgan uzunlikdagi ikki kesimni o`lchash natijasida olingan eng katta va eng kichik diametrler orasidagi farq sifatida aniqlanadi. Konussimonlik va bochkasimonlik hamda egarsimonlikni talab qilinadigan o`lchash aniqligida har turli o`lchash asboblari (shtangentsirkul, mikrometrlar, indikatorli skoba va b.) vositasida bajarish mumkin.

«Aqliy hujum» Yuzasidan savollar

1. SHakl (figura, forma) tushunchalarini, ularning turlarini aytib bering?
2. Doira bilan aylananining farqini tushuntiring?
3. Silindrik shakldagi buyumlarga misollar keltiring.

Tayanch so`z va iboralar: shakl, mahsulot, ko`rinish, bochkasimonlik, konussimonlik, egilganlik, silindrmaslik, o`qdoshmaslik, chetlashish, tekislikmaslik, to`g`ri chiziqlimaslik.

Adabiyotlar

[1] 26-30 b, [3] 24-30 b.

Mustaqil ish uchun topshiriqlar

1. Silindrik og`ishning sabablarini o`rganing.
2. Tokarlik vintqirqar stanogida markazga o`rnatilgan val diametrini radial tepishini aniqlang.
3. Torets tepishni aniqlang.
4. YAssi Yuzalarda shakl og`ishini aniqlang.

Savollar:

1. Ogranka deyilganda nima tushuniladi?
2. Konussimonlik qanday diametrlar orasidagi farqni aniqlaydi?
3. Tekislikmaslik va to`g`ri chiziqlimaslik qanday asboblarda aniqlanadi?

**7-MAVZU: Detal sirtlarining g`adir-budurliklari. G`adir-budurlik paremetrlari. Sirtlarning g`adir-budurligini o`lchash usullari va vositalari.**

**CHizmalarda sirtlarning g`adir-budurligini belgilash. Silliq tsilindrik birikmalarning dopusk va o'tqazishlari. 1 dan 500 mmgacha bo'lgan o`lchamlar uchun dopusklar va o'tqazishlar. O'tqazishlarni tanlash.**

**Dumalash podshipniklarining dopusklari va ularni o'tqazish.**


Reja:

1. Sirtlarning g`adir-budurligi.
2. Yuzalarning g`adir-budurligini o`lchash.
3. Yuza g`adir-budurligini bartaraf etish.

Ishlov berilgandan so`ng detallarning sirtlari ideal tekis bo`lmaydi. CHunki asboblarning kesish jarayonidagi notejisligi, ulardagi titrash va qirralarning hamda pardozlovchi jilvir toshlarning ishlashi natijasida turli xildagi taroqsimon izlar qoldiradi. Hamma tekistlikdagi sirtlarning birgalikda qurayotgan Yuza g`adir-budurligi deyiladi.

Sirtlarning g`adir-budurligi detallar ishining sifati ko`rsatkichlari yomonlashtiradi. qo`zg`aluvchan o`tkazishlarida g`adir-budurlik sirtlarning tez edirib ishdan chiqarishga olib keladi, chunki metall detallar ishlaganda taroqsimon chiziqlar ediriladi, metall uvoqlari moy bilan aralashadi va sirtlarning yoyilish protsessini tezlashtiradi. Preslab o`tkazishda g`adir-budurlik birikma mustaxkamligini kamaytiradi, chunki o`lchash vaqtida val o`lchami oshirilgan, teshik o`lchami esa kamaytirilgan bo`ladi va g`adir-budurlarning eyilishi natijasida birikma tarangligi bo`shashadi. Sirtlarning g`adir-budurligi birikmalarning germetikligini va zanglashga chidamlilagini yomonlashtiradi.

Sirt g`adir-budurligini o`rganish uchun quyidagi chizmaga murojat qilamiz.



**10-rasm. Ishlangan sirtning g`adir-budurligi.**

$$R_z = \frac{(h_1 + h_3 + \dots + h_9) - (h_2 + h_4 + \dots + h_{10})}{5}$$

$R_a$  va  $R_z$  kattaliklarning chegaraviy qiymatlari standartlashtirilgan (GOST 2789-59). Yuza g`adir-budurligi detallarning ishlash usuliga bog`liq bo`ladi. Sirt g`adir-budurligi aniqlik klassiga ko`ra 14 klassga bo`linadi;

1-3 klass- xomaki yonuv kengaytirish, randalash, diametri 15 millimetrdan katta bo`lgan teshiklarni parmalash;

4-5 klasslar – yo`nish, randalash, chtsyandagi teshikni yo`nib kengaytirish, frezalash, tish frezalash va randalash, plashka bilan rezba qirqish;

5-9 klasslar -(7-klassdan boshlab) yassi va doiraviy jilvirlash;

7-9 klasslar –ichki jilvirlash;

7-10 klasslar – jilolash va protyashkalash;

10-13 klasslar –dovodka;

14-klasslar – xoninglash sherst, jun materiallaridan tayyorlashda charxlardan foydalanish;

Sirt g`adir-budurligini klassini tanlashda konstruktor shuni xisobga olish kerakki, sirt g`adir-budurligi talab ortgan sari ishlash qiyinlasha boradi.

Yuzalarning g`adir-budurligini o`lchash uchun shtativ yordamida soat tipidagi indikatoridan foydalanamiz. Soat tipidagi indikatorning shkalalari noldan chap yoki o`ng xarakatlanishi biz chizmada ko`rsatgan profildagi eng do`nglik va eng quyi botiqlikning chegaralarini ko`rsatiladi. SHakllar bo`yicha qiymatlar olinadi. Albatta bu qiymatlar soat strelkasi bo`yicha va soat strelkasiga teskari yo`nalish xolatidagi indikator ko`rsatgan shkala qiymatlari ajratib olinadi. SHulardan notekistlik balandligi aniqlanadi.

**2-usul.** Bu usul sirtlarning sifati baxolashning eng ko`p tarqalgan usullaridan biri namunaviy sirtlarga solishtirish usuli. Sirtning ishchi namunalari standartlashtirilgan bo`ladi. Ya`ni 1-14 klassga qadar aloxida-aloxida plita shaklida

beriladi. Namunalar ishlanish turiga qarab komplektlanadi va qo`llaniladigan materialiga qarab to`plamlar g`ilofga joylashtiriladi.

G`adir-budurligi 7-10 klassdan yuqori ikki sirtni solishtirishda ko`z ortiqcha charchamasligi uchun, shuningdek, odam ko`zining ko`rish imkoniyatini oshirish maqsadida lupadan foydalanish tavsiya etiladi.

Sirtning g`adir-budurligini aniq baxolash uchun taqo`oslash mikroskoplari qo`llaniladi, g`adir-budurlik mio`dorini mikrometrlarida aniqlashda turli xil mikroskoplar (interferentsion, ikkilangan) va kontakt uchli asboblar qo`llaniladi.

Ishchi namunalarni attestatsiya qilishda va detallarda muhim sirlarning notekisligi balandliklarini fotosuratga olishda interferometr deb ataladigan asbob qo`llaniladi. Bu asboblarning modeli MII-4 yoki MII-11 bo`lishi mumkin. Bu asbobda tozalik klassi 10 dan 14 gacha bo`lgan sirtning g`adir-budurligini o`lchash mumkin.

Kontakt uchli asboblarga profilometr va profilograf deb ataladigan asboblar kiradi.

Profilometrlar  $R_a$  sirt profilining o`rtacha arifmetik og`ishini bevosita ko`rsatish uchun, profilograflar esa sirt profilini profilogramma ko`rinishadi yozish uchun mo`ljallangan.

Prujinali asboblar 4 xil modelda chiqariladi: GOST 2789-59 bo`yicha 11-va 12- klass uchun bo`lim qiymati 0,0001 mm bo`lgan 01IPSH; 8,9 va 10-klass uchun bo`lim qiymati 0,0002 mm bo`lgan 02IPSH; 6 va 7-klass uchun bo`lim qiymati 0,001 mm bo`lgan IPSH; 4 va 5-klass uchun bo`lim qiymati 0,002 mm bo`lgan 2IPSH.

#### «Aqliy hujum» Yuzasidan savollar

1. Sirtlar necha xil bo`ladi?
2. Eyilishi bilan edirilish farqini ayting?
3. Amaliy mashgulotlarda Yuza tekisligini qanday aniqlaymiz?
4. O`rtacha arifmetik qiymatni toping, uni qanday amalga oshiriladi?

Tayanch so`z va iboralar: Sirt, klass, standart, g`adir-budurlik, press, asboblar tekisligi, detal, yassi sirt, profil, sistema, yo`nish, randalash, Yuza, do`nglik, notekislik, chuqurlik.

Adabiyot

[1] 35-47 b

#### Mustaqil ish uchun topshiriqlar.

1. Mikrometr yordamida Yuza g`adir-budurligini aniqlang.
2. O`rtacha notekislik balandlik va o`rtacha arifmetik og`ishini anig`lang.
3. Yuzalarni bir-biriga qiyoslab solishtirish orqali o`rganing.

Savollar:

1. Yuza g`adir-budurligi deb nimaga aytildi?
2. Sirtni g`adir-budurligini o`rganish qanday aniqlanadi?
3. Yuza g`adir-budurligi detallarning ishlash usuliga qanday bog`liq bo`ladi?
4. Yuza g`adir-budurligi qanday aniqlanadi?

**8-MAVZU:Burchak o`lchamlari va konussimon birikmalar uchun dopusklar. Konus birikmalarga tegishli dopusklar va o`tqazishlar. Burchaklarni nazorat qilish metodlari va vositalari. Konuslarni nazorat qilishning bilvosita metodlari. Konuslarni kalibrler bilan nazorat qilish.**

Reja:

1. Burchak o`lchamlari va ulardagi dopusklar.
2. Konussimon birikmalardagi dopusklar va o`tqazishlar.
3. Burchaklarni kontrol qilish metodlari va vositalari.
4. Konuslarni kontrol qilishdagi bilvosita metodlar.
5. Kalibrler bilan konuslarni kontrol qilish.

Burchakning o`lchov birligi. Burchakning o`lchov birligi gradusdan iborat bo`lib, u aylananing uch yuz oltmishdan bir ( $1/360$ ) bo`lagiga teng. Gradus ° belgi bilan belgilanadi va 60 minutga bo`linadi , minut esa 60 sekundga bo`linadi. Minut va sekund mos ravishda ‘ va ’’ tarzida belgilanadi (masalan., 60 sekund 60” bilan belgilanadi). Burchaklarni o`lchashda ko`p yoqli prizmalar etalon bo`lib xizmat qiladi. Burchaklari yuqori aniqlikda bajarilgan har xil (6 yoqli, 8 yoqli, 12 yoqli) ko`pyoqlar ko`rinishidagi namunaviy o`lchovlar shu ko`pyoqli prizmalarga taqqoslab tekshiriladi.

Xalqaro birliklar sistemasi SI da burchaklarni o`lchashning qo`shimcha birligi sifatida radian belgilangan. Radian deganda doiranining ikki radiusi orasidagi burchak tushuniladi, ular orasidagi yoyning uzunligi radiusga teng. Bir gradus

$$\frac{\pi}{180} = 0,01745329 \text{ rad ga teng.,}$$

bir radian esa  $57^{\circ}17'44,8''$ .

Radian qo`shimcha birlik bo`lib, bevosita burchaklarni o`lchash uchun o`rgatilgan bo`lmay, asosan SI da nazarda tutilgan qator hosilaviy birliklarni hosil qilish uchun o`rnatilgan.

Normal burchaklar. Gradus, minut, sekundlarda ifodalangan burchak o`lchovlari detallarning chizmalarida ko`p tarqatilgan. Turli burchaklarning nominal qiymatlari sonini kamaytirish maqsadida GOST 8909-59 ga muvofiq detallarda burchaklarning uch qator nominal qiymatlari qo`llaniladi. Buni «normal burchaklar» deb ataladi. Birinchi qatorga quyidagi burchaklar kiradi:  $0^{\circ}; 15^{\circ}; 30^{\circ}; 45^{\circ}; 60^{\circ}; 90^{\circ}; 120^{\circ}$ . Bu burchaklarning qiymatini birinchi navbatda ishlatish kerak.

3-qatorga nisbatan ba`zi afzalliklarga ega bo`lgan 2-qator burchaklar 1-qatorning hamma burchaklarini va qo`shimcha ravishda quyidagi burchaklarni o`z ichiga oladi:  $30'; 1'; 2'; 3'; 8'; 10'; 20'$  va  $75^{\circ}$ .

Uchinchi qatorga birinchi va ikkinchi qatorning hamma burchaklari va quyidagi qo`shimcha burchaklar kiradi.:  $15'; 45'; 1^{\circ}30'; 4^{\circ}; 6^{\circ}; 7^{\circ}; 9^{\circ}; 12^{\circ}; 18^{\circ}; 22^{\circ}; 25^{\circ}; 35^{\circ}; 40^{\circ}; 50^{\circ}; 55^{\circ}; 65^{\circ}; 70^{\circ}; 80^{\circ}; 85^{\circ}; 100^{\circ}; 110^{\circ}; 135^{\circ}; 150^{\circ}; 180^{\circ}; 270^{\circ}; 360^{\circ}$ .

3-qatorning qo'shimcha burchaklari qiymatini zarur bo'lgan hollardagina ishlatish tavsiya etiladi.

Burchak o'lchamlariga tegishli dopusklar. Burchak o'lchamlariga doir standartlarda 10 xil: 1,2,3 va x.k. 10 gacha aniqlikdagi burchaklarga tegishli (aniqlikning kamayish tartibida) dopusklar ham ko`rsatilgan.

Har bir aniqlik darajasi uchun chegaraviy og`ishlar nazarda tutilgan. Bular ± ishorali burchaklar kattaligida berilgan.

Aniqlik darajalarida burchak kichik tomoni yoki konus yasovchisining uzunligi L intervalining chetki qiymatlari uchun yana chiziqli kattaliklarida (mikrometrarda) belgilanadigan chetlashishlar ham nazarda tutilgan. Burchak dopuski burchak birliklarida δ bilan, chiziqli kattaliklarda dopusk esa α bilan belgilanadi.


Burchak kattaliklaridagi dopusk burchakning kichik tomoni uzunligiga bog`liq; uzunlik L qanchalik kichik bo`lsa, burchakka ishlov berish dopuski shunchalik katta bo`ladi. Bu quyidagicha tushuntiriladi: ba'zi sirtning uzunligi qancha katta bo`lsa, detalni stanoka o`rnatish shunchalik aniq bo`ladi, binobarin, ishlov berishdagi xatolik ham kam bo`ladi.

Konussimon birikmalardagi dopusklar va o`tqazishlar.

Konussimon sirlarning qo'llanishi. Mashinalar, asboblar va mexanizmlardagi detallarning konussimon sirlari har xil vazifaga ega. Masalan, konussimon sirtlar quyidagi hollarda qo`lalniladi:

1. qo`zg`almas (press tipidagi harakatsiz) birikmalarda katta zo`riqishdagi uzatmalarni ta'minlashda.
2. Germetiklikni ta'minlashda gaz-suv va moy o'tkazmaydigan qo`zg`almas birikmalarda.
3. Sirg`anib ishqalanish podshipniklari tipidagi qo`zg`aluvchan markaziy birikmalarda.
4. Ayrim detallarni biriktirish uchun mo`ljallangan shtiftlarda, boltlarda, shkvornyalarda.
5. Dumalab ishqalanish bo`ladigan rolikli konussimon podshipniklarda va b. qator hollarda.

Silindrik birikmalarga qaraganda konussimon birikmalarning (11-rasm) afzalliklari bor: detallarni o`qqa nisbatan siljitish yo`li bilan zazor yoki natyag (taranglik) kattaligini rostlash mumkin; natyagli qo`zg`almas birikmada uzellarni tez-tez tarqatish va yig`ish mumkin; konussimon birikmalar detallarni yaxshi markazlash va germetik qilishga imkon beradi.



**11-rasm. Konus birikmaning sxemasi.**

Konuslarni hisoblashda (raschytot qilishda) va kontrol qilishda qulay bo`lishini nazarda tutib, ishlab chiqarishda 1 iyul 1969 yildan boshlab kiritilgan yangi standartlarda (GOST 2848-67) konuslikka dopusk burchak o`lchovida emas, balki konus uzunligi 100 mm bo`lganda chiziqli kattaliklarda (mikrometrlarda) diametrler farqi  $D-d$  ga tegishli dopusk olinadi.

$$K = \frac{D - d}{L}$$


bo`lgani uchun konus uzunligi doimiy bo`lganda, ya`ni u 100 mm ga teng bo`lganda, konuslik dopuski  $\delta_k$  diametrler farqi dopuskiga, ya`ni  $\delta(D-d)$  ga bog`liq bo`ladi:

Burchaklarni kontrol qilish metodlari va vositalari.

Burchaklarni kontrol qilish uchun turli xil vositalar qo`llaniladi: ugolnik (burchaklik)lar, burchak o`lchovlari, konus kalibrлari, burchak o`lchagichlar, mexanik va optik bo`lish kallaklari, goniometrlar, sinus chizg`ichlar va b.

Ugolniklar, kalibrлari va burchak o`lchovlari bikr kontrol instrumentlar bo`lib, ular ma`lum burchak qiymatlariga ega. Ugolniklar yaxlit (12-rasm, a) va ajralib chiqadigan bo`ladi, (12-rasm, b). Burchak o`lchovlari-plitkalar (12-rasm, v) to`plam qilib shunday mo`ljal bilan chiqariladiki, uch-besh o`lchovdan  $10^\circ$  dan  $90^\circ$  gacha bo`lgan bloklarni yasash mumkin bo`ladi; ularni 5 mm qalinlikdagi plitkalar ko`rinishida tayyorlab, burchagi  $\pm 10''$  (1-klass) va  $30''$  (2-klass) anqlikda bo`ladi. Ularda bitta ishchi burchak yoki to`rtta:  $\alpha, \beta, \delta, \gamma$  ishchi (o`lchashda ishlatiladigan) burchak bo`ladi.

Burchak o`lchovlarini asosan burchaklarni o`lchash vositalarini tekshirishda va graduslashda qo`llaniladi, shu bilan birga mashina detallarida burchaklarni bevosita o`lchash uchun ham qo`llanilishi mumkin.



**12-rasm. Dopusklar maydonining joylashuvi: a-erkin o'tqazilganda, b-presslab o'tqazilganda**

O'tkir ( $90^\circ$  dan kichik) burchakni o'lchashda lineyka 5 ga qo'shimcha ugolnik 6 biriktiriladi.

Noniusning nol shtrixi graduslar sonini, limb 2 ning shkalasi shtrixi bilan mos tushgan nonius shtrixi esa minutlar sonini ko'rsatadi.

O'tmas ( $90^\circ$  dan katta) burchaklarni o'lchashda qo'shimcha ugolnik 6 kerak emas, lekin bunda shkalanining ko'rsatishlari yana  $90^\circ$  ni qo'shish shart.


Burchak o'lchagichning qisish richagi bosilgandan keyingina sanoq (hisoblash) boshlanadi. Burchakni o'lchashda burchak o'lchagichdan to'g'ri foydalanish kerak.

Konuslarni kontrol qilishdagi bilvosita metodlari.

Ishlab chiqarishda ko'p qo'llaniladigan va aniqroq o'lchaydigan metod bilvosita o'lchashlar metodidir. Bunda konuslarning burchagi bevosita o'lchanmasdan, balki u bilan geometrik bog'liq bo'lgan chiziqli o'lchamlari o'lchanadi.

Chiziqli o'lchamlarining qiymati topilgandan keyin burchaklarning qiymati ham hisoblab topiladi.

Sinus chizgichi yordamida o'lchash. Asbobsozlik sanoati ishlab chiqaradigshan sinus chizgichi uch tipga bo'linadi. Itip-tayanch plitasiz, II tip-tayanch plitali, III tip-ikkita tayanch plitali va qo'sh og'ishli.



**13-rasm. Qattiq o'lchash vositalarining turlari. a-yaxlit burchaklik, b-birikma tarzida, v-burchak o'lchagich**

Ichki konuslarni o`lchash. Ichki konusning burchagi ikkita sharcha va chuqurlikni o`lchagich yordamida aniqlanadi. Bunda sharchalarning diametri oldindan ma'lum bo`lishi kerak. (13-rasm)

Vtulka 1 ni plita 2 ga qo`yiladi, kichik d o`lchamli sharcha konus ichiga qo`yiladi va mikrometrli yoki indikatorli chuqur o`lchagich yordamida  $\ell_1$  o`lcham o`lchanadi, so`ngra katta D o`lchamli sharcha konus ichiga qo`yiladi va  $\ell_2$  o`lcham o`lchanadi. Bu metod bilan o`lchashda vtulkaning konusligi quyidagi formula bo`yicha aniqlanadi.


$$\sin \alpha = \frac{2(D-d)}{2(\ell_1 - \ell_2) - (D-d)}$$

So`ngra trigonometrik fnuksiyalar jadvali bo`yicha  $\alpha$  burchakning qiymati topiladi.

Kalibrler bilan konuslarni kontrol qilish.

Kalibrler bilan kontrol qilish (14-rasm) tekshirilayotgan detalga qarab nisbatan kalibrning o`qining siljitimini metodi bo`yicha baza-masofaning og`ishini tekshirishga asoslangan.

Tashqi tekshirishda vtulka (14-rasm, a) yoki skoba (14-rasm, v) kalibr bo`lib xizmat qiladi, ichki konuslar uchun probkalar (14-rasm, b) xizmat qiladi. Probkaning bir uchi baza-masofa dopuski  $\delta_m$  ga teng kattalikda keltirilgan.



**14-rasm. Kalibrlangan roliklar.(a-va b), halqalar (v) va shariklar (g) yordamida konus burchagini o`lchash sxemasi.**

Tekshirilayotgan konussimon val va vtulkaning toretsi (uchi) kalibr bilan tutashganda kalibrdagagi kertik tekisliklardan tashqariga chiqmasligi lozim. Agar bu shart buzilsa, u holda detalning konus burchagi belgilangan chegaradan (dopuskdan) chiqadi. Agar baza-masofa konusning katta asosida ( $D$  bo`yicha) oliban bo`lsa, u holda kalibrarda ikkita chiziq chiziladi. Bu chiziqlarning orasi baza-masofa dopuski  $\delta_m$  ga teng bo`ladi.

Agar vtulka konusning toretsi  $D$  tomonidan kalibr-probkadagi chiziqlar orasida bo`lsa, u holda vtulka konusi to`g`ri qilingan bo`ladi.

«Aqliy hujum» Yuzasidan savollar

1. Burchak turlarini sanang.
2.  $90^{\circ}$  burchak berilgan. Ushbuni soat strelkasi yo`nalishi buyicha  $60^{\circ}$  ga oshirsak qanday burchak hosil bo`ladi?
3. Konus deb nimaga aytildi?

Tayanch so`z va iboralar: burchak, gradus, dopusk, konus, kalibr, o`lcham, kontrol qilish, minut, sekund.

Adabiyot

[1] 145-159 bob

Mustaqil ish uchun topshiriqlar

1. Buyum burchaklarini aniqlang.
2. Burchak o`lchagich va transformator ishi bilan tanishing.
3. Burchak o`lchamlariga tegishli o`lchamlarni aniqlang.

Savollar

1. Burchak o`lchovlarining dopuski uchun nechta aniqlik darajasi belgilangan?
2. Nima uchun burchakning kichik tomonining uzunligi ortishi bilan burchakka tegishli dopusk kamayadi?

Baza-masofa deb nimaga aytildi?

## **9-MAVZU:Rez'bali birikmalarga tegishli dopusklar va ularni nazorat qilish.**

**Biriktirish rez'balariga qo'yiladigan talablar. Metrik rez'bali birikmaning profili. Rez'bali birikmaning dopusklar maydonining joylashish sxemasi.**

**Rez'bali birikmalarda o'zaro almashuvchanlik. Rez'baning ayrim parametrlarini nazorat qilish vositalari.**

Reja:


1. Silindrik mahkamlash rezbasiga tegishli dopusklar.
2. Rezbali kalibrlar bilan kontrol qilish.
3. Rezbeni ayrim parametrlarini kontrol qilish vositalari.

Mashinasozlikda turli : silindrik, konus, trapetsiyasimon va b. xil rezbali birikmalar qo`llaniladi. Bu rezbalar qator umumiylar belgilarga ega, lekin rezbasi eng ko`p tarqalgani uchburchak shaklidagi profilga ega bo`lgan silindrik rezbali mahkamlash birikmalaridir; shuning uchun dopusklar kontrol qilish metodlari va vositalari ham shularga bog`lab ko`rib chiqiladi.

Silindrik rezbaning profili (15-rasm, a)teng tomonli uchburchakdan iborat bo`lib, uchidagi burchak  $\alpha \geq 60^{\circ}$ . Rezbaning tashqi rezba (bolt) va ichki rezba (gayka) uchun umumiylar bo`lgan asosiy parametrlari: tashqi diametr  $d$ , ichik diametr  $d_1$ , o`rta diametr  $d_2$ , rezba qadami  $S$ , profil burchagi  $\alpha$ , rezba o`ramining (uchburchakning) tomoni va rezbaning o`qiga o`tkazilgan perpendikulyar orasidagi burchak  $\frac{\alpha}{2}$ , o`ramning nazariy balandligi  $N$ , rezba o`ramining ish balandligi  $h$ .


O`rtacha diametr deyilganda rezba bilan o`qdosh shunday (faraziy) silindrning diametri tushuniladi, bu silindr 15-rasm, a da o`ramning a-b harflar

bilan chegaralangan, yo`g`onligi b-v harflar bilan chegaralangan chuqurning kengligiga teng qilib bo`ladi.



15-rasm. Konus kalibrлari: a-vtulkalar, b-probkalar, v-skobalar

Rezba qadami yonma-yon ikkita o`ramning parallel tomonlari orasidagi masofa bo`lib, rezbaning o`qiga paralleldir.



16-rasm. Silindr rezba.a-bolt va gayka uchun umumiy bo`lgan rezbaning profili,b-rezba dopuskлari maydonlarining joylashish sxemasi.

Umumiy ahamiyatga ega bo`lgan rezbalar uchun 4 ta aniqlik klassi nazarda tutilgan (1, 2, 2a va 3), bularni tanlashda rezbaning vazifasi, ya`ni ish sharoiti va tayyorlash texnologiyasi hisobga olinadi.

Rezbalarini belgilash. Yirik qadamli metrik rezba M harfi bilan belgilanadi, shu bilan birga tashqi diametrining kattaligi va aniqlik klassi ham ko`rsatiladi, masalan, M64 klass 2 kabi. Mayda qadamli rezbalarini belgilashda qadamni ham qo`shimcha ravishda ko`rsatish qabul qilingan. Masalan, M64X2 kl. 2a. Rezbali kalibrler bilan kontrol qilish. Rezbali detallarning o`zaro almashinuvchanligini kontrol qilishning kompleks metodlari-rezbali kalibrler bilan kontrol qilish orqali amalga oshiriladi. Gaykalarni tekshiradigan rezbali probkalar va boltlarni tekshiradigan rezbali halqlar tutashtiruvchi detallarning prototiplaridir.

Bular bo`yicha qabul qilingan rezbali detallar o`zaro almashinuvchanlikni to`la ta'minlaydi. Rezbali kalibrarning turlari va ularni tayyorlash dopusklari GOST 1623-61 (diametri 1 dan 600 mm gacha bo`lgan gaykalar uchun) va GOST 3199-60 (diametri 1 mm dan kichik bo`lgan rezbalar uchun) da berilgan.


Gaykalarni (ichki rezbalarini) tekshirish uchun ishchi kalibrler. Gaykalarni kontrol qilish uchun rezbali probkalar ishchi kalibrler hisoblanadi. Bu probkalar ikki xil: o`tuvchi PR va o`tmaydigan NE bo`ladi. (16-rasm, a). PR probkasining gaykaga buralish kirishi o`rta diametrining belgilangan eng kichik chegaraviy o`lchamdan ortib ketmaganligini bildiradi. Gayka qadami va rezba profil burchagida yo`l qo`yilgan xatoliklar o`rta diametrini tegishlicha orttirish bilan yo`qotilgan, gaykani tashqi diametri bolning tashqi diametridan kichik emas.

Kontrol natijalariga qadam va profil burchaklari xatosi ta`sirini kamaytirish uchun o`tmaydigan kalibrler kam sonda to`la o`ramlarga ( $2\frac{1}{2}$ -3) ega bo`ladi. (16-rasm, a). O`tmaydigan probka rezbasining bunday profili o`rta diametrini tekshirishga moslashtirilgan bo`lib, qisqartirilgan probka deb ataladi.

NE probkasi odatda gaykaga buralib kirmasligi kerak, ammo rezba uzunligi normal bo`lganda detalning ikkala toretslari bo`yicha ikki marta aylantirishga yoki ikki tomon bo`yicha buralishlar yig`indisi 2 martaga etguncha yo`l qo`yiladi. Gayka kalibrleri uchun rezbalarning barcha parametrlari ( $d$ ,  $d_1$ ,  $d_2$ ,  $S$  va  $\delta$   $\alpha/2$ ) bo`yicha dopusklar aniqlangan. Probka kalibrleri rezbalarning turli parametrlari bo`yicha universal o`lchash vositalari bilan tekshiriladi.

Boltlar (tashqi rezbalar) uchun ishchi va kontrol kalibrler.

Rezbali o`tuvchi va o`tmaydigan halqlar hamda rezba skobalari (18-rasm, b, v) boltlar uchun ishchi kalibrler bo`ladi. Ishchi kalibrarning o`zini tekshirish uchun 6 xil rezbali probkalar bor, ular quyidagicha belgilanadi: K-PR, K-NE, U-PR, U-NE, K-I va KI-NE, K-PR va K-NE probkalar bilan o`tadigan va o`tmaydigan rezba halqlar tekshiriladi, K-PR probka rezbasi to`la profilli emas. Bu kontrkalibrler ular bilan tekshirilayotgan halqalarga qisman buralib kiradi va har qanday holda ham probkalarning rezbalar ular bilan tekshirilayotgan halqalarning qarshi tomonidan buralib chiqmasligi kerak. U-PR va U-NE probkalar bo`yicha rezbali skobalar rezbaning berilgan o`lchamiga o`rnataladi, bu probkalar rezbalarning to`la profiliga ega. KI-NE probkasi bilan o`tmaydigan halqalarning va skobalarning to`la eyilganligi aniqlanadi. Bu probka to`la rezba profiliga ega.



17-rasm. Ishchi rezbali kalibrlar:a-probkalar, b-halqalar, v-skobalar

Rezbalarini kontrol qilishni mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish. Rezbali detallar gayka, bolt, shpilka va boshqalar shaklida, odatda, ko`plab tayyorlanadi, sha sababli rezbalarning sifatini kalibrlar yordamida dastlabki kontrol qilish usuli katta mehnat qiladigan va zerikarli ishdir.

Zavodlarda gayka, bolt, shpilka va vintlarni tekshirish ishini tezlashtirish uchun rezbali kalibrlarning mexanik ravishda aylanishlarini ta'minlovchi moslamalar-gayka probkalari yoki bolt halqlari ishlataladi. Bu holda tekshirilayotgan detallar (gaykalar, boltlar va b.) qo'l bilan aylanayotgan kalibrlarga yaqin keltiriladi.

Bolt va vintlarning tashqi rezbalarini kontrol qiluvchi avtomat sxemasi 17-rasmida ko`rsatilgan.

Rezbali detallar 1 tirkish tipidagi bunkerdan o`lchash pozitsiyasiga donalab uzatiladi va ular 2 va 3 plankalar orasida dumalatiladi, bu plankalarga rezba profillari berilgan. Kontrol qilinayotgan detalning o`rta diametri o`lchamiga qarab planka 2 vertikal yo`nalishda, planka 3 esa gorizontal yo`nalishda harakatlanadi. Planka 3 ikkinchi uchi bilan datchik 4 ning o`lchash uchi bilan kontaktda turadi. Detallarni kontrol qilish oldidan planka 3 holatini hamda datchikni sozlashlar ikkita namuna detali o`lchamlarning chegara qiymatiga ega bo`ladi. Agar tekshirilayotgan detalning o`lchami belgilangan o`lchamlardan chetlashgan bo`lsa, u holda planka 3 elektrokontakt qiluvchi datchik 4 ga ta'sir qiladi, bu datchik elektron relega impuls beradi, natijada detal brak yashigiga otilib

tushadi. Avtomatning ish unumi soatiga 1500 detalga teng. Avtomatlar yaroqli detallarni hisobga oluvchi avtomat schyotchiklar bilan ta'minlangan.

Rezbaning ayrim parametrlarini kontrol qilish vositalari.

Tashqi rezbani kontrol qilish. Rezbaning ayrim parametrlarini o'lchhashda rezbalarni maxsus o'rta diametrini o'lchaydigan vstavkalari bo`lgan rezba mikrometrlari ishlataladi, bu pristavkalarning o'lhash chegaralari 0-25 mm, 25-50 mm va x.k 25 mm dan ortib boraveradi (350 mm gacha); rezbaning o'rta diametrini bilvosita o'lhash uchun simlar va roliklar ishlataladi, diametri 10-30 mm bo`lgan tashqi rezbalarni kontrol qilish uchun sanoq qurilmali rezbali skobalar ishlataladi; qadami 0,4 dan 6 mm gacha bo`lgan rezbalarni kontrol qilish uchun odimo'lchagichlar va indikator asboblar ishlataladi.

Tashqi rezba diametrini, qadamini va profil burchagini yarmini olish uchun instrumental mikroskoplar ishlataladi. Bu mikroskoplar uch xil tipda: kichik modelli IT, mukammallashtirilgan kichik modelli MMI va proeko`ion va fotomoslamalar bilan jihozlangan katta modelli BMI ishlab chiqariladi.

Ichki rezbani kontrol qilish. Slepka usuli ichki rezbaning diametri, qadami va profil burchagi yarmini o'lhashning laboratoriya usulidir. Ichki rezbada aylanasining  $\frac{1}{3}$  sektoricha oson eriydigan qotishmaga rezba profilingning izi olinadi va shundan keyin rezba va shundan keyin rezba parametrlari mikroskopda o'lchanadi. Ammo bu usul juda ko`p mehnat talab qiladigan murakkab va etarlichcha aniq bo`limgan usuldir.

qadami 0,25 dan 2mm gacha, o'rta diametri 18 dan 98 mm gacha bo`lgan rezba parametrlarini o'lhash uchun maxsus rezbali mikroskop IZK0-59 ishlataladi, bu mikroskop universal mikroskoplarga moslama sifatida tayyorlanadi. O'lchamdagи xatoliklar qadam bo'yicha  $\pm 0,002$  mm dan, profil burchagi yarmi bo'yicha  $\pm 10'$ dan, o'rta diametr bo'yicha  $\pm 0,003$  mm dan oshmaydi.

#### «Aqliy hujum» Yuzasidan savollar

1. Rezbalarning qo'llanilish sohalarini aytинг.
2. SHpilka bilan boltning farqi nimada?
3. Ichki va tashqi rezbalar qanday asboblarda ochiladi?

Tayanch so`z va iboralar: rezba, silindr, kalibr, rezbali kalibr, kontrol qilish, tashqi rezba (bolt), ichki rezba (gayka), rezbalarni tekshirish.

#### Adabiyot

[1] 174-190 b

Mustaqil ish uchun topshiriqlar

1. Tashqi rezbalarni sifatini kalibrлar yordamida aniqlang.
2. Ichki rezbalar sifatini kalibr yordamida aniqlashni o'rganing.
3. Rezbadagi sidirilish sabablarini aniqlang.
4. Rezbalarni kontrol (nazorat) qilishni mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish usullarini o'rganing.

## Savollar

1. Rezbaning keltirilgan o`rta diametri deyilganda nima tushuniladi?
2. Bolt va gaykaning rezbalarini kontrol qilish uchun qanday ishchi kalibrlardan foydalaniladi?
3. O`tadigan va o`tmaydigan kalibrarning rezbali qismi konstruktsiyasida qanday farq bor?

## **10-MAVZU:Tishli g`ildiraklar va uzatmalarga tegishli dopusklar. Tishli g`ildiraklarning turlari va asosiy elementlari. Tishli g`ildiraklar va uzatmalarni nazorat qilish vositalari.**

Reja:

1. Tishli g`ildiraklarning va uzatmalarning asosiy elementlari.
2. Tishli uzatmalarda aniqlik normalari.
3. Tishli g`ildiraklar va uzatmalarni kontrol qilish.


Tishli uzatmalar mitti soatlardan tortib odimlovchi ekskavatorlargacha bo`lgan turli mashinalarda ishlatiladi. Tishli uzatma va uning shaklini hosil qiluvchi g`ildiraklar o`qlarining qanday joylashishiga qarab, uzatmalar silindrik, konussimon va chervyakli uzatmalarga bo`linadi. Silindrik uzatmalar eng ko`p tarqalgan uzatmalardandir. Bu uzatmalarning tishli g`ildiraklari murakkab detallardan iborat bo`lib, ularning tishlari markazga nisbatan teng masofada joylashgan. Tishlarning yon sirtlari evolventa deb ataluvchi chiziq hosil qiladi.

Tishli uzatmada turli xil elementlar ajratiladi, bu elementlar g`ildiraklarni konstruktsiyalashni, texnologik protsessning to`g`riligini kuzatib turishni, kontrol qilishning usullari va vositalarini tanlashni osonlashtiradi. 18-rasmda o`qqa perpendikulyar tekislikda tishli ishlashning elementlari ko`rsatilgan.

Bundan tashqari tishli uzatmalarda yana qo`yidagilar ajratiladi:

Bo`linuvchi aylana-o`qi g`ildirak o`qi bilan bir bo`lib, tishlarni teng ikkiga bo`lib o`tuvchi tasavvur qilinadigan silindrning aylanasi.

Boshlang`ich aylana-tasavvur qilinadigan aylana bo`lib, bu aylana bo`yicha ikkita tasavvur qilinadigan aylanayotgan silindr obkatkasi sodir bo`ladi va uning o`lchami markazlar orasidagi masofaga qarab o`zgarib turadi. Boshlang`ich va bo`luvchi aylana tushunchalarni aralashtirib yubormaslik kerak. Bo`luvchi aylana g`ildirakda bo`ladi va undan sanoqlar olishda foydalaniladi, boshlang`ich aylana esa g`ildiraklar jufti ilashgandagina paydo bo`ladi.



### ***18-rasm. Evolvent ilashishning asosiy elementlari.***

Xususiy holda, agar markazlararo masofa bo`luvchi aylanalar radiuslari yig`indisiga teng bo`lsa, boshlang`ich aylanalar bo`luvchi aylanalar bilan bir xil bo`ladi (ustma-ust tushadi).

m modul deyilganda bo`luvchi aylana diametrida bitta tishga to`g`ri keladigan mm hisobidagi uzunlik tushuniladi, ya`ni:

$$m = \frac{d_\partial}{z} MM.$$

Modul tishli qildiraklarni xarakteristikalash uchun xizmat qiladi: odatda tishli g`ildirakning va ilashishning asosiy o'lchamlarini shu xarakteristika orqali ifodalanadi, masalan, bo`luvchi diametr  $d_{dqm'z}$ . Modullar qatori standartlashtirilgan (GOST 9563-60), moduli 1 mm dan kichik bo`lgan uzatmalar kichik modulli uzatmalar deyiladi. Uzatish nisbati i-etakchi g`ildirak burchak tezligi  $\omega_1$ ning etaklanuvchi g`ildirakning burchak tezligi  $\omega_2$  ga nisbatidir, u g`ildirak tishlarining soniga teskari proportsional va har boim birdan katta

$$i = \frac{\omega_1}{\omega_2} = \frac{z_2}{z_1}$$

bo`ladi.

#### Tishli uzatmalarda aniqlik normalari.

Tishli g`ildiraklarning vazifalari ishlatilish shatrlariga qarab, ularga qo`yiladigan talablar turlichal bo`ladi.

Sanoq sistemalarida, bo`lish mashinalarida, vint qirqish va tish qirqish stanoklari va boshqalarda asosiy talab kinematik aniqlikka, ya`ni uzatish nisbatining to`la aylanishida doimiy bo`lishiga qo`yiladi. Katta tezliklarga, shuningdek, shovqinsiz (masalan, avtomashinalarda) uzatishga mo`ljallangan uzatmalarda asosiy talab ishning uzluksiz bo`lishiga qo`yiladi, ya`ni ilashishning har bir momentida uzatish nisbatining tebranishiga qo`yiladi. Turli xil chig`irlarda,

ko`tarish-transport mexanizmlarida, metallurgiya mashinalarida va b. ishlatiladigan uzatmalarda yon sirtlarning yaxshi yaqinlashishi talab qilinadi.

Barcha tishli g`ildiraklar tayyorlanish aniqligi bo`yicha 12 darajaga (klasslar o`rniga) bo`linadi: daraja nomeri qancha kichik bo`lsa, tayyorlanish aniqligi shuncha yuqori bo`ladi.

Standartlarda sonli chetlashishlar hozircha 3 dan 11 gacha bo`lgan darajalar uchungina belgilangan, 1,2 va 12-darajalar uchun dopusklar keyinchalik zaruratga qarab hamda g`ildiraklarni tayyorlash va kontrol qilish texnologiyasini hisobga olgan holda kiritiladi. Har bir aniqlik darajasi uchun mustaqil norma ko`rsatkichlarining 3 gruppasi nazarda tutiladi:

1. G`ildirakning kinematik aniqlik normasi.
2. G`ildirakning uzlusiz ishslash normasi.
3. Tishlarning kontakt normasi.

Kinematik aniqlik normalari tishli g`ildiraklarning aylanishida buralish burchagi to`la xatoligining kattaligini aniqlaydi hamda g`ildirakning, u to`la aylanganda uzatish nisbatining xatoligiga ta`sir qiladigan parametrлари va elementlariga qo`yiladigan talablarni o`z ichiga oladi.

g`ildirakning uzlusiz ishslash normalari g`ildirak aylanganda ko`p marta takrorlanadigan tishli g`ildiraklarning buralish burchagini to`la xatoligi tuzuvchilarini aniqlaydi. Ular g`ildiraklarning g`ildiraklar aylanganda ko`p martalab takroralanadigan uzatish nisbatining o`zgarishiga ta`sir qiluvchi parametr va elementlariga qo`yiladigan talablarni o`z ichiga oladi.

Kontakt normalari uzatmadagi g`ildiraklar tutashuvchi tishlarining yon sirtlari bir-biriga to`la jipslashishidan aniqlanadi. Ular tutashuvchi tishlar urinuvchi sirtlarning kattaligiga ta`sir ko`rsatadigan element va parametrlarga qo`yiladigan talablarni o`z ichiga oladi.

Tishli g`ildiraklar va uzatmalarni kontrol qilish.

G`ildiraklarni kontrol qiluvchi asboblarga qo`yiladigan talablar silindrik g`ildiraklarni kontrol qilish uchun GOST 5368-58 va GOST 10387-63 (kichik modulli); konussimon g`ildiraklar uchun GOST 9459-60 va GOST 11357-65 (kichik modulli); chervyakli uzatmalar uchun GOST 9867-61 kabi maxsus standartlarda belgilangan.

Aylanma qadamning to`plangan xatoligi  $\Delta_t$  turli asboblarda burchak limbi bilan taqqoslab tekshiriladi. Bu ish yo bo`lgich kallakkarda, yoki burchak limbalarini o`z ichiga olgan maxsus asboblar yordamida amalgan oishiriladi.

Radial terish  $e_0$  lar maxsus asboblar-bienimetrlar bilan kontrol qilinadi. g`ildiraklarni kontrol qilish uchun uni markazlarga o`rnataladi, shundan keyin tartib bilan tishlar orasiga  $40^\circ$  burchakli konus shaklidagi uchliklar kiritiladi.

Umumiy normal uzunligining tebranishi  $\Delta_0 L$  ni ikkita parallel o`lchagich tekisliklari bo`lgan turli asboblar (hatto shtangentsirkul) bilan kontrol qilish mumkin.

Profillarni tekshirish evolventaning to`g`riligini tekshirishdan iborat. Bu ish maxsus asboblar-evolventamer (evolventa o`lchagich) lar yordamida amalga

oshiriladi. Bu evolventamerlarda nazariy evolventa tiklanadi hamda g`ildirakning haqiqiy evolventasi bilan taqqoslanadi. Nazariy evolventani tiklashning eng sodda usuli, diametri tekshirilayotgan g`ildirakning asosiy aylanasi diametriga teng bo`lgan silliq disk bo`ylab lineykani obkatka qilishdan iborat.

O`lchash vaqtida baza uchun g`ildirakning tashqi diametri olinadi. Tish o`lchagich (zubomer)ni kontrol qilinayotgan o`lchamga o`rnatish uchun unga o`lchov roliklari o`rnataladi. Tish o`lchagich lablari induktorga nisbatan simmetrik vaziyatini saqlaydi, o`lchagich lablar, masalan, chervyakli frezaning reykalarini hosil qilgandek bo`ladi. Asbob nominal holatga maxsus roliklar bo`yicha sozlangandan keyin, u g`ildirakka o`rnataladi, agar tish yupqa qilingan bo`lsa, asbob g`ildirak o`qiga yaqin keladi, agar tish qalinroq qilingan bo`lsa, g`ildirak o`qidan uzoqlashadi.

#### «Aqliy hujum» Yuzasidan savollar

1. Uzatma nima?
2. Etaklovchi g`ildirakning diametri kichik bo`lib etaklanuvchi g`ildirakning diametri katta bo`lsa, aylanish harakati qanday uzatiladi?
3. Kinematika deganda nimani tushunasiz?

Tayanch so`z va iboralar: tishli uzatma, tishli g`ildirak, aniqlik normasi, tishli g`ildiraklarni kontrol qilish, zazor, aniqlik darajasi, silindrik uzatma, tishli uzatmalarini kontrol qilish, radial tepish, profil.

Adabiyot

[1] 174-190 bob

#### Mustaqil ish uchun topshiriqlar

1. Tishli uzatmalarning hisobini o`rganing.
2. Tishli uzatma parametrlarini aniqlang.
3. Tishli uzatmada radial tepishni o`rganing.
4. G`ildirakning tekis, uzlusiz ishlash me`yorini kuzating.

Savollar:


1. Tishli g`ildirakning sifatini baholash uchun qanday uch gruppera aniqlik normalari belgilangan?
2. Tishli g`ildirak va uzatmalarini tayyorlash uchun nechta aniqlik darajalari belgilangan?
3. Bo`luvchi aylana nimaning aylanasi hisoblanadi?

**11-MAVZU: SHponkali va shlitsali birikmalarning dopusklari.  
SHponkali birikmalarda dopusklar va o'tqazishlar. SHlitsali  
birikmalarni nazorat qilish kolibrleri.**

Reja:

1. SHponkali birikmalarda dopusk va o'tqazishlar.
2. To`g`ri yonli shlitsali birikmalarda dopusk va o'tqazishlar.
3. Evolventa shlitsali birikmalarning dopusklari.
4. SHlitsali birikmalarni kontrol qilish kalibrlari.

Vallarning qo`zg`almas birikmalari va turli detallarning (shkivlar, tishli g`ildiraklar va b.) teshiklari shponkalar va shlitsalar yordamida aylantirish momentlari bir valdan ikkinchisiga uzatiladi va yig`iladi. Mashinalar konstruktsiyalarida shponkalarning bir necha turi uchraydi, bulardan eng ko`p tarqalgani prizmatik shponkalardir (19-rasm). Bu shponkalarning dopusk va o'tqazishlari standartlashtirilgan (GOST 7227-58). SHponkalarni o'tqazish val sistemasida b kenglik bo`yicha amalgan oshiriladi.




**19-rasm. Prizmatik shponkalar.**

Val pazasi va vtulka pazasida shponka chetlashishlari o`zgarmas, o'tqazishning xarakteri esa pazalarning chegaraviy chetlashishlarini o`zgartirish bilan ta'minlanadi. SHponkalar kengligi bo`yicha V<sub>3</sub> yoki X<sub>3</sub> dopusklari bo`yicha tayyorlanadi. Vtulkalarning shponka kiradigan pazalari A<sub>3</sub> dopuski bo`yicha tayyorlanadi yoki standartda PSH<sub>1</sub> (shponkalar o'tkazish) kabi; val pazasi kengligi uchun PSH bilan belgilanuvchi maxsus dopusk bo`yicha ishlataladi. Val pazasi shponka o`tuvchi tipdagi o'tqazishga ega, vtulka pazali shponka esa sirpanuvchi yoki harakatlanuvchan dopusklarga ega.

SHponka va pazalarning boshqa parametrlari uchun ancha qo`polroq aniqlik klasslari belgilangan: ya`ni shponka balandligi h uchun V<sub>4</sub> bo`yicha, val va

vtulka pazalarining chuqurligi (19-rasmida t va  $t_1$  o'lchamlar) A<sub>5</sub> bo'yicha, paza uzunligi uchun esa V<sub>7</sub> bo'yicha belgilangan.

Katta quvvatlarning bir valdan ikkinchi valga uzatilishi bilan xarakterlanuvchi mexanizmlarda



*20-rasm. To'g'ri yonli shlitsali birikmalar.*

a-d bo'yicha markazlashtirish bilan, b-d bo'yicha markazlashtirish bilan, v-b bo'yicha markazlashtirish bilan shponkali birikmalar ancha mustahkam bo`lgan shlitsali birikmalar bilan almashtiriladi.

Bundan tashqari, shlitsali birikmalar bo`lganda ish vaqtida val bilan vtulka o'qlarining mos kelishi yaxshi ta'minlanadi, ya'ni detallarning yaxshi markazlashtirilgan birikmalari amalga oshiriladi. Mashinasozlikda shlitsali birikmalarning bir necha xillari ishlataladi, bulardan eng ko'p ishlataladigan to'g'ri yonli (20-rasm) va evolventa shlitsali birikmalardir.

To'g'ri yonli shlitsali birikmalarda dopusk va o'tqazishlar.

To'g'ri yonli shlitsali birikmalar uchta parametrdan, ya'ni tashqi diametr D, ichki diametr d va yon tomon blardan iborat. Markazlashtirishning aniqligi, ya'ni birlashayotgan detallar o'qlarining val va vtulka shlitsalari o'qlari bo'yicha mos kelishi (ustma-ust tushishi) D yoki d bo'yicha o'lchamlarni aniq tayyorlash hisobiga ta'minlanadi. Agar o'tqazish uchun asosiy parametr sifatida D qabul qilingan bo`lsa, (20-rasm, a), u holda d (20-rasm, b) bo'yicha dopusklar birmuncha qo`polroq klasslarda olinadi. Markazlashtirishning u yoki bu usuli markazlashtirishning qanday aniqlikda talab qilinish, ish sharoiti va tayyorlashning texnologik imkoniyatlariiga bog`liq.

Eng tejamli, demak, eng ko'p tarqalgan markazlashtirish D diametr sirti bo'yicha markazlashtirishdir, chunki shlitsa valining D bo'yicha yuqori aniqligiga jilvirlash yo`li bilan oson erishmoq mumkin, bunda vtulkadagi shlitsa teshiklari protyajka metodi bilan hosil qilinadi.

Evolventa shlitsali birikmalarning dopusklari.

Evolventa shlitsali birikmalar to'g'ri yonli shlitsali uzatmalarga nisbatan ancha ustunliklarga ega: bu birikmalar birmuncha puxta, chunki ularning asosi qalinligi kallagining qalinligidan ortiq, chuqurlik radiusini kattalashtirish hisobiga

tish asosida kichik kuchlanishga ega bo`lib, yaxshi nagruzka ostida valga o`zlar o`rnashib oladi.

Bundan tashqari, evolventa shlitsalar tishli g`ildiraklarning ishlanish printsipi bo`yicha, nisbatan oson tayyorlanadi. Evolventa shlitsali birikmalarning asosiy parametrlari standartlashtirilgan. Markazlashtirish ko`pincha tishlarning evolventa profillari bo`yicha amalga oshiriladi.


Valning ishchi chizmasida E<sub>v</sub>50x2,5x18S<sub>3a</sub>X, shlitsasimon teshikli vtulka chizmasida esa qo`yidagicha bo`ladi:

E<sub>v</sub>50x2,5x18S<sub>3a</sub>.

SHlitsali birikmalarni kontrol qilish kalibrлari.

Vtulkaning tashqi diametri, tishlar yo`g`onligi chuqurliklarining kengligi bo`yicha o`lchamlarning to`g`ri bajarilganligini tekshirish uchun silliq birikmalarda ishlatilgan o`sha chegaraviy o`tuvchi ПП va o`tmaydigan HE skobalar va probkalar ishlatiladi. Chegaraviy kalibrлar dopusklari standartlar bo`yicha belgilanadi, chetlashishlar chegaraviy o`lchamlarga nisbatan D, d, b va S (GOST 1139-58) lar bo`yicha olinadi.

SHlitsali vallar va vtulkalar bir-birlarining o`rinlarini bosishini ta`minlash uchun bularni kompleks o`tuvchi shlitsa kalibrлari bilan qo`shimcha tekshiriladi; shlitsali val-halqa bilan (21-rasm, a), teshik esa probka (21-rasm, b) bilan tekshiriladi. SHlitsali birikmalar kompleks kalibrлari elementlari uchun dopusklari ikkita aniqlik darajasida (GOST 7951-59) belgilangan.



21-rasm. SHlitsali kalibrлar. a-halqa, b-probka

Diametri 150 mm gacha bo`lgan kalibrлar dopusklari standartlashtirilgan (GOST 6528-53).

Valning tashqi diametrinigina yoki teshikning ichki diametrnigina kontrol qilish uchun universal o`lchash vositalaridan yoki chegaraviy kalibr-skobalar va

probkalardan foydalaniladi. Skoba va probkalarning tayyorlanishi va eyilishiga olinadigan dopusklar silil-vallar va teshiklar dopusklari bo'yicha olinadi. Tishlarning yo'g'onligi, chuqurliklarning kengligini (bularni roliklar yordamida kontrol qilish o'rni) chegaraviy kalabrlardan foydalanib tekshirish mumkin.

#### «Aqliy hujum» Yuzasidan savollar

1. Aylanuvchi vallarda nima uchun shponka ishlataladi?
2. SHponka konstruktsiyasi konussimon bo`lishi sababi nimada?
3. Val bilan o`qning farqini ayting.

Tayanch so`z va iboralar: shponka, shlitsa, evolventa, shponkali birikma, shlitsali birikma, shlitsali birikma, to`g`ri yonli shlitsa, kontrol qilish kalibrleri, evolventa shlitsalar.

#### Adabiyot

[1] 191-204 b

Mustaqil ish uchun topshiriqlar

1. SHponka turlari va tuzilishi bilan tanishing.
2. SHlitsa turlari va tuzilishi bilan tanishing.
3. Nazorat qilish kalibrleri bilan shlitsali birikmalarni sifatini o`rganing.

Savollar:

1. SHponkali birikmalarda o`tqazishlar qanday sirtlar bo'yicha amalga oshiriladi?
2. Evolventa shlitsali birikmalarda o`tqazish qaysi elementlar bo'yicha amalga oshiriladi?
3. SHponkali va shlitsali birikmalarni kontrol qilish uchun qanday kalibrler qo'llaniladi?

### **12-MAVZU:O'lchamlar dopusklari. O'lchamlar zanjirining asosiy tushunchalari. O'lchamlar zanjiri va uni hisoblash.**

Reja:

1. Asosiy tushunchalar.
2. O'lcham zanjirlarini maksimumga hisoblash.
3. O'lcham zanjirlarini minimumga hisoblash.

Alovida detallardan yig'ilgan mashina va asboblardagi har bir detal boshqa detallarga nisbatan o`ziga berilgan joyni to`g`ri egallasagina yaxshi ishlaydi. Detallarni to`g`ri joylashuvi o'lcham zanjiri deb ataluvchi raschyon bilan ta'minlanadi.

O'lcham zanjiri deytlganda o'lchamining shunday to`plami tushuniladiki, bu o'lchamlar berk kontur bo'ylab ma'lum ketma-ketlikda joylashadi va konturning o'lchamlaridan biriga ta'sir qiladi.


Bir detalning nisbatan joylashuvi va sirtlarning aniqligini aniqlovchi o`lcham zanjiri detal bo`yicha o`lcham zanjiri deyiladi. (22- rasm). O`lchamlarning turli detallarga tegishli bo`lgan yig`ma chizmadagi kattaligi yig`ma o`lcham zanjiri deyiladi.

Bu zanjirlar yig`ma chizmadagi detallarning bittadan o`lchamlarini o`z ichiga oladi va bundan tashqari o`zining xususiy o`lcham zanjirini berkituvchi zvenosi deyiladi. Hisoblashlarning qulay bo`lishi uchun ular chizmadan chiqarilib, 22-b ko`rsatilganidek grafik tarzida tasvirlanadi. CHizmachilikning qoidalaridan ma'lumki, detalning ishchi chizmasidagi o`lchamlar berk zanjircha hosil qilmasligi mumkin. SHu sababli 22-rasmda detal vitochkasining o`lchami ko`rsatilmagan, ammo grafik tasvirda o`lchamlar zanjirchasi berk kontur bilan ko`rsatilgan hamda vitochka o`lchami hisoblash uchun ko`rsatilgan (22-rasm, b.)

Zanjilda zvenolarning ikki turini bir-biridan farq qiladilar:

1. Tuzuvchi zvenolar, bu zvenolar detal tayyorlashda bevosita hosil bo`ladi.
2. Berkituvchi zvenolar –bu zvenolar detallarga ishlov berishda yoki mashina uzelini yig`ishda hosil bo`ladi. Bularning kattaliklari ham barcha zvenolarning kattaliklariga bog`liq bo`ladi.

Barcha tuzuvchi zvenolarning biror yozma harf bilan tartib nomeri ko`rsatilib belgilanadi (22-rasm, b.).



**22-rasm. Detal bo`yicha chiziqli o`lcham zanjiri. a-detalning o`lchami va dopusklari ko`rsatilgan sxemasi, b-o`lcham zanjiri sxemasi**

Zvenolarning tartib nomerini odatda soat strelkasi yo`nalishi bo`yicha berkituvchi zvenodan qo`yiladi. Berktuvchi zvenoda tartib nomeri o`rniga yig`indi belgisi ( $\Sigma$ ) qo`yiladi.

Zanjirning tuzuvchi zvenolari berkituvchi zvenoda turlicha ta'sir qiladi. Agar tuzuvchi zvenoning kattalashishi bilan berkituvchi zveno ham kattalashsa, u holda bunday tuzuvchi zvenoni kattalashtaruvchi zveno deyiladi. Agar tuzuvchi zvenoning kattalashishidan berkituvchi zveno kichiklashsa, u holda bunday tuzuvchi zveno kichiklashtiruvchi zveno deyiladi (22-rasm).  $N_{\Sigma}$  o'lcham yopuvchi zveno bo`ladi. (bu zveno detalni oxirgi ishslashda hosil qiladi),  $N_2$  kattalashtiruvchi zveno,  $N_1$  va  $N_3$  lar esa kichiklashtiruvchi zvenolar bo`ladi.

Zvenolarning joylashishiga qarab zanjirlar: chiziqli, tekis zvenolar bir-biriga parallel emas va bitta yoki bir qancha tekisliklarda joylashgan fazoviy zanjirlarga bo`linadi. CHiziqli o'lcham zanjirlaridan tashqari burchak o'lcham zanjiri ham bor, bu zanjirning barcha zvenolari burchak kattaliklaridan iborat bo`ladi.

CHiziqli o'lcham zanjirlari eng ko`p tarqalgan. SHu sababli zvenolarning asosiy o`zaro munosabatlari va dopusklarini hisoblash shularga nisbatan bayon qilinadi. Tekis va fazoviy o'lcham zanjirining raschyotlari ancha murakkab bo`ladi, chunki zvenolar parallel bo`lmaganda ularning qiymatlarini berkituvchi zveno yo`nalishiga proektsiyalash kerak.

Berkituvchi zvenoning yo`nalishiga nisbatan  $\alpha$  burchak ostida joylashgan.  
 $\ell_3$  zvenoning proektsiyasi  $\ell_3 \cos \alpha$  ga teng.

O'lcham zanjirining asosiy xossasi o'lcham konturining berk bo`lishi hamda chetlashishlar zanjirining ixtiyoriy zvenosiga ta'sir ko`rsatishidan iborat. Bu xossani 22-rasmda tasvirlangan o'lcham zanjiri misolida ko`rib chiqamiz.

1. Bu zanjir berkituvchi zvenosining nominal qiymati kattalatiruvchi zvenolar normal yig`indisi bilan kichiklashtiruvchi zvenolar qiymatlarining yig`indisi ayirmasiga teng, ya'ni:

$$N_{\Sigma} = N_2 - (N_1 + N_3) = 80 - (40 + 35) = 5 \text{ mm}$$

2. Berkituvchi zvenoning yuqori chetlashishi (VO) kattalashtiruvchi zvenolar pastki (NO) chetlashishlari yig`indisining ayirmasiga teng, ya'ni:

$$VO_{\Sigma} = VO_3 - (NO_1 + NO_2) = +0,04 - [-0,02 + (-0,01)] = 0,07 \text{ mm.}$$

3. Berkituvchi zvenoning pastki chetlashishi (NO) kattalashtiruvchi zvenolar pastki chetlashishlar yig`indisi bilan kichiklashtiruvchi zvenolarning yuqori chetlashishlari yig`indilarining ayirmasiga teng, ya'ni:

$$NO_{\Sigma} = NO_3 - (VO_1 + VO_2) = -0,02 - (0 + 0,01) = 0,03 \text{ mm.}$$

4. Berkituvchi zvenolarning dopuski barcha tuzuvchi zvenolar dopusklarining yig`indisiga teng, ya'ni:

$$\delta N_{\Sigma} = \delta N_1 + \delta N_2 + \delta N_3 = 0,02 + 0,02 + 0,06 = 0,1 \text{ mm.}$$

Hosil bo`lgan dopusklar yig`indisini berkituvchi zveno dopuski bilan taqqoslaymiz (berkituvchi zveno dopuskining nominal qiymati 5 mm ga teng).

**Vo=+ 0,07 mm,**

**NO= - 0,03 mm,**

**dopusk esa  $\delta N_{\Sigma}=0,1$  mm.**

O`lcham zanjirlari bilan ularning chetlashishlari orasidagi bog`lanishlar o`lcham zanjirlarini maksimum va minumga hisoblashga olib keladi. O`lcham zanjirlarini raschyot qilish odatda ikki, ya`ni to`g`ri va teskari masaladan birini echishga keltiriladi.

To`g`ri masala deb, shunday masalaga aytildiki, bu masalada zanjirning barcha tuzuvchi zvenolari dopusklari berilgan bo`lib, berkituvchi zvenoni raschyot qilish kerak bo`ladi. To`g`ri masalani maksimum va minumumga echilganda zanjir o`lchamlari bilan ularning chetlashishlari orasidagi ushbu munosabatlardan foydalilanildi:

- a) berkituvchi zvenoning eng katta chegaravty qiymatlari yig`indisi bilan kattalashtiruvchi zvenolar chegaraviy qiymatlari yig`indisi orasidagi ayirmasiga teng.
- b) berkituvchi zvenoning eng kichik chegaraviy qiymati kattalashtiruvchi zvenolar eng kichik chegaraviy qiymatlari yig`indisi bilan kichiklashtiruvchi evenolar eng katta chegaraviy qiymatlari yig`indisi orasidagi ayirmasiga teng. Rasmida ko`rsatilgan eanjirning berkituvchi zvenosi  $N_{\Sigma}$  eng katta va kichik chegaraviy qiymatlari raschyoti bunday ifodalanadi:

$$N_{\Sigma}^{\vartheta km} = N_3^{\vartheta km} - (N_1^{\vartheta u} + N_2^{\vartheta u}) = 80,04 - (39,98 + 39,99) = 5,07 \text{ mm}$$

$$N_{\Sigma}^{\vartheta u} = N_3^{\vartheta u} - (N_1^{\vartheta km} + N_2^{\vartheta km}) = 79,98 - (40 + 35,01) = 4,97 \text{ mm}$$

O`lcham zanjiri dopusklarini maksimum va minumumga raschyot qilish to`la bir-birini o`rnini bosa oladi. Bu holda hatto zanjirda o`lchamlarning eng noqulay birikmalari bo`lganda ham boshqacha aytganda kattalashtiruvchi zvenolar eng katta qiymatlarga, kichiklashtiruvchi zvenolar esa kichik chegaraviy qiymatlarga ega bo`lsa va aksincha, detallarni tanlab o`tirmay va ularni qo`shimcha ishlov berilmay berkituvchi zvenoning belgilangan aniqliklari ta'minlanadi.

Bunday birikmalar bo`lganda, ravshanki berkituvchi o`lcham ikkita mumkin bo`lgan chekka qiymatlarga, ya`ni eng katta va eng kichik qiymatlarga ega buladi.

Yig`ma zanjirlar uchun ko`pincha berkituvchi zveno va dopusklarning qiymatlari beriladi. Bu xolda zanjirning barcha zvenolari uchun dopusklar raschyoti, ya`ni bu zvenolar uchun aniqlik klasslarini aniqlash teskari masala hisoblanadi. Bu holda berkituvchi zveno ham boshlang`ich zveno hisoblanadi.

Zanjir tuzuvchi zvenolarning aniqlik klasslarini aniqlashda dopusklarni aniqlash uchun qabul qilingan umumiyl formulaga asoslanilgan. YA`ni  $\delta q\alpha i$

bo`lgani uchun berilgan  $\delta$  dopuskda aniqlik klassini a koeffitsientning qiymati bo`yicha topish mumkin, bu koeffitsient aniqlik klassiga bog`liq bo`lib, ushu formula bo`yicha topiladi:

$$\alpha = \frac{\delta}{i}$$

bunda i harfi-dopusk birligi bo`lib, 1 dan 500 mm gacha o`lchamlar uchun qiymatlar berilgan bo`ladi.

Zanjirda bitta emas, balki bir qancha ( $L_1, L_2, \dots$ ) o`lcham bo`ladi, u holda zanjir barcha zvenolarning hammasi bir xilda aniqlik klassida tayyorlangan deb olinsa, aniqliknin  $\alpha$  koeffitsient bo`yicha aniqlanadi.

$$\alpha = \frac{\delta N_{\Sigma}}{0,5 \sum \sqrt[3]{L_{1,ypm}}} = - \frac{\delta N_{\Sigma}}{0,5 \left[ \sqrt[3]{L_{1,ypm}} + \sqrt[3]{L_{2,ypm}} + \dots + \sqrt[3]{L_{m,ypm}} \right]}$$

Bunda  $L_{1,urt}, L_{2,urt}, \dots$  va xakoza-  $L_1, L_2, \dots$  zanjirlar o`lchamlari intervallari uchun o`rtacha qiymatlardir.  $\alpha$  ning topilgan qiymatlarini har qaysi aniqlik klasslari uchun qabul qilingan qiymatlar bilan taqqoslanadi va eng yaqin aniqlik klassi bo`yicha har kaysi zveno uchun dopusklar standart jadvallardan yozib olinadi va to`la almashinuvchanlik qoidalariga rioya qilinganligi tekshiriladi.

Bu shart berkituvchi zveno dopuski zanjirining boshqa zvenolarning dopusklari yig`indisiga teng bo`lishidan iborat. Agar tanlab olingan aniqlik klassi bo`yicha dopusklar yig`indisi berkituvchi zveno uchun berilgan dopuskdan katta yoki kichik bo`lsa, u holda zanjirning bir yoki ikkita zvenosini dopuski tegishli aniqlik klassini tanlash hisobiga ayirma miqdori qadar kamaytiriladi yoki orttiriladi.

### «Aqliy hujum» Yuzasidan savollar

1. Nega ish chizmalarida bir o`lcham tushirib qoldiriladi?
2. O`lchamlar chizmada qanday tartibda qo`yiladi va o`qiladi?
3. Asosiy va yordamchi chiziqlarning farqi nimada?

Adabiyot

[1] 230-240 b

Tayanch so`z va iboralar: o`lcham, zanjir, berkituvchi zveno, kichiklashtiruvchi zveno, kattalashtiruvchi zveno, tuzuvchi zveno.

### Mustaqil ish uchun topshiriqlar

1. Velosiped old gildiragi o`qining chizmasini chizing va o`lcham zanjiri qoidasiga binoan o`lchamlar qo`ying. Berkituvchi zvenoni aniqlang.
2. O`lcham zanjirini maksimumga va minimumga hisob qilishni o`rganing.

### Savollar:

1. O`lcham zanjiri deb nimaga aytildi?
2. Zvenolarning joylashishiga qarab zanjirlar qanday bo`ladi?

3. Zanjir zvenolari dopusklarini hisob qilishda to`g`ri va teskari masalalar nimalardan iborat?
4. Berkituvchi zveno yuqoriligi va pastki chetlashishlari kattalashtiruvchi va kichiklashtiruvchi zvenolarning yuqoriga va pastki chetlashishlari bilan qanday bog`lanishda bo`ladi?

**13-MAVZU: Mahsulot sifati va uni boshqarish. Mahsulot sifati.  
Mahsulot sifatiga ta'sir qiluvchi omillar. Bozor iqtisodiyoti sharoitida  
mahsulot sifatini boshqarishning xususiyatlari.**

Hozirgi vaqtida O'zbekiston Respublikasi bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida mexnatkashlarning moddiy va ma'naviy manfaatdorligini oshirishdan iboratdir. Uning uchun ilmiy - texnik taraqiyotni jadal sur'atlar bilan rivojlantirish, ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatini yaxshilash, jaxon bozorida raqobatlasha oladigan mahsulot ishlab chiqarish kerak bo'ladi. Undan tashqari, eski asbob - uskunalar o'rniga zamona viy bo'lgan xorijiy davlatlarning asbob - uskunalar bilan jihozlamoqdan iboratdir. SHu bilan birgalikda respublikamiz sanoat korxonalarida jahon standartlariga javob beradigan mahsulotlar ishlab chiqarishdir.

Respublikamizning sifatli mahsulotlar ishlab chiqarishi asosan boshlang'ich xom - ashyoning sifatiga ham bog'liqidir.

Yuqorida aytilgan fikrlarga asoslanib, mazkur qo'llanma talabalar uchun "Sertifikatsiya" fanini mustaqil ravishda o'zlashtirish bo'yicha muhum ma'lumotlar batafsil yoritilgandir. Unda O'zbekiston Respublikasi milliy sertifikatsiyalash tizimining faoliyati, mahsulotlarga qo'llaniladigan talablar to'la - to'kis ko'rsatilgandir.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qoshidagi O'zbekiston Davlat standartlashtirish, metrologiya va sertifikatsiyalash tirish markazi (O'zdavstandart) O'zbekiston Respublikasi sertifikatsiyalash tirish milliy tashkilotidir.

O'zDavstandartning sertifikatsiyalash tirish sohasidagi asosiy vazifalari quyidagilar:

- sertifikatsiya sohasida davlat siyosatini amalga oshirish;
- sertifikatsiya o'tkazish bo'yicha umumiyligini qoidalarni yaratish;
- shu sohada axborotlarni chop etish;
- sertifikatsiyalash tirish tizimini takomillashtirish bo'yicha dastur-loyilar ishlab chiqish va ularni Vazirlar mahkamasiga taqdim etish;
- majburiy sertifikatsiyadan o'tkaziladigan mahsulotlar turini aniqlash;
- mahsulotni sertifikatsiyalash tirish va akkreditlashgan tashkilotlar;
- sinov laboratoriyalari va ekspert-auditorlarini Davlat ro'yxatidan o'tkazish;
- bir turdag'i mahsulotni sertifikatsiyalash tirish va sinov laboratoriyalarini akkreditlash;
- sertifikatsiyalash tirish tashkilotlari, ularning faoliyatlarini, akkreditlashtirilgan sinov laboratoriyalarini nazorat qilish;

- talablar bajarilmagan hollarda muvofiqlik sertifikatlarini, akkreditlash guvohnomalarini bekor qilish.

Sertifikatsiyalashtirishni o'tkazish va tayyorlash tartibi RD O'z 00036951 - 003-92 standarti bo'yicha amalga oshiriladi.

Sertifikatsiya bo'yicha shug'ullanuvchi idora mahsulotni sertifikatsiyadan o'tkazadi, ya'ni sertifikatsiya bo'yicha milliy idora bundan mustasnodir.

Sertifikatsiya qilinayotgan mahsulotga qo'yiladigan me'yoriy xujjat ISO/MEK 7 va 51 talablariga javob berishi kerak:

- mahsulotga qo'yiladigan talab;
- tajriba ishiga qo'yiladigan talab (tajriba uslubi, nazorat tartibi va h.k.);
- joylashtirish, transportlash, saqlash va mahsulotni qo'llashga qo'yiladigan talab;

Eksport qilinayotgan mahsulotni sertifikatsiyalashtirish milliy me'yoriy hujjat talablariga bog'liq bo'lib, ta'minlovchi va buyurtmachi tomonidan ma'lum bir shartnoma asosida kelishilgan holda olib boriladi.

Sertifikatsiyalashtirishdagi hujjatlar hamma narsa to'g'ri va aniq ko'rsatilgan bo'lishi shartdir.

Tajriba uslubi standartda belgilangan tartibda qo'yiladi va mahsulot standartining ma'lum bir qism shartlari tekshiriladi.

Ishlab chiqarish sertifikatsiyasi yoki sifat tizimi belgilangan sxema asosida bajariladi.

Majburiy mahsulot sertifikatsiyasi uchun ISO/MEK tadbig' etgan uchunchi tomon sertifikatsiyasi bo'yicha, 2-xujjatga binoan sertifikat ko'rinishni qo'llaniladi.

Ixtiyoriy mahsulot sertifikatsiyasi uchun esa, 3 va 4 xujjatga asosan sertifikatni berish qo'llaniladi.

1 va 2 xujjat qizg'ish rangda, 3-xujjat esa – och yashil rangdagi qog'ozda bajariladi.

Sertifikatning ta'sir vaqtini sertifikatsiyalashtirish bo'yicha shug'ullanuvchi idora tomonidan belgilanadi.

Agarda, mahsulot ishlab chiqarish loyihasi yoki ishlab chiqarish texnologiyasi o'zgarsa, unda talabgor sertifikat bo'yicha shug'ullanuvchi idoraga ma'lum qilishi shart.

Me'yoriy hujjatda qo'yilgan sertifikatlashtirishning me'yorini o'zgarsa, unda sertifikatning ta'siri shu vaqtdan boshlab to'xtaydi.

Mabodo, sertifikat tizimida olingan bo'lsa, shunda O'zRST 5.1-92 standarti bo'yicha belgilardan biri qo'llaniladi.

Mahsulotga sertifikatning e'tirof qilinishi quyidagicha bo'ladi:

- tizimda qabul qilingan sertifikatsiyalashtirish sxemasi bo'yicha;
- talablarga bog'liq ravishda, mahsulotni sertifikatsiyalashtirish tizimida olibriladi.

Qilingan tahlilga asosan, olingan hujjatlar bo'yicha sertifikatsiyalashtirish bo'yicha shug'ullanuvchi idora qaror qiladi va sertifikatni e'tirof qiladi (yoki e'tirof qilmaydi).

O'z RD 51-025-94 standarti korxona va tashkilot sifat tizimini va ishlab chiqarishni sertifikatsiyalashtirishga mo'ljallangan.

Sifat tizimi va ishlab chiqarishni sertifikatsiyalashtirish ishlari quyidagicha amalga oshiriladi:

- ichki bozor iste'molini qoniqtirish;
- O'zbekiston Respublikasidan tashqari jahon bozorida eksport mollarini ko'paytirish;
- mahsulotning sifat darajasiga kafolat berish.

Sifat tizimi va ishlab chiqarishni sertifikatsiyalashtirish ishlari quyidagi asosiy jarayonlarga rioya qilishi kerak:

- ixtiyoriy;
- ob'ektiv boholanish;
- natija bahosini qayta ishlash;
- maxfiy ravishda;
- xabarlashish.

1. Ixtiyoriy - sifat tizimi va ishlab chiqarishni sertifikatsiyalashtirish qachongina undan talabnama kelib tushgandan keyingina o'tkaziladi.

Sifat tizimi va ishlab chiqarishni sertifikatsiyalashtirish bo'yicha talabnama sertifikatsiya bilan shug'ullanuvchi hohlagan tashkilotga jo'natish mumkin.

2. Ob'ektiv boholash – idoraga bog'liqsiz holda, talabgordan ishga ekspert-auditorlarni jalgan qilgan holda sertifikatsiyalashtirish ishlarini olib borish mumkin. Natijalar bahosi oylik maoshiga ta'sir qilmasligi kerak. Tekshirish ishlarini ikkitadan kam bo'limgan ekspert-auditorlar olib borishi mumkin.

3. Natija bahosini qayta ishlash – tekshirish, sifat tizimini baholash va ishlab chiqarish uslubini o'tkazishda yagona talablarni qo'llash, haqiqiy ko'rsatkichlarga asosan baholash, natija baholari va sertifikatsiyalashtirishga asosan hujjatlar to'ldiriladi va hakozo (1-hujjat).

Sertifikatsiyalashtirish bo'yicha ekspert-auditorlarni attestatsiyalash O'zDavstandartning maxsus komissiyasi tomonidan O'z RD 51-014 standarti talablariga binoan olib boriladi.

Har bir korxona sifat tizimi va sertifikatsiyalashtirishni olib borish uchun deklaratsiyaga ega bo'lishi kerak (3-hujjat).

Undan tashqari sertifikatning muddatini idoraning o'zi belgilaydi. Agar sertifikat muddatini uzaytirishni hohlagan shaxs, shu sertifikat muddatining tugashiga 3 oy qolganga qadar qilishi mumkin (4-5 xujjalr).

Sifat tizimiga bog'liq sertifikat kamida 3 yil (qayd etilgan yildan boshlab) o'z ta'sirini yo'qotmaydi.

Sertifikatlashtirilgan mahsulot, sertifikatlashtirish uchun akkreditlangan idoralar va tajriba laboratoriyalari ustidan tekshiruvchan nazorat o'tkazish tartibi O'zRD 51-018-93 standartiga asosan amalga oshiriladi.

Tekshiruv nazorat guruhining maqsadi – sertifikatlashtirish bo'yicha me'yoriy hujjat talabiga rioya qilishni ta'minlash, iste'molchilarining qiziqishini himoya qilishdir.

Tekshiruvchan nazorat guruhining vazifasi – ND talablari bo'yicha sertifikatlashtirish mahsulotlarini ob'ektiv baholash, laboratoriyalarni

akkreditlashtirishda ND talablarini, qilinadigan kamchiliklarni tekshirish va ularni bartaraf etish.

Tekshiruvchi nazorat ob'ekti – sertifikatlashtirilgan mahsulot, ish va xizmat.

Nazorat ishlari quyidagi hujatlarga asoslanib tekshiriladi:

- davlatlaroro standart;
- halqaro standart;
- O'zbekiston Respublikasi standarti;
- korxona standarti;
- texnik shart;
- sertifikatlashtirishda milliy boshqaruv hujatlari.

Tekshirish muddatini sertifikatlashtirish doirasi belgilaydi.

Tekshiruvchan nazorat umumiy xolda uchta uzviy bosqich ishidan iboratdir:

- 1) tekshirishning umumiy vazifasini aniqlash;
- 2) tekshirishni o'tkazish;
- 3) tekshirish ishlari bo'yicha qaror qabul qilish.

Tekshiruvchan nazorat qoidaga asosan to'rtta uzviy bog'liq ishdan iboratdir:

- tekshirishga tayyorlash;
- tekshirishni o'tkazish;
- tekshirishni ob'ektiv baholash;
- tekshirish natijalarini rasmiylashtirish.

Tekshirishni tayyorlashda birinchidan boshlang'ich ma'lumotlar (qo'llanilish sharoiti, transportlash, saqlash va h.k.), ikkinchidan nazorat tajriba uslubi, tekshirishga ketgan sarf-harajatlar, uchinchidan tekshirish dasturi, anketa-savolnomasi va boshqa ko'rinishdagi hujatlari bilan tanishiladi.

Tekshiruvchan nazorat guruhi ND talablarini buzgan kamchiliginini topib, uning sabablari aniqlangandan keyin komissiya ishi tugatiladi.

Tekshirishni o'tkazish ishlari quyidagilardan iborat:

- a) sinov texnikasining holati, sinov uslubi va tartibi;
- b) ishlab chiqarishni metrologik ta'minlash;
- v) texnologik jarayon tarkibida n6azorat ishlarining bajarilishi va to'g'ri belgilanishiga rioya qilish;
- g) mahsulotlarni transportlash va saqlash ishlarini to'g'ri tashkillashtirish va bajarilishini nazorat etish;
- d) texnologik uskunalarining qo'llanilishini to'g'ri tashkil etish;
- e) hom-ashyo, materiallarning ishlatilishi, qo'llanishiga rioya qilish;
- j) mahsulot ishlab chiqarish sharoitini to'g'ri ta'minlash (harorat, yorug'lik, namlik, tozalik va boshqalar).

Tekshirishni ob'ektiv baholashda tomonlarning ishonchsizligi yo'qolmasligi va qiyinchilik tug'dirmasligi kerak.

Tekshirish ishlari qoniqarli bo'lsa, u holda komissiya a'zolari tekshirish tugaganligi haqida ma'lumotnomasi yozib beradi va qilingan ish bo'yicha akt tuziladi. SHu aktning birinchi nusxasi tekshirilayotgan korxonaga, ikkinchi nusxasi nazorat idorasiga va uchinchi nusxasi esa sertifikatlashtirish idorasiga jo'natiladi.

Sertifikatlashtirish idorasining roziligidagi binoan ba'zi bir xujjatlarni tekshirish uchun qiziquvchi korxona yoki tashkilotlarga yuboriladi.

Sinov, o'lhash asboblari, uskunalarning holati va qo'llanishini nazorat qilishda quyidagilar e'tiborga olinadi:

- a) mahsulotni sinash uchun o'lhash asboblari, uskunalarning mavjudligi;
- b) asbob-uskunalarning to'g'ri ekspluatatsiya qilinishini ta'minlash, sinalayotgan mahsulotlarning qoniqarli tavsifnomaga egaligi;
- v) ekspluatatsion xujjatlarning mavjudligi (pasporti, ishslash tartibi va h.k.);
- g) har bir uskunaning tavsifnomasi bilan hisobga olish va qayd etish:
  - uskunaning nomi;
  - tayyorlov korxonasining nom iva adresi;
  - olingan vaqt;
  - turgan joyi;
  - xizmat va sozlash haqidagi ma'lumotnomasi.
- d) har bir o'lhash asboblarining tavsifnomasi bilan birgalikda hisobga olish va qayd etish:
  - oxirgi tekshirilgan sana;
  - o'lhash asboblari uchun tekshiriladigan mahsulotlarning yetarligi;
  - standart namuna va materiallarning mavjudligi.

Tekshirish ishlarini ob'ektiv baholash va tekshirish natijalarini rasmiylashtirish belgilangan shartlarga binoan olib boriladi.

Ayrim so`zlarning izoxli lug`ati

Avto-(yunon. avtos-o`zim) «o`zim», «o`z qo`lim bilan», «o`zi harakatlanadigan» ma'nolarni bildiradi

Babka- stanokda-metall qirqish va yog`ochga ishlov beruvchi stanoklarining qismi, aylanma harakat uzatuvchi yoxud zagatovkani tutib turish uchun xizmat qiladi

Bolt (nem. bolt(e))-mahkamlash detali. Odatda olti qirrali yoki kvadrat kallakli silindrik sterjenden iborat bo`ladi. Tanasining rezbali qismiga gayka buraladi

Burchak o`lchagich (uglomer)- mashina detallari va boshqa buyumlarni detallarining burchaklarini o`lchaydi

Vibratsiya- (lot. vibratio-tebranish) mashinalar harakatidagi titrash orqali ish rejimi va qurilmalarni buradi

Vint (nem. Gewinde-o`yiq rezba) silindrik ba'zan konussimon vint sirtli mashina detali va vintsiomn detal

Indikator-(lot. indico-ko`rsataman, aniqlayman) jarayonlar borishini yoki kuzatilayotgan ob'ektning holatini inson idrok eta oladigan shaklda tasvirlovchi asbob

Induktsion o`lhash asbobi-bir yoki bir necha uzgaruvchan magnit okimi bilan asbobning qo`zg`aluvchan qismida induktsiyalangan toklarning o`zaro ta'siriga asoslangan o`lhash asbobi

Kilo-(yunon chilioi-ming) o`nlik karrani bildiruvchi old qo`shimcha  $10^3$  ni anglatadi. Belgisi k mas. 1 kA (1 kiloamper)

Kinematika-(yunon kinematos-harakat) jismlarning mexanik harakatini o`rganuvchi fan

Metr-frants metre, yunon metrion-o`lchov SI sistemasidagi uzunlik birligi

Metriya-(yunon metroo-o`lchayman) «o`lchash»ni anglatuvchi qo`shma so`z bo`lagi

Metrik-buyumlarga ichki rezba chiqaradigan metall qirqish asbobi

Plashka-bolt, vint, shpilka va b. detallarga tashqi rezba ochishda ishlatiladigan asbob

Rezba-aylanish jismlari sirtlarida vint chizig`i bo`ylab ketma-ket joylashgan ariqcha va buyurtmalar

Standart-(ing. standart-norma, me`yor, o`lcham) keng ma`noda boshqa ob`ekt (mahsulotlarni) taqqoslash uchun dastlabki ob`ekt deb qabul qilingan o`ziga o`xhash namuna, etalon

Standartlashtirish-standartlarni belgilash va qo`llash jarayoni

Xoninglash (ing. honing-charxlamоq) zagatovkaning sirtini maydonador abraziv materiallar bilan tekishlash

**Mahsulot sifatini nazoart qiluvchi xalqaro tashkilot. Xalqaro sifat markazi.**

**Члены Международной организации законодательной метрологии  
(МОЗМ - OIML)**

01.03.2010

**57 OIML Member States listed**

ALBANIA (AL)	HUNGARY (HU)	POLAND (PL)
ALGERIA (DZ)	INDIA (IN)	PORTUGAL (PT)
AUSTRALIA (AU)	INDONESIA (ID)	ROMANIA (RO)
AUSTRIA (AT)	ISLAMIC REPUBLIC OF IRAN (IR)	RUSSIAN FEDERATION (RU)
BELARUS (BY)	IRELAND (IE)	SAUDI ARABIA (SA)
BELGIUM (BE)	ISRAEL (IL)	SERBIA (RS)
BRAZIL (BR)	ITALY (IT)	SLOVAKIA (SK)
BULGARIA (BG)	JAPAN (JP)	SLOVENIA (SI)
CANADA (CA)	KAZAKHSTAN (KZ)	SOUTH AFRICA (ZA)
CROATIA (HR)	KENYA (KE)	SPAIN (ES)
CUBA (CU)	REPUBLIC OF KOREA (R.) (KR)	SRI LANKA (LK)
CYPRUS (CY)	THE FORMER YUGOSLAV REPUBLIC OF MACEDONIA (F.Y.R.) (MK)	SWEDEN (SE)
CZECH REPUBLIC (CZ)	MONACO (MC)	SWITZERLAND (CH)
DENMARK (DK)	MOROCCO (MA)	UNITED REPUBLIC OF TANZANIA (TZ)
EGYPT (EG)	NETHERLANDS (NL)	TUNISIA (TN)
FINLAND (FI)	NEW ZEALAND (NZ)	TURKEY (TR)
FRANCE (FR)	NORWAY (NO)	UNITED KINGDOM (GB)

GERMANY (DE)	P.R. CHINA (CN)	UNITED STATES (US)
GREECE (GR)	PAKISTAN (PK)	VIET NAM (VN)

## 58 OIML Corresponding Members listed

ARGENTINA (AR)	JORDAN (JO)	PANAMA (PA)
BAHRAIN (BH)	DEMOCRATIC PEOPLE'S REPUBLIC OF KOREA (D.P.R.) (KP)	PAPUA NEW GUINEA (PG)
BANGLADESH (BD)	KUWAIT (KW)	PARAGUAY (PY)
BARBADOS (BB)	KYRGYZSTAN (KG)	PERU (PE)
BENIN (BJ)	LATVIA (LV)	QATAR (QA)
BOSNIA AND HERZEGOVINA (BA)	LIBYA (LY)	RWANDA (RW)
BOTSWANA (BW)	LITHUANIA (LT)	SEYCHELLES (SC)
BURKINA FASO (BF)	LUXEMBURG (LU)	SINGAPORE (SG)
CAMBODIA (KH)	MADAGASCAR (MG)	SUDAN (SD)
CHINESE TAIPEI (TW)	MALAYSIA (MY)	SYRIAN ARAB REPUBLIC (SY)
COMOROS (KM)	MALTA (MT)	TAJIKISTAN (TJ)
COSTA RICA (CR)	MAURITIUS (MU)	THAILAND (TH)
DOMINICAN REPUBLIC (DO)	MEXICO (MX)	TRINIDAD AND TOBAGO (TT)
ESTONIA (EE)	REPUBLIC OF MOLDOVA (MD)	UEMOA (UEMOA) *
FIJI (FJ)	MONGOLIA (MN)	UKRAINE (UA)
GABON (GA)	MONTENEGRO (ME)	UNITED ARAB EMIRATES (AE)
GHANA (GH)	MOZAMBIQUE (MZ)	URUGUAY (UY)
GUATEMALA (GT)	NEPAL (NP)	UZBEKISTAN (UZ)
HONG KONG (HK)	NICARAGUA (NI)	
ICELAND (IS)	OMAN (OM)	

\* UEMOA – Западно-Африканский экономический и финансовый Союз

### *Mahsulot sifati va sifat boshqaruvi*

Belgilangan mahsulotning sifat ko'rsatkichlarining nomenklaturasini tanlash, bu ko'rsatkichlarining qiymatlarini aniqlash va ularni asos bo'luvchi qiymatlar bilan taqqoslashni o'z ichiga oluvchi ishlarning yig'indisi mahsulot sifatining darajasini baholash deb ataladi. Mahsulot sifatining darajasini baholash uchun mahsulotlar ikkita turkumga bo'linadi:

- foydalanishda sarflanadigan mahsulot;
- o'z resursini sarflaydigan mahsulot.

Mahsulot sifatining ko'rsatkichlar nomenkulaturasini tanlab olishni asoslash quyidagilarni inobatga olgan holda amalga oshiriladi:

- mahsulotni ishlatalishidagi sharoitlarini va vazifasini;
- iste'molchilar talablarining tahlilini;
- mahsulot sifatining tavsiflanuvchi tarkibini va tuzilishini;
- sifat ko'rsatkichlariga bo'lган asosiy talablarni.

Mahsulot sifatiga ta'sir etuvchi omillarni to'rt toifaga bo'lish mumkin:


- \* texnikaviy;
- \* tashkiliy;
- \* iqtisodiy;
- \* ijtimoiy.

Texnikaviy omillarga uskunalarining jihozlanish, asboblarning hamda nazorat vositalarining, texnikaviy hujjatlarning holati; dastlabki materiallar, yarimfabrikat-larning sifati va shunga o'xshashlar kiradi.

Tashkiliy omillarga rejalik, bir maromda ishlash, texnikaviy xizmat va uskunalarini ta'mirlash; materiallar, komplektlanuvchi buyumlar, jihozlanishi, asboblarni texnikaviy hujjatlar va nazorat vositalari bilan ta'minlanganligi, ishlab chiqarish madaniyati; mehnatni ilmiy asosda tashkil etish; ovqatlanish va ish vaqtida dam olishni tashkil etish va boshqalar kiradi.

Iqtisodiy omillarga mehnatga pul to'lash shakllari, oylik maoshning miqdori; yuqori sifatli mahsulotni va ishni moddiy rag'batlantirish; mahsulotning yaroqsizligi uchun oylik maoshidan ushlab qolish; uning sifat darajasi; tannarxi; mahsulotning bahosi va shunga o'xshashlar kiradi.

Ijtimoiy omillarga kadrlarni tanlash, joy-joyiga qo'yish; malaka oshirishni tashkil qilish; ilmiy-texnikaviy ijodni, ijodkorlik va ixtirochilikni tashkil etish, turmush sharoitlari, o'zaro munosabatlar, jamoadagi psixologik iqlim va tarbiyaviy ishlar kiradi.



**23-rasm.Sifat xalqasi modeli**

1. Marketing, maxsulotning bozorgirligining o'rganish, izlanish olib borish
2. Loyixalash va texnik talablarni ishlab chiqish
3. Moddiy texnik ta'minot
4. Texnologik jarayonni tayyorlash va ishlab chiqish
5. Maxsulotni ishlab chiqarish
6. Maxsulotni sinash va nazorat qilish
7. Maxsulotni qadoqlash (upakovka) va saqlash
8. Maxsulotni taqsimlash va sotish
9. Montaj va ekspluatatsiya qilish
10. Hizmat qilishda texnik yordam ko'rsatish
11. CHiqindilarni qayta ishlash, utilizatsiya qilish

Mahsulot sifatini tashkil topishi, uning hamma hayotiy bosqichlarida - tadqiqot va loyihalash ishlarida; ishlab chiqarishda; muomalada; iste'molda yoki ishlatishida namoyon bo'ladi.

Tadqiqot va loyihalash ishlari mahsulotning sifatini oshirilishida belgilovchi o'rinni egallaydi. Bu bosqich sifatni tashkil topishining boshlanishi hisoblanib, bunga ilmiy-texnika taraqqiyotining qo'llanishi natijasida hamda me'yoriy hujjatlarni mahsulot ishlab chiqarish uchun uni muomalada, iste'molga yoki ishlatilishiga belgilangan iqtisodiy ko'rsatkichlariga rioya qilgan holda tayyorlash natijasida erishiladi. Bu bosqichda quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi:

- andozalar, sifat ko'rsatkichlariga ega bo'lган namunalarga yo'naltirilgan ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstrukturlik va boshqa ishlarni bajarish;
- me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish va joriy qilish;
- standartlarga rioya qilinishida o'z-o'zini nazorat qilishini amalga oshirish;
- mahsulot sifatining darajasini istiqbollash va me'yorlash;
- mahsulot sifatini rejalanigan darajasiga erishish, turli usullarni tayyorlash choralarini joriy qilish, sinash va nazoratga yo'naltirilgan konstrukturlik va texnologik tadbirlarni ishlab chiqish;
- bizda va xorijda chiqarilayotgan shu xildagi mahsulot sifati haqidagi axborotni tahlil qilish;
- mahsulot sifatining ko'rsatkichlarini va shuningdek sifat darajasini baholashni tasniflash va aniqlash.

Mahsulot sifatini boshqarish tizimlari ishlab chiqish bosqichida texnikaviy darajani rivojlanishini yuqori sur'atlarda doimo bo'lishini ta'minlaydi.

Murakkab va mas'uliyatli buyumlar uchun ishlab chiqishda sifatni boshqarish jarayonida maxsus ish rejalarini tuziladi. Maxsus konstrukturlik ilmiy-tadqiqot yoki loyihalash institutlarida, sanoat korxonalarida konstrukturlik texnologik bo'lim (byuro)larda yangi mahsulot namunalarini ishlab chiqish mumkin. Bunda asosiy e'tibor ushbu buyum namunasi haqiqatdan yangi bo'lishiliga yoki ishlab chiqarishidagi buyumlarni takomillashganligiga qaratiladi.

Mahsulotni ishlab chiqarishga tayyorlash bosqichida optimal texnologik jarayonlarni tanlash qiyin va u ma'suliyatli vazifa, chunki bu bosqichda doimiy texnologiyaning qiyinlashishi hamda ishlab chiqarishning iqtisodiy ko'rsatkichlarini yaxshilash zaruriyati bo'ladi. Tayyorlash bosqichida mahsulot sifatini oshirish korxonaning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Mahsulotni ishlab chiqarish bosqichida esa quyidagi tadbirlar amalga oshirilishi mo'ljallanadi:

- mahsulotni bevosita tayyorlash;
- uskunalarining, jihozlarning, nazorat o'lchash texnikasining sifatini kerakli darajada bo'lishini ta'minlash va nazorat qilish;
- mahsulot sifatini oshirish, yaroqsizlikni oldini olish, me'yoriy hujjatlarga mos kelmaydigan mahsulot ishlab chiqarish sabablarini bartaraf qilish tadbirlarini tayyorlash va amalga oshirish;
- me'yoriy hujjatlarni joriy qilish va ularga qat'iy rioya qilish;
- korxonaga tushayotgan xom ashynoning, materiallarning, yarimfabrikatlarning komplektlanuvchi buyumlarning kirishdagi nazoratini o'rnatish;
- chiqarilayotgan mahsulotning ish bajarishdagi, qabuldag'i va sinashdagi nazoratini o'rnatish;
- tekshiruvchan nazoratga, me'yoriy hujjatlarga rioya qilish;
- ishlatilish bosqichidagi mahsulotning sifati haqidagi axborotni yig'ish va toplash, uning yaroqsizligini, u haqidagi shikoyatlarni hisobga olish va tahlil qilish;
- xom ashyo, materiallar, yarimfabrikatlar, komplektlanuvchi buyumlarni va tayyor mahsulotni omborlarda, korxona ichidagi transportlarda me'yoriy hujjatlarning talablariga binoan olib yurilishini ta'minlash va nazorat qilish;
- belgilangan sifat darajasidagi mahsulotni chiqazishda korxonaning xodimlarini moddiy va ma'naviy rag'batlantirish.

Ishlab chiqarish birlashmalarida, korxonalarda ishlab chiqarish bosqichida qo'yilgan maqsadlarga va vazifalarga erishishda mahsulot sifatini boshqarish tizimlari ta'minlaydi.

### ***Mahsulot haqidagi ma'lumotlarni standartlashtirish va kodlash***

Ba'zan biror mahsulot xarid qilganimizda uning ko'rinarli joyida yoki etiketkasida har xil qalinlikdagi chiziqlar va raqamlar bilan belgilangan shakllarni ko'rishimiz mumkin. Ularga shtrix-kod nomi berilgan. Xo'sh, shtrix-kodlar nima va qachon paydo bo'lgan?

SHtrix-kodlardan mahsulotlarga nisbatan tadbiq etish g'oyasi ilk bora 30-yillarda AQSHning Garvard biznes mакtabida yaratilgan bo'lib, undan amalda foydalaniш bir necha o'n yillardan so'ngina, ya'ni, 60-yillardan boshlangan. SHtrix-kodlarni dastlabki qo'llovchilar temir yo'lchilar bo'lib, shu usul orqali temir yo'l vagonlarini identifikatsiyalashtirilgan. Mikroprotsessor texnikasining gurkirab rivojlanishi 70-yillardan boshlab shtrix-kodlardan keng ravishda foydalaniш imkonini yaratdi. 1973 yil AQSHda Mahsulotning Universalъ Kodi (IPC) qabul qilinib, 1977 yildan boshlab esa Yevropa Kodlash Tizimi YeAN

(European Article Numbering) ta'sis etildi va hozirda undan nafaqat Yevropada, balki boshqa mintaqalarda ham keng ravishda foydalanishmoqda.

SHtrix-kod ketma-ket almashinib keluvchi qora (shtrix) va oq (probel) rangli, turli qalinlikdagi chiziqlardan iborat bo'lib, bu chiziqlarning o'lchamlari standartlashtirilgan. SHtrix-kodlar maxsus optik qurilmalar - skanerlar yordamida o'qishga mo'ljallangan. Uning vositasida, mikroprotsessorlar orqali shtrixlar raqamlarga dekoderlanib, mahsulot haqidagi ma'lumotlar kompryuterga uzatiladi.

Ko'pgina iqtisodiy rivojlangan davlatlarda mahsulotning o'ramida (upakovkasida) shtrix-kodning bo'lishi majburiy sanaladi. Aks holda savdo tashkilotlari mahsulotdan voz kechishlari mumkin. Bu xalqaro savdoga ham tegishlidir. Ushbu tizimning iqtisodiy jihatdan samaraliligi mahsulotning 85 foizidan ko'pi kodlashtirilganda yaqqol namoyon bo'ladi. Bundan tashqari, mahsulotga nisbatan bo'lgan talab va ehtiyojlarni shakllantirish, jamlash, hisobga olish, mahsulotni kelish-ketishini hisob qilib borish, muxosiblik hisoblarida va hujjatlarni rasmiylashtirishda, hamda mahsulotlarni saqlash va sotuvidagi nazoratlarni amalga oshirishda alohida o'rinn tutadi.

Asosan EANning ikki kodidan ko'proq foydalaniladi: 13 razryadli va 8 razryadli raqamli kodlar. Bunda eng ingichka shtrix birlik sifatida olinadi. Har bir raqam (yoki razryad) ikki shtrix va ikki probeldan iborat bo'ladi (1- va 2- rasmlar). 13 razryadli kodning tarkibida quyidagi kodlar ko'rsatiladi:

- davlat kodi ("davlat bayrog'i");
- korxona (firma) - tayyorlovchi kodi;
- mahsulotning kodi;
- nazorat soni.

EAN assotsiatsiyasi turli davlatlar uchun kodlar ishlab chiqqan bo'lib, ushbu kodlardan foydalanish uchun markazlashgan tarzda litsenziyalar tavsiya etadi. Masalan, Frantsiya uchun davlat kodi sifatida 30-37, Italiya uchun 80-87 oraliqlari tavsiya etilgan. Ba'zi davlatlarning kodlari uch xonali sondan iborat. Masalan, Gretsiya -520, Rossiya - 460, Braziliya - 789. Quyiroqda kelitiriluvchi 2.1.jadvalda ba'zi bir davlatlarning litsenziya asosida olingan kodlari keltirilgan.

Tayyorlovchi korhonaning kodi har bir davlatda tegishli organlar tomonidan tuziladi. Odatta, bu kod beshta raqamdan iborat bo'lib, davlat kodidan keyin keladi.

Mahsulot kodi tayyorlovchi tomonidan tuziladi va u ham beshta raqamdan iborat bo'ladi. Bu kodning rasshifrovkasi standart emas, u mahsulotga taalluqli bo'lgan muayyan hususiyatlarni (belgilarni) yoki faqat tayyorlovchining o'zigagina ma'lum bo'lgan va shu mahsulotning qayd etish tartib raqamini ifodalashi ham mumkin.


EAN-8 kodi uzun kodlarni belgilab bo'lmaydigan kichik o'ramlar (upakovkalar) uchun mo'ljallangan. EAN-8 kodi quyidagi kodlar tartibidan iborat:

- davlat kodi ("davlat bayrog'i");
- korxona (firma) - tayyorlovchi kodi;
- nazorat soni.



Ba'zan, tayyorlovchi korhona kodining o'rniga mahsulotning qayd etish tartib raqami keltirilishi ham mumkin.

Raqamlar qatori skaner uchun emas, balki xaridorlar uchun mo'ljallangan. Talabgor (xaridor) uchun ma'lumot faqat mahsulot tayyorlangan davlatni bildirish bilan chegaralanadi, chunki davlat kodi maxsus nashrlarda va ma'lumotnomalarda keltirilib turadi yoki ma'lumot bazalarida va banklarida saqlanishi mumkin. To'liq shtrixli kod tashqi savdo tashkilotlariga yoki savdo ob'ektlariga mahsulotning aniq kelib chiqish rekvizitlarini bilish va kerak bo'lsa mahsulotning kontrakt (shartnomalariga mos kelmaydigan parametrlari va ko'rsatkichlari borasida aniq manzilga raddiya yoki norozilik bildirish imkoniyatini yaratadi.


Nazorat soni EAN algoritmi bo'yicha kodni skaner vositasida to'g'ri o'qilganligini tekshirish uchun xizmat qiladi.



**24.1-rasm.**  
**13 razryadli EAN kodi**



**24.2-rasm**  
**8 razryadli EAN kodi**



**Mahsulotni shtrixli kodlanishi uchun ayrim  
davlatlarning EAN kodi**

1-jadval

<b>Davlat kodi</b>	<b>Davlat nomi</b>	<b>Davlat kodi</b>	<b>Davlat nomi</b>	<b>Davlat kodi</b>	<b>Davlat nomi</b>
93	Avstraliya	539	Irlandiya	383	Sloveniya
90-91	Avstriya	569	Islandiya	00-09	AQSH va
779	Argentina	84	Ispaniya		Kanada
54	Bel'giya va Lyuksemburg	80-83	Italiya	869	Turkiya
380	Bolgariya	529	Kipr	64	Finlyandiya
789	Braziliya	690	Xitoy	30-37	Frantsiya
50	Buyuk Britaniya	850	Kuba	859	CHexiya
599	Vengriya	750	Meksika	780	CHili
759	Venesuela	87	Niderlandiya	73	SHvetsiya
400-440	Germaniya	94	Yangi-Zelandiya	76	SHveytsariya
489	Gonkong	70	Norvegiya	860	a
520	Gretsiya	590	Pol'sha	880	Yugoslaviya
57	Daniya	560	Portugaliya		Janubiy
729	Isroil	460-469	Rossiya	45-49	Korea
		888	Singapur	478	Yaponiya
					O'zbekiston

